

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG  
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



**“KARRUPSIYAGA QARSHI KURASH FUQAROLIK JAMIYATINI  
RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI”  
MODULI BO‘YICHA**

**O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA**

**Toshkent – 2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan**

**KARRUPSIIYAGA QARSHI KURASH FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI**

Tuzuvchi: O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasida dotsenti v.b. T.Xojiyev

Taqrizchilar: O‘zMU “Fuqarolik jamiyati va huquq ta’limi” kafedrasida s.f.d., prof. I.Ergashev  
TDSHU, professori, s.f.d., U.Idirov

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan**  
*(2021 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)*

## MUNDARIJA:

<b>I. ISHCHI DASTUR .....</b>	<b>Ошибка! Закладка не определена.</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.....</b>	<b>13</b>
<b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>17</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>51</b>
<b>V. GLOSSARIY .....</b>	<b>125</b>
<b>VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....</b>	<b>146</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi. (Sohaga tegishli farmon, qarorlar mavjud bo‘lsa, ularni qabul qilingan yili ketma-ketligida ushbu abzas jummalari orasiga kiriting)

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejaları asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

## **Modulning maqsadi va vazifalari**

**Modulning maqsadi:** Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovasion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat. **Modulning vazifalariga** quyidagilar kiradi:

O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati, asosiy yo'nalishlari, korrupsiyaga qarshi kurash: rivojlangan mamlakatlar tajribasi, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi, "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonida belgilangan vazifalar amaliyotga joriy qilish hisoblanadi.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

□ Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmunmohiyatini.

□ O'zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishini;

□ Korrupsiyaga qarshi kurashda rivojlangan mamlakatlar tajribasini;

□ Rivojlangan g'arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini;

□ Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini;

□ O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi

□ O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida inson huquqlarining ta'minlash – korrupsiyaga qarshi kurashning omili

□ “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmonida belgilangan vazifalarni **bilishi** kerak. **Tinglovchi:**

□ Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmunmohiyatini o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;

□ O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi, Rivojlangan g‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;

□ “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmonida belgilangan vazifalarni tashviqot-targ‘ibot qilish;

□ pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim. **Tinglovchi:**

□ axborot kommunikasion texnologiyalari va ularni qo‘llashning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini bilish;

□ O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi, Rivojlangan g‘arb mamlakatlarida fuqarolik jamiyati shakllanishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi bo‘yicha zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlarini turli sohalarga tatbiq qilish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash **malakalariga** ega bo‘lishi lozim. **Tinglovchi:**

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;

□ fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ilmiy-nazariy masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;

□ ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;

□ videodarslarni tayyorlash;

□ egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;

□ O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va Fuqarolik jamiyati fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;

□ fuqarolik jamiyatining ilmiy-nazariy metodologiyasi, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi qarashlari, fuqarolik jamiyati va demokratik institutlarni rivojlantirishning ilg‘or xorijiy tajriba, O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish amaliyoti kabi fuqarolik jamiyati paketlar fanlarining dolzarb masalalariga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasion va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish”, “Ilmiy va innivasion faoliyatni rivojlantirish”, “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” va “Maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili” modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar tegishli ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish

mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kometentligiga qo‘yiladigan talablari bilan belgilanadi.

### **Modulning oliy ta’limdagi o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashga oid nazariya va amaliyot, bu boradagi ilg‘or tajribani o‘rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy layoqatga ega bo‘ladilar.

### **Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti**

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Жами	jumladan		
			Назарий	Амай машғулот	Кўчма машғулоти
1.	Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati.	4	2	2	
2.	O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi	2	2		
3	Korrupsiyaga qarshi kurash: rivojlangan mamlakatlar tajribasi.	4	2	2	
4	Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish: fuqarolik jamiyati taraqqiyoti kafolati.	4	2	2	
5	O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi.	4	2	2	
6	O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida inson huquqlarining ta’minlash – korrupsiyaga qarshi kurashning omili.	4	2	2	
7	“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmonida belgilangan vazifalar.	4	2	2	
	<b>Jami: 24 soat</b>	<b>26</b>	<b>14</b>	<b>12</b>	



## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### **3.1. Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.**

#### **1 mavzu: Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashning mazmunmohiyati. (2 soat).**

Korrupsiya tushunchasi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchasi. Manfaatlarni to‘qnashuvi tushunchasining mazmuni va mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari. Korrupsiyaga jinoyatining tarkibiy tuzilishi va belgilari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimi va vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (2003 yil 31 oktabr, Nyu-York) qo‘shilishi. Korrupsiyaga qarshi kurashda 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga (2003 yil 10 sentabr, Istanbul) qo‘shilish ahamiyati.

#### **2 mavzu: O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi. (2 soat)**

O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari (27.05.2019). O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati. Byudjet, Bojxona kodekslari (yangi tahrirda), «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida»gi, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida»gi, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi, «Ichki ishlar organlari to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilinishi.

#### **3 mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash: rivojlangan mamlakatlar tajribasi. (2 soat)**

Korrupsiya darajasi past bo‘lgan rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida korrupsiya darajasi. Rivojlangan Sharq mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish. “Xalollik vaksinasi”ning mazmun mohiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va korrupsiyaga qarshi kurash Jinoiy jazolarning liberallashtirishining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro reyting agentliklari va ularning faoliyat mezonlari.

#### **4 mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish: fuqarolik jamiyati taraqqiyoti kafolati. (2 soat)**

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida nazarda tutilgan davlat boshqaruvini

takomillashtirish va sud-huquq islohotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga ta'siri masalalari. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillar va ularni oldini olish chora-tadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

### **5 mavzu: O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi. (2 soat).**

Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar. O'zbekiston Respublikasini BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi"ga qo'shilishi. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari. "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi (27.05.2019), "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (PF-6013, 29.06.2020), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari. "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi (PQ- 4761, 29.06.2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorining mazmun mohiyati. O'zbekiston milliy taraqqiётining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining tashkil etilishi.

### **6-mavzu. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida inson huquqlarining ta'minlash – korrupsiyaga qarshi kurashning omili. (2 soat)**

Inson huquqlari tushunchasi. Insonning qadr-qimmat, uning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari. Inson huquqlari jahon sivilizasiyasining umum e'tirof etilgan qadriyati sifatida. Inson huquqlarining rivojlanish dinamikasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va inson huquqlari. 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947sonli Farmonida nazarda tutilgan mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilishning asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-sonli farmoni. Insonning davlat bilan munosabati, ular o'rtasidagi huquqiy bog'liqlik.

### **7 mavzu: "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonida belgilangan vazifalar. (2 soat)**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining mazmun mohiyati, Farmonda belgilangan 

ustuvor yo'nalishlar va "Yo'l xaritasi".
--

 O'zbekiston Respublikasi

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya” . “Milliy strategiya doirasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi”. “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazrati.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg‘ulotlar zamonaviy ta‘lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o‘tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o‘quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

**1-amaliy mashg‘ulot:** Korrupsiya tushunchasi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchasi. Manfaatlarni to‘qnashuvi tushunchasining mazmuni va mohiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari. Korrupsiyaga jinoyatining tarkibiy tuzilishi va belgilari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimi va vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasining 2008 yili Birlashgan Millatlar

Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (2003 yil 31 oktabr, Nyu-York) qo‘shilishi. Korrupsiyaga qarshi kurashda 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga (2003 yil 10 sentabr, Istanbul) qo‘shilish ahamiyati. (2 soat)

**2-amaliy mashg‘ulot:** Korrupsiya darajasi past bo‘lgan rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida korrupsiya darajasi. Rivojlangan Sharq mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish. “Xalollik vaksinasi”ning mazmun mohiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va korrupsiyaga qarshi kurash Jinoiy jazolarning liberallashtirishining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro reyting agentliklari va ularning faoliyat me‘zonlari. (2 soat)

**3-amaliy mashg‘ulot:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni. O‘zbekiston taraqqiётining yangi bosqichida 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida nazarda tutilgan davlat boshqaruvini takomillashtirish va sud-huquq islohotlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga ta’siri masalalari. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun

javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar va ularni oldini olish chora-tadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi. (2 soat)

**4-amaliy mashg‘ulot:** Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi. Korrupsiyaga qarshi kurash borasida xalqaro huquqiy hujjatlar. O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi (27.05.2019), “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PF-6013, 29.06.2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari. “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi (PQ- 4761, 29.06.2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorining mazmun mohiyati. O‘zbekiston milliy taraqqiётining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining tashkil etilishi. (2 soat)

**5-amaliy mashg‘ulot:** Inson huquqlari tushunchasi. Insonning qadrgimmati, uning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari. Inson huquqlari jahon sivilizasiyasining umum e‘tirof etilgan qadriyati sifatida. Inson huquqlarining rivojlanish dinamikasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va inson huquqlari. 2017 yil 7 fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947sonli Farmonida nazarda tutilgan mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash hamda himoya qilishning asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson xuquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-sonli farmoni. Insonning davlat bilan munosabati, ular o‘rtasidagi huquqiy bog‘liqlik. (2 soat)

**6-amaliy mashg‘ulot:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun mohiyati, Farmonda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va “Yo‘l xaritasi”. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilishi. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya” . “Milliy strategiya

doirasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021–2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi". "Korrupsiyasiz soha" loyihasini amalga oshirish. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazrati. (4 soat) **O'QITISH SHAKLLARI**

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

### “Keys-stadi” metodi

“**Keys-stadi**”— inglizcha so'z bo'lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>

<p><b>3-bosqich:</b> Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<p><b>4-bosqich:</b> Keys yechimini</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> </ul>
<p>yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

### **“Assisment” metodi**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assisment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### Test

**Yangilik — by:**

- A) Xabar
- B) Ma'lumot
- C) Dalil
- D) Ob-havo ma'lumoti



### Qiyosiy tahlil

Ekologiya va landshaft, qurilish, sanoat ekologiyani qiyosiy tahlil qiling .



### Tushuncha tahlili

Shafarsozlik va ekologik arxitekturani izohlang...



### Amaliy ko'nikma

Ikkilamchi resurslardan foydalanishning ekologik asoslari ni aniqlang

## Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.





### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.

#### **1-MAVZY: Korrupsiya tushunchasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning mazmun - mohiyati.**

##### **REJA:**

- 1.1. Korrupsiya tushunchasi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tushunchasi.
- 1.2. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimi va vakolatlari.
- 1.3. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari.

**Tayanch iboralar:** korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, jinoyatchilik, korrupsiya va jarayon, korrupsiyaga qarshi kurash, konvensiya, mansabdor shaxslar axloqi.

#### **1.1. Korrupsiya tushunchasining mohiyati va uning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri**

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo‘lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Korrupsiya bu — jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to‘sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Har qanday murakkab ijtimoiy hodisa singari, korrupsiya tushunchasining ham umume’tirof etilgan yagona ta’rifi mavjud emas. Uning eng ko‘p tan olingan ta’rifi quyidagicha: (lot. corruptio — aynish, poraga sotilish) — mansabdor shaxsning o‘z mansabi bo‘yicha berilgan xuquqlarni shaxsiy boyish maqsadlarida bevosita suiiste’mol qilishidan iborat amaliyot. Mansabdor shaxslarni sotib olish, ularning poraga sotilishi ham korrupsiya deyiladi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> А. Ақромов, Б. Ш. Алимов, М. Н. Аминов ва бошқ. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» — Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2008.

Transparency International, Jahon Banki va boshqa tashkilotlar korrupsiya deganda ishonib topshirilgan hukmronlik qilishni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishni tushunadilar.<sup>2</sup> Shuningdek, aniqlik kiritadigan (hukumat ishonib topshirilgan resurslarni o'z ichiga olishi, u davlat va xususiy sektorga daxldor bo'lishi va h.k.)<sup>3</sup> yoki yanada qattiqroq yuridik ifodalardan foydalanadigan boshqa ta'riflar ham mavjud.

2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. Uning asosiy maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasida asosiy tushunchalar berilgan bo'lib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to'qnashuviga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir<sup>4</sup>.

Rossiyada chop etilgan Yuridik ensiklopediyada «korrupsiya» atamasi «mansabdor shaxslarning o'zlariga berilgan huquq va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boyish maqsadida foydalanishlaridan iborat bo'lgan siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat»<sup>5</sup> sifatida ta'riflangan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashga oid ma'lumotnomasida: «Korrupsiya — shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish»<sup>6</sup> ekanligi ko'rsatilgan.

Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag'ishlangan hisobotida ham korrupsiyaga shu kabi ta'rif berilgan: «Korrupsiya — shaxsiy manfaat uchun davlat hokimiyatini suiiste'mol qilish»<sup>7</sup>.

Korrupsiyani bunday tushunish rossiyalik olimlar tomonidan yaratilgan kriminologiya fanida ham mavjud. Masalan, A. I. Dolgova korrupsiyani «davlat xodimlari yoki boshqa xizmatchilarning sotilishi va shu asosda ularning rasmiy xizmat vakolatlari, ular bilan bog'liq obro'si va imkoniyatlaridan shaxsiy yoxud tor guruhiy, korporativ manfaatlarini yo'lida foydalanishlarida ko'rinadigan ijtimoiy hodisa»<sup>8</sup> sifatida ta'riflagan.

---

<sup>2</sup> The Anti-Corruption Plain Language Guide

<sup>3</sup> Chinhamo O., Shumba G. Institutional working definition of corruption // ACT Southern Africa Working Paper.2007. No. 1

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419сонли Қонуни. (<https://lex.uz/docs/3088008>)

<sup>5</sup> Юридическая энциклопедия. 2-е изд., перераб. — М., 2003.

<sup>6</sup> Уголовно-процессуальный кодекс Республики Казахстан. – Алматы 2007.

<sup>7</sup> Отчет Всемирного банка о мировом развитии / Под общ- ред. Д. Тушунуова. — М., 1997.

<sup>8</sup> Криминология / Под ред. А.И. Долговой. - М., 1997.

N. F. Kuznesova korrupsiyani «davlat apparati va nodavlat tuzilmalarining xizmatchilarini sotib olishda ifodalanadigan ijtimoiy xavfli hodisa»<sup>9</sup> deb ta'riflagan. Biroq, korrupsiyani faqat sotilish, poraxo'rlikdan iborat bo'lmagan ijtimoiy hodisa sifatida kengroq tushunish to'g'riroq bo'ladi.

«Korrupsiya» tushunchasini AQSH olimlari chuqurroq va har tomonlama o'rganganlar. Amerikalik tadqiqotchilar ushbu hodisani siyosiy arboblardan, davlat apparatining xodimlari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhviy manfaatlar yo'lida boyish hamda o'z ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida o'zlarining rasmiy majburiyatlari va davlat funksiyalarini bajarishdan bo'yin tovlashlari deb ta'riflaydilar<sup>10</sup>.

J. Bellentayning yuridik ensiklopedik lug'atida «korrupsiyalashgan» so'zi «shaxsiy foyda olish maqsadida davlat organlarining vazifalarini buzuvchi hamda odil sudlovning amalga oshirish jarayoniga to'sqinlik qiluvchi» deb ta'riflangan. Yana bir obro'li nashr bo'lgan G. Blekning yuridik lug'atida korrupsiya quyidagicha ta'riflangan:

- «mansabdor shaxsning rasmiy vazifalari va boshqa shaxslarning xuquqlari bilan sig'ishmaydigan qandaydir ustunlik berish maqsadida sodir etiladigan qilmish»;

- «o'z mavqei yoki maqomidan noqonuniy ravishda o'zi yoki boshqa shaxs uchun boshqa shaxslarning xuquq va vazifalariga xilof maqsadlarda qandaydir ustunlikka ega bo'lish uchun foydalanadigan mansabdor shaxsning qilmishi».

M. Jonston va J. S. Nayem singari mashhur amerikalik tadqiqotchilar korrupsiya muammosini quyidagicha ta'riflaganlar: «...mansabdor shaxsga mavjud qoidalarda keltirilganidan og'uvchi hamda o'zi, o'z oilasi yoki o'zi bilan bog'liq tor doiradagi shaxslar uchun moddiy yoki mavqeiga oid imtiyozlar olish istagi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, mansab bilan bog'liq vazifalarning bajarilishiga shaxsiy motivlar bo'yicha aralashishning cheklanishini buzuvchi xatti-harakat»<sup>11</sup>.

Davlat xizmatchisi ham davlat funksiyalari ijrosining zanjiridagi halqa bo'lib, o'z mavqeidan qoniqmagan taqdirda davlat faoliyati shakllanadigan butun zanjirga zarar yetkazishi, ya'ni qonunga xilof ish qilishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun davlat amaldorini zimmasidagi vazifalarni vijdonan bajarishga undovchi sharoitlar yaratish kerak, aksincha emas<sup>12</sup>.

Kobi lov. SH. R ham o'zining izlanishlarida korrupsiyaning asosiy sabablaridan biri «...iqtisodiyotda bozor munosabatlarning nomukammalligi, qonunchilikdagi

---

<sup>9</sup> Криминология / Под ред. Н. Ф. Кузнецовой, Г. М. Миньковского. - М., 1994.

<sup>10</sup> Михайлов. А.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы) // Воп- росы истории. — 1994. — №5

<sup>11</sup> Джонстон М. Поиск определений качества политической жизни и проблема коррупции // Международное жюри социальних наук. — Париж, 1997. — №16 .

<sup>12</sup> Исмагулов Д.К. Причины и условия коррупционных правонарушений в государственных органах. // Материалы научной конференции молодых ученых Казахстана. Проблемы и перспективы развития Казахстана как правового и демократического государства: взгляд и суждения молодежи. — Алматы, 2007.

muammolar, fuqarolarning axloqiy pozitsiyalarini ifodalashdagi kamchiliklar»<sup>13</sup> ekanligini ko'rsatadi.

Filippining sobiq prezidenti F. Markos o'zi tashkil qilgan mamlakat milliy boyligini o'marishni legallashtirish uchun konstitusiyaning ayrim moddalariga o'zgartish kiritgan. Shu bois, M. Jonston to'g'ri ta'kidlaganidek, «korrupsiya qonunda talqin etilgan ta'rifiga mos kelmasligi, aksincha ba'zi rasman noqonuniy harakatlar muayyan axloqiy jihatlarga ega bo'lishi mumkin».

Korrupsiyaga bunday qarashni aksariyat MDH mamlakatlari kriminalistlari va kriminologlari qo'llab-quvvatlaydilar. Korrupsiyaga oid yana bir qancha o'ziga xos ta'riflarni keltiramiz. «Korrupsiya — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari xizmat mavqeidan shaxsiy boylik orttirish uchun g'arazli maqsadda foydalanishdan iborat ijtimoiy hodisa»<sup>14</sup>.

G.A Sattarov, M. I. Levin va M. L. Sirik korrupsiyani «g'arazli maqsadlarda xizmat mavqeini suiiste'mol qilish»<sup>15</sup> sifatida ta'riflaydilar.

Korrupsiyaga yorqin ta'rifni advokat olim A. I. Kirpichnikov beradi: «Korrupsiya — hokimiyatning chirishi. Zang metallni yemirganidek, korrupsiya ham davlat apparatini buzadi va jamiyatning axloqiy negizlarini nuratadi. Korrupsiya darajasi — jamiyatning o'ziga xos termometri, uning axloqiy holati va davlat apparatining vazifalarini o'z manfaatlari emas, balki jamiyat manfaatlari yo'lida hal qilish qobiliyatining ko'rsatkichi. Metall uchun zanglash chidamlilik darajasining pasayganligini bildirganidek, jamiyat uchun korrupsiyaga berilish qarshilik ko'rsatish qobiliyatining pasayganligini bildiradi»<sup>20</sup>.

Korrupsiyaga ta'riflardan yana birini B. V. Voljenkin bergan: «Korrupsiya — hokimiyatning chirishidan iborat ijtimoiy hodisa bo'lib, bunda davlat (munisipal) xizmatchilari va davlat funksiyalarimi bajarish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar o'z xizmat mavqelari, egallab turgan lavozimining maqomi va obro'sidan g'arazli maqsadlarda shaxsiy boyish yoki ruhiy manfaatlar yo'lida foydalanadilar»<sup>16</sup>.

Jozef Senturiya fikricha “korrupsiya shaxsiy naf ko'rish maqsadida ommaviy hokimiyat vakolatlarini suiiste'mol qilishi”dir<sup>17</sup>. Tomas Gobbs esa, “korrupsiya shunday bir ildizki, barcha zamonlarda undan hamma qonunlarga nisbatan nafrat kelib chiqadi”deb ta'kidlagan<sup>18</sup>.

Shuni qayd etib o'tish lozimki, dastavval korrupsiya ko'p jihatdan axloqiy muammo bo'lgan. Jan-Klod Vake o'zining “Korrupsiya. 1600-1770 yillarda

---

<sup>13</sup> Кобиллов, Ш.Р. Миллий хавфсизликнинг иктисодий муаммолари: Монография. — Т., 2006; Коррупция: келиб чиқиш сабаблари ва унга қарши курашнинг жаҳон тажрибаси. — Т., 2011

<sup>14</sup> Кабанов, П.А. Коррупция и взяточничество в России: исторические, криминологические и уголовно-правовые аспекты — Нижнекамск. Гузель, 1995.

<sup>15</sup> Саттаров, Г.А. Россия и коррупция: кто кого? // Российская газета. 19.02.1998.

<sup>16</sup> Волженкин Б.В. Коррупция как социальное явление // Чистые руки. - 1999. - №4.

<sup>17</sup> Senturia, J. (1968). 'Corruption political'//International Encyclopedia of the Social Science'. <sup>18</sup> Гоббс, Т. (1965). 'Сочинения в двух томах'. Т-2. —М. с.192

Florensiyada axloq va hokimiyat” kitobida ko‘rib chiqilayotgan davrda korrupsiya haqida bahs davlat haqida emas, balki inson tabiati haqidagi bahs hisoblanganini ta’kidlaydi<sup>18</sup>.

Sosiologlar, iqtisodchilar, huquqshunoslar va oddiy fuqarolar bu tushunchani har xil talqin qiladilar. Masalan, sosiologlar fikriga ko‘ra, korrupsiya – bu “hokimiyat vakillari o‘zlarining qonunga xilof shaxsiy manfaatlari yo‘lida kutilayotgan xulq-atvor standartlaridan voz kechishidir” deb hisoblasa<sup>20</sup>, iqtisodchilar esa, korrupsiya – bu “biron-bir jiddiy shaxsiy naf ko‘rish maqsadida bajariladigan g‘ayriqonuniy, qoida tariqasida, qoralanadigan harakatdir” deb ta’kidlaydi<sup>19</sup>.

Huquqshunoslar korrupsiya tushunchasiga yanada aniq ta’rif berishga harakat qiladilar: “Keng ma’noda korrupsiya – bu ommaviy boshqaruv apparatini o‘z komiga tortgan, hokimiyatning buzilishida, davlat va munisipal xizmat xodimlari, davlat funksiyalarini bajarishga vakolatli boshqa shaxslar o‘z xizmat mavqei, maqomi va egallagan lavozimining obro‘sidan ta’magirlik maqsadida, shaxsiy boylik orttirish uchun yoki guruh manfaatlarida qasddan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy illatdir”<sup>20</sup>. Fanda korrupsiya – bu ijtimoiy-huquqiy hodisa bo‘lib, odatda davlat amaldorlari, mansabdor shaxslar, shuningdek umuman jamoat va siyosiy arboblarning pora evaziga og‘diriluvchanligi va sotiluvchanligi sifatida tushuniladi; Bu esa shaxsiy maqsadlarda naf ko‘rish uchun hokimiyat vakolatlarini suiiste’mol qilishdir.

Shu bois, 1979 yil 17 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq-atvor kodeksida korrupsiya tushunchasining mazmuniga mansabdor shaxs haq, sovg‘alar olishigina emas, balki uning bunday sovg‘alarni olish bilan bog‘liq amalga oshiriladigan xizmatga doir hatti-harakatlari ham kiritilgan. Agar korrupsiya tushunchasining mazkur ta’rifidan kelib chiqadigan bo‘lsak, u nafaqat, pora berish va olish, balki xizmat bo‘yicha suiiste’mollar, mansab vakolatlari doirasidan chetga chiqishni ham qamrab oladi. Muhimi shundaki, mazkur ta’rif korrupsiya tarkibiga mansabdor shaxs olingan yoki va’da qilingan sovg‘alar bilan bog‘liq holda sodir etgan xizmatga doir qonuniy hatti-harakatlarni ham o‘z ichiga oladi.

1990 yilda korrupsiya muammolari bo‘yicha Gavanada o‘tkazilgan Xalqaro mintaqalararo seminarda korrupsiyaga shaxsiy manfaat yoki guruh manfaatlari yo‘lida o‘z xizmat mavqei suiiste’mol qilish, shuningdek, davlat xizmati xodimi o‘zi egallagan lavozim va xizmat mavqei munosabati bilan qonunga xilof ravishda manfaat olishi sifatida ta’riflandi.

---

<sup>18</sup> Ваке, Ж.К.(1999). ‘Коррупция. Мораль и власть во Флоренции в 1600-1770 годах’.-Москва. -554 с. <sup>20</sup> Морозова,Е. А. Пфетцер,С. А., Сухачева,А. В. (2017). Социологические методы изучения коррупции и борьбы с ней в системе образования. Москва, с.126-136.

<sup>19</sup> Мешканцов,В.Н.(2016). Экономикакоррупции.[https://superinf.ru/view\\_helpstud.php?id=50](https://superinf.ru/view_helpstud.php?id=50)

<sup>20</sup> Клепецкий,И.А., Резанов,В.И. (2001). Получение взятки в уголовном праве. Комментарий законодательства. Москва, с.67.

Ammo, korrupsion faoliyat turlarining to‘liq ro‘yxatini keltirish mumkin emas. Ma‘lumki, turli mamlakatlarda “boquvda bo‘lish” rasmiy tarzda mavjud bo‘lgan va keyinchalik, poraxo‘rlikka aylangan. “Boquvda bo‘lish” V. Kleveren iqtisodiy nuqtai nazardan “Korrupsion faoliyatga biznes sifatida bergan bahoning ilk ko‘rinishlaridan biri hisoblangan: korrupsioner o‘z lavozimiga biznes sifatida qaraydi va daromadni mumkin qadar ko‘paytirishga harakat qiladi (Kleveren, V.). J.Koleman tijorat sohasidagi poraxo‘rlikni va siyosiy korrupsiyani farqlaydi<sup>21</sup>. Korrupsiyani bunday tushunish korrupsion huquqbuzarliklar qatoriga o‘zi egallagan lavozim munosabati bilan pora olish natijasidagina emas, balki o‘z xizmat mavqeidan foydalangan holda tadbirkorlik faoliyatida qonunga xilof ravishda ishtirok etish, xizmat mavqeidan foydalanib xufena iqtisodiyotni rivojlantirish va o‘z xizmat vakolatlarini suiiste‘mol qilish evaziga foyda ko‘rishni ko‘zda tutadi. Darhaqiqat, korrupsiya jinoyatchiligini bugungi kunda ishonch bilan nafaqat bizning davlatimizda, balki, jahon ma‘rifatli davlatlarining aksariyatida mavjud bo‘lgan jinoyatchilikning an‘anaviy va ancha keng tarqalgan turi deb nomlash mumkin. “Hokimiyat organlarining jinoyatga aralashib qolishi rivojlanayotgan jamiyat uchun eng jiddiy xavf – xatarlardan biridir”<sup>24</sup>.

Kadimgi yunon faylasuflaridan Platon korrupsiyani siyosiy kategoriyalar katoriga kiritgan bo‘lsa, Aristotel shunday degan: “Har kandy davlat tizimida - konunlar va boshka farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerak-ki, unda mansabdor shaxslarni nokonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim” degan. Bu borada Sharq Arastusi Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to‘g‘anoq bo‘ladigan muammolardan biri korrupsiyadir, deb qayd etgan.

Fransuz mutafakkiri Sharl Monteske esa korrupsiyani yaxshi siyosiy tartib yoki tizimni izdan chikaruvchi “disfunktsional jarayon” sifatida tavsiflab, bu borada “Asrlar tajribasidan ma‘lumki, har kandy hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiiste‘mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma‘lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi” degan fikrlarni bildirgan. G‘arbiy Yevropa davlatlarining keyingi tarixida ham korrupsiyaning turli ko‘rinishlari va korrupsion munosabatlarning avj olishi nafakat tarixiy manbalarda balki, o‘sha davrning ilg‘or yozuvchi faylasuflarining asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, Shekspirning “Venesiyalik savdogar”, “Qonga Qon, jonga jon”, Dantening “Do‘zax”, “Tozalovchi” kabi asarlarida ham yoritilgan. Dante korrupsionerlarni do‘zaxni eng qorongi va eng chuqur joyiga tashlash kerak degan fikrni bildirgan. Italyan faylasufi Nikkolo Makiavelli esa uni davlatning fuqarolar ma‘naviyatiga putur yetkazuvchi umumiy kasalligi alomati deb xisoblagan va yo‘talga kiyoslab shunday degan edi, “Korrupsiyani ham yutalga o‘xshab oldin aniqlash qiyin, ammo

---

<sup>21</sup> Коулман, Дж (2005). ‘Комитет 300. Тайны мирового правительства’. -Москва, «Витяз», с.320 <sup>24</sup>  
Яхшиликков,Ж.(2017). ‘Миллий ғоя - таракқиёт стратегияси’. Тошкент: Фан. б.322.

davolash oson, lekin bu kasalni o'tkazib yuborsangiz uni aniqlash oson, ammo davolash qiyin".<sup>22</sup>

Korrupsiya albatta bugun paydo bulgan illat emas, u qadimdan buyon mavjud bo'lib kelmokda. Uning o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziydashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Ushbu davlatda korrupsiyaga qarshi kurashgan hukmdor sifatida xotira qolgan shaxs Uruinimgina - eramizdan avvalgi XXIV asrning ikkinchi yarmida Lagash shahar-davlatining shumerlar podshosi hisoblangan. Korrupsiya uchun boshqalarga namuna bo'ladigan va ko'pincha shafqatsiz jazolar qo'llanishiga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib kelmagan. Eng yaxshi holatda xavfli jinoyatlarning oldini olishga erishilgan, lekin mayda kamomad va poraxo'rlik darajasida korrupsiya ommaviy xarakterga ega bo'lgan. Korrupsiya muhokama qilingan dastlabki asar - «Artxa-shastra» - eramizdan avvalgi IV asrda Bxarat (Hindiston) vazirlaridan biri tomonidan Kautilya taxallusi ostida chop etilgan. Unda muallif «podshohning mulki, hatto kichik miqdorda bo'lsa ham, bu mulkni idora qiladiganlar tomonidan o'zlashtirib olinishi mumkin emas» degan xulosa chiqargan.

Xuddi shu kabi muammolarga Qadimgi Misr fir'avnlari ham duch kelgan bo'lib, bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy ayonlarga nisbatan ham o'zboshimchlik va zo'ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o'ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi. Bizgacha yetib kelgan Itaxotel degan shaxs o'z pandnasihatlarida quyidagicha tavsiya beradi: «Boshliq oldida belingni bukib ta'zim qil, shunda sening uyingda tartib bo'ladi, sening maoshing joyida bo'ladi, kim boshliqqa qarshilik ko'rsatadigan bo'lsa, uning hayoti oson kechmaydi, lekin u iltifot ko'rsatganda esa yashash ham oson bo'ladi».<sup>23</sup>

Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" yoki "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang" (Baqara surasi, 188) deyilgan.

---

<sup>22</sup> Макиавелли Н. Избранное. — М., 1989. — С. 78-79.

<sup>23</sup> Хрестоматия государства и права зарубежных стран. Древность и Средние века / сост. В. А. Томсинов. — М.: Зерцало, 1999; 2004. — С. 56.

Lekin shunga qaramay, poraxo‘rlik Usmoniylar xalifaligida ham mavjud bo‘lgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o‘zi nazorat qilardi, lekin vaqt o‘tishi bilan bu ishni o‘ziga yaqin odam — xalifaning turli ishlar bo‘yicha shaxsiy yordamchisi bo‘lgan vazirga topshirib qo‘ydi. Vaqt o‘tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirdi. X asrning o‘rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllanib bo‘lgandi.

Bundan, masalan, xalifa Muqtadirning vaziri bo‘lgan Ubaydulloh Hoqoniy (926 yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik sezayotgan davlat soliqlar to‘plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois bu turli suiiste‘molliklarni yuzaga keltirardi. Shu tariqa poraxo‘rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Bu holat Usmoniylar saltanatida ham istisno emasdi. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to‘plashda harbiy xizmatchilar qing‘irliklar sodir etardi. Bu suiiste‘mol holatlarini hattoki Usmoniylar saltanati shayxulislomlari chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir “uzatish” evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo‘ydi, o‘zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib olishdi. Davlat esa, o‘z navbatida, vazirlar timsolida ko‘ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to‘qnashuvga borishdan hadiksirardi.

Usmoniylar saltanatida poraxo‘rlik oqibati shu bo‘ldiki, qo‘shinlar harbiy tayyorgarligini yo‘qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag‘lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazdi.

Qadimgi Rim qonunlarida «corruptere» atamasi «sudda ko‘rsatmalarni pulga sotib olish» va «sudyani pora berib sotib olish» ma‘nosida foydalana boshlagan: «Nahotki sen sudda so‘zlashda ishlarni tekshirish uchun tayinlangan va bu ish bo‘yicha pora olgan sudya yoki vositachiini o‘lim jazosi bilan jazolaydigan qonunni shafqatsiz deb hisoblaysiz?»<sup>24</sup>

XIX va XX asrlar bo‘lag‘asi rivojlangan mamlakatlarda korrupsiya rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi. Bir tomondan, davlat tomonidan tartibga solishning va mos ravishda, amaldor hukmronligining navbatdagi kuchayishi boshlandi. Boshqa tomondan - raqobat kurashida «davlatni pora berib sotib olish» - davlatning alohida mayda xizmatchilarini vaqti-vaqti bilan pora berib sotib olish emas, balki kapital manfaatlarini himoya qilish uchun yuqori mansabdagi amaldorlar va siyosatchilar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysundirishga murojaat qiladigan yirik xususiy biznes vujudga kela boshladi. Siyosiy partiyalar ahamiyatining o‘shishi bilan rivojlangan mamlakatlarda (ayniqsa, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida Ikkinchi jahon urushidan keyin) partiya korrupsiyasi rivojlanib, bunda o‘z manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish uchun yirik firmalar va transmilliy

---

<sup>24</sup> Таблица IX. 3. Авл. Гелий / Законм XII таблиц. Хрестоматия по истории государства и права зарубежных стран / под ред. В. А. Томсинова. — М.: Зерцало, 1999. С. 120.



korporasiyalar nafaqat shaxsan siyosatchilarga, balki partiya kassasiga ham pul to'lay boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmida korrupsiya yanada dolzarb xalqaro muammoga aylana boshladi. Korporasiyalar tomonidan chet eldagi yuqori mansabdor shaxslarni pora berib sotib olish ommaviy xarakterga ega bo'ldi. Globallashuv shunga olib keldiki, bir mamlakatdagi korrupsiya ko'plab mamlakatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Bunda korrupsiya darajasi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar uchinchi dunyo bilan chegaralanib qolmaydi: 1990 yillarda sobiq socialistik mamlakatlardagi erkinlashtirish o'ta ketgan mansab suiiste'mollari bilan birgalikda kuzatildi. 1995 yil 31 dekabr sonida «Financial Times» gazetasi 1995 yilni «korrupsiya yili» deb atadi. Korrupsiya haqida bilimlarni targ'ib qilish uchun BMT Korrupsiyaga qarshi kurash xalqaro kuni (9 dekabr) ta'sis qildi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida nimalarni bilasiz?
3. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tizimi va vakolatlari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasi.
5. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari.
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining mohiyati nimadan iborat?
7. Korrupsiyaning shakllarini nimalardan iborat?
8. Yuqori, o'rta va mayda bo'g'inli korrupsiya deganda nimani tushunasiz?
9. Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlardan qaysilarni bilasiz?
10. Ijtimoiy hayotda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining tutgan o'rni.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G'afur G'ulom. 2017.
2. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>

## 2-MAVBU: O‘zbekistonda korrupsiya qarshi kurashga doir huquqiy asoslarning yaratilishi va takomillashtirilishi

### **REJA:**

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.
- 2.2. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari..
- 2.3. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.

**Tayanch iboralar:** korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi, jinoyatchilik, korrupsiya va jarayon, korrupsiyaga qarshi kurash, konvensiya, mansabdor shaxslar axloqi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib korrupsiya xalqaro muammoga aylandi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari natijasida bir mamlakatdagi korrupsiya boshqa mamlakatlar rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi.

Korrupsiyaning o‘ta avj olishiga quyidagi xavfli ijtimoiy hodisalar ham sabab bo‘lmoqda. O‘tgan asrning oxirlari va XXI asrga kelib moddiyotga berilish, nafsni qondirish, buyumparastlik kabi illatlarning singdirilishi iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirdi. «Barcha narsa sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan tovarga aylantiriladi» degan tushuncha insonlar ruhiyatiga singdirila boshlandi. Tovar (buyum)ga sig‘inish kuchaydi. Globallashuvning xususiyati madaniyatlarning «duragaylashuvi»ga olib keldi. Fikr va buyumlarning, inson tanasi va ruhiyatining, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy xususiyati bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlarga asoslanib poraxo‘rlik munosabatlarini uch subektli deb aytish mumkin. Bular: pora oluvchilar, pora beruvchilar va ular o‘rtasidagi vositachilar. Pora oluvchilar davlat amaldorlari bo‘lsa, uni beruvchilar amaldorlar xizmatiga muhtojlardir. Vositachilar ayrim shaxslar va yashirin tashkilotlardan iboratdir.

**Yuqoridagilardan kelib chiqib Korrupsiyaping miqyosi va qamrovini belgilovchi omillarni quyidagi guruhlarga ajratib ko‘rsatish mumkin:**

**Antropologik omillar:** insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko‘prok foyda olishga intilishi va h.k.

**Iqtisodiy omillar:** tadbirkorlik faoliyagining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari («konunga bo‘ysunish bahosi»), bozor xo‘jaligi doirasidagi rakobat,

iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi, inflyasiya, almashuv kurslarining keskin o'zgarib turishi, soliqqa tortish tizimi va boshqalar.

**Ijtimoiy omillar:** jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, «xavf guruhlari»ning mavjudligi, mexnat qonunchiligining buzilishi, muxojir ishchilar, ayollar va o'smirlar mexnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h.k.

**Huquqiy omillar:** Tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo'jaligining o'zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o'rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo'jaligining tartibga solinmasligi va h.k.

**Axloqiy omillar:** qonunchilik hamda tadbirkorlikning axloqiy asoslari o'rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; milliy an'analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarning ta'siri va boshqalar.

**Siyosiy omillar:** hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishning kuchga asoslangan usullari o'rtasidagi nisbat. Iqtisodiyotni rivojlantirishning obektiv ehtiyojlari va davlat siyosati o'rtasidagi ziddiyat va h.k.

Xo'sh, madomiki qadimgi ildizlarga ega bo'lgan korrupsiya uchinchi ming yillikda yanada rivojlanayotgan ekan uning qanday sabablari bor? Quyida biz korrupsiyaning sabablari va millatning ruhiga salbiy ta'siri haqida fikr yuritamiz.

Hozirgi davrda korrupsiya sabablarining ko'p sonliligini qayd etish odat tusini olgan. Ulardan eng ko'p e'tirof qilingan *iqtisodiy, institusional va ijtimoiy-madaniy omillar* farqlanadi.

**Korrupsiyaning iqtisodiy sabablari** – eng avvalo, davlat xizmati xodimlari oladigan maosh darajasining pastligi, shuningdek ularga fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun imkoniyat yaratadigan katta vakolatlar berilganida namoyon bo'ladi. Amaldorlarga taqchil resurslarni tasarruf etish uchun keng vakolatlar berilgan joyda korrupsiya chuqur ildiz otadi. Bu rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi, ammo u rivojlangan mamlakatlarda ham uchraydi. Masalan, AQShda muhtoj oilalarga imtiyozli turar joyni taqdim etish dasturini amalga oshirish chog'ida korrupsiya hollari avj oladi. "Jinoiy tuzilmalarning davlat organlari amaldorlari bilan chatishib ketishi, ularning turli hokimiyat tarmoqlariga kirib olishi jamoatchilik nazdida fuqarolarning himoyasizligi hissini kuchaytiradi. Davlatning o'zi obro'sizlanadi. Mamlakat ichkarisida ham tashqarisida ham unga ishonchsizlik ortib boradi"<sup>25</sup>. Biroq, korrupsiyaning kuchayishiga iqtisodiy sabab asosiy sabab bo'la oladimi? Ba'zi iqtisodiy rivojlangan mamlakat rahbarlarining, masalan, Koreya davlati Prezidenti, Braziliya Prezidenti, Pokistonning bosh vaziri, Rossiya Federasiyasi sobiq mudofaa vazirining, ba'zi gubernatorlarning korrupsiya bo'yicha lavozimidan

---

<sup>25</sup> Яхшиликков,Ж.(2017). 'Миллий ғоя - тараққиёт стратегияси'. Тошкент: Фан. б.322.

chetlashtirilganligi iqtisodiy sabab asosiy emasligidan dalolatdir. Demak, korrupsiya rivoji insonning ijtimoiy-madaniy tubanlashuvi omili bilan bog‘liq.

***Korrupsiyaning institusional sabablari*** sifatida qonunchilik tizimining ochiq va oshkora emasligi, davlatning kadrlar bilan ishlash siyosatidagi favoritizmning kuchli darajasi davlat idoralari faoliyatida tizimli boshqaruvning buzilishi, cheksiz hisobotlar tizimi kabilar e’tirof etiladi.

***Korrupsiyaning ijtimoiy-madaniy sabablari*** - fuqarolarning huquqiy savodxonligi va madaniyatining pastligi, davlat va boshqaruvi qonunlaridan bexabarligi yoki ularga befarqligi, hokimiyat boshqaruvidagilarning jamiyatdagi umumiy ma’naviy tubanlashuv jarayonlariga nisbatan kuchli nazoratning yo‘qligi, ikki xil talqin qilish mumkin bo‘lgan qonunlarning mavjudligi, aholining qonunlarni bilmasligi yoki tushunmasligi, mamlakatdagi siyosiy vaziyatning beqarorligi, byurokratiyaning kasbiy nokompetentligi (kadrlar korrupsiyasi, sohadan mutlaqo xabarsiz odamlarning rahbar lavozimlariga tayinlanishi), ijro etuvchi hokimiyat tizimida yagonalikning mavjud emasligi, boshqaruv elitesining xalqdan ajralganligi, iqtisodiy beqarorlik, inflyasiya, aholining etnik jihatdan har xilligi, mamlakatda shakllangan madaniyat va ijtimoiy mentalitet ta’siri kiritiladi. Korrupsiyaning bu sababining ildizlari shu qadar chuqurki, hatto u odamlarning ijtimoiy hayotining tarkibiy qismiga, turmushdagi odatiy holga aylangan. (Masalan, shifokor ko‘rigi, maktab o‘qituvchisiga farzandimiz muammosi bilan murojaat etish, bolani yaxshi sinfga qo‘yish, yaxshi maktabda o‘qitish kabilar).

Korrupsiyaning sabablarini bilish uning shakllarini aniqlash imkonini beradi. Fikrimizcha, Korrupsiyaning *davlat boshqaruvi sohasidagi*; - *parlamentdagi*; - *jamoat tashkilotlari, korxonalaridagi*; - *iqtisodiy*; - *g‘oyaviy*; - *siyosiy*; - *kadrlar*; - *fan va ta’lim* tizimidagi korrupsiya kabi shakllari favoritizm, nepotizm (urug‘-aymoqchilik), proteksionizm, lobbizm, qonunga xilof ravishda taqsimlash jamoat resurslarini va ularni shaxsiy maqsadlarda o‘zlashtirish, noqonuniy xususiyashtirish, siyosiy tuzilmalar (partiyalar va sh.k.)ni qonunga xilof ravishda qo‘llab-quvvatlash va moliyalashtirish, ta’magirlik, imtiyozli kreditlarni ajratish, imtiyozlarga ega bo‘lish uchun shaxsiy aloqalardan foydalanish, o‘z qarindoshlari, do‘stlari, tanishlariga turli xizmatlar ko‘rsatish va hokazolarda namoyon bo‘ladi.<sup>2627</sup>

*Davlat boshqaruvi sohasidagi korrupsiya* davlat xizmati xodimining davlat resurslarini o‘z shaxsiy niyatlariga mos ravishda taqsimlashida namoyon bo‘ladi. Davlat xizmati xodimlarining lavozimiga qarab yuqori pog‘ona va quyi pog‘ona korrupsiyasini farqlash mumkin. Yuqori darajadagi korrupsiyada yuqori va o‘rta darajadagi amaldorlar va siyosatchilarning qonunlarga xilof ravishda mulkchilik shakllarini o‘zgartirishda, davlat buyurtmalarini qabul qilishda o‘z ifodasini topadi. Quyi darajadagi korrupsiya o‘rta va quyi darajadagi amaldorlar bilan fuqarolar

---

<sup>26</sup> Шермухамедова, Н.А. “Коррупциянинг жамият ижтимоий-маданий ҳаётида амал қилиши ва уларни бартараф этиш механизмлари”//Фалсафа ва ҳаёт халқаро журнал № 3(6) 2019. Doi Journal 10.26739/2181-

27

o‘rtasidagi doimiy, kundalik o‘zaro aloqa bilan bog‘liq (jarimalar, ro‘yxatga olish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsion bitimdan manfaatdor tomonlarning ikkalasi ham bir davlat tashkilotiga mansub bo‘ladi. Masalan, amaldor o‘z boshlig‘iga u pora beruvchining korrupsion harakatini “yopdi-yopdi” qilgani uchun pora berishi ham korrupsiya hisoblanadi. U, qoida tariqasida, yuqori pog‘ona va quyi pog‘ona korrupsiya o‘rtasida o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi<sup>28</sup>. Bu juda xavfli, chunki bunday vaziyatda korrupsiya tarqoq harakatlardan chuqur ildiz otgan uyushgan jinoyatchilik bosqichiga o‘tayotganidan dalolat beradi.

*Parlamentdagi korrupsiya* saylov paytida saylovchilarning ovozlari sotib olishi bilan bog‘liq siyosiy korrupsiyada namoyon bo‘ladi. Saylovchi Konstitusiyaga muvofiq “hokimiyat vakolatlari” deb nomlangan resursga ega, ya’ni deputatlarni xalq saylaydi. Bu vakolatlarni u o‘zi saylayotgan shaxslarga qaror qabul qilishning alohida turi – ovoz berish orqali o‘tkazadi. Saylovchi o‘z vakolatlarini o‘zining manfaatlarida kim hammadan yaxshi ifoda etishi mumkin deb hisoblasa, unga topshirish zarurligidan kelib chiqib qaror qabul qilishi lozim va bu umume’tirof etilgan qoidadir. Ovozlar sotib olingan holda saylovchi va nomzod o‘zaro kelishadi va buning natijasida saylovchi yuqorida zikr etilgan qoidani buzib, pul yoki boshqa ko‘chmas mulklarni oladi, nomzod esa, saylov qonunchiligini buzib, hokimiyat resursini qo‘lga kiritishga umid qiladi

*Ijtimoiy hayot, davlat va nodavlat jamoa tashkilotlaridagi korrupsiya* jamoat tashkiloti xodimining tashkilot manfaatlarini buzib qonunga xilof ravishda boylik orttirishga harakatida namoyon bo‘ladigan umumiy ma’naviy tanazzulning ifodasidir. Chunki keyingi yillarda, ayniqsa bolani yaxshi bog‘chaga va maktabga joylashtirish, yaxshi ishga joylashish va hatto kasalxonaga yotish yoki dispanserizasiya, yangi mashina sotib olish, imtiyozli uy olish, qo‘yinggi ijtimoiy hayotda qanday masala bo‘lishidan qat’iy nazar pora berish shunchalar kundalik hayotning tarkibiy qismiga aylanishi, ba’zi hollarda murojaat etayotgan tashkilot xodimining yoniga quruq qo‘l bilan borish noqulaylik vaziyatini shakllantirdi.

Korrupsiyaning barcha turlari bevosita **siyosiy, g‘oyaviy va kadrlar korrupsiyasini** shakllantiradi.

Tadqiqotimiz doirasida siyosiy korrupsiya hodisasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, adabiyotlarda siyosiy korrupsiyaga oid qarashlar o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab tez-tez uchraydi.

Ayrim olimlar siyosiy korrupsiyaning alohida turini ajratadilar. Masalan, prof. V. A. Shabalin siyosat va jinoyatchilik muammolariga oid xorijiy manbalarni tahlil qilib, ushbu hodisani quyidagicha ta’riflaydi: «...hukmron siyosiy elitaning davlat boyliklaridan o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida noqonuniy

---

<sup>28</sup> Шермухамедова, Н.А. (2018). ‘Коррупциянинг турлари ва шакллари’. Формирование антикоррупционной культуры в республике Казахстан и в странах центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития посвящается 20 летию факультета Юриспруденции МО ЮКГУ. Казахстана, Шимкент. –с.67.

foydalanishida namoyon bo‘ladigan deviant siyosiy xatti-harakat»<sup>29</sup>. Biz ushbu fikrga qo‘shilamiz. Siyosiy korrupsiya aniq qonunga xiloflikning

mavjud emasligi; ayrim shaxslar yoki guruhlar (partiyalar, boshqa barqaror hamjamiyatlar) hokimiyatni egallash, saqlab qolish, mustahkamlash va taqsimlashga qarab mo‘ljallanishi; ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun ham davlat, ham jamoat resurslaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. “Hozirgi davrda siyosiy korrupsiya siyosiy tushga ega qilmishlarda namoyon bo‘ladi va ularning bir qismi jinoyat-huquqiy tartibda jazoga loyiq, boshqa bir qismi esa – loyiq emas degan fikr ham mavjud”<sup>30</sup>.

Siyosiy korrupsiyaning asosiy va eng ko‘p qayd etiladigan, jinoiy jazoga tortiladigan shakllari pora berish (O‘zbekiston Respublikasining JK 210-m.) va uni olishdir (JK 212-m.).

Siyosiy korrupsiyaning keng tarqalgan ikkinchi ko‘rinishi siyosat subektlarini ularning saylanish huquqini amalga oshirayotgan chog‘ida sotib olishdir. Ushbu jinoyat uchun javobgarlik O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilgan. Mazkur hodisaning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

Siyosiy korrupsiyaning byurokratik va siyosiy, majburiy va kelishilgan, markazlashtirilgan va markazlashtirishdan chiqarilgan kabi turlari farqlanadi. Bizning fikrimizcha, siyosiy korrupsiya - partiyalar, guruhlar va ayrim shaxslarning hokimiyatni egallab olish yoki ushlab turish maqsadida, shuningdek siyosiy raqiblarga birgalikda qarshi siyosiy kurashi va maqsadiga erishishini tushunish lozim.<sup>31</sup> U guruhbozlikning shakllanishida, fuqaroning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklarining cheklanishida, davlat tuzumi va davlat hokimiyati asoslariga qarshi korrupsion qilmishlarda namoyon bo‘ladi.

Har qanday siyosiy korrupsiya g‘oyaviy korrupsiyaning mahsuli sifatida amal qiladi. G‘oyaviy korrupsiya muayyan maqsadlarda davlatlararo va shaxslararo nizolarni, davlat boshqaruvi darajasida hokimiyat qarorlarini qabul qilishni monopoliyalashtirishni ko‘zda tutadi. Har qanday davlat boshqaruvi boshqaruv vositalarini o‘z strategik va taktik maqsadlariga mos ravishda tanlashi lozim. G‘oyaviy korrupsiyada boshqaruv maqsadlarining o‘zi buzib ko‘rsatiladi. Ma’lumki, davlat o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun turli vositalardan foydalanishi mumkin (asosiy davlat va insoniy qadriyatlarga mutlaqo zid bo‘lgan vositalar bundan mustasno). Ammo, davlat boshqaruvi maqsadlari yaxlit va yagona bo‘lishi lozim. Davlat hokimiyati boshqaruv maqsadlarini buzib ko‘rsatgan, shaxsiy maqsadni qadriyat darajasiga ko‘targan va unga erishish uchun harakat qila

---

<sup>29</sup> *Шабалин. В.А. Политика и преступность // Государство и право. - 1994. - №4.*

<sup>30</sup> Косенко, О. (2014). ‘Противодействие коррупции: поиск эффективных решений’/О.Косенко//Экспертиза– № 8. [Электронный ресурс].

<sup>31</sup> Шермухамедова, Н.А. (2018). ‘Коррупциянинг турлари ва шакллари’. Формирование антикоррупционной культуры в республике Казахстан и в странах центральной Азии: состояние, тенденции и перспективы развития посвящается 20 летию факультета Юриспруденции МО ЮКГУ. Казахстана, Шимкент. –с.72.

boshlaganda g'oyaviy korrupsiya paydo bo'ladi. Natijada islohotlar muayyan umumdavlat maqsadlariga erishish uchun emas, balki "xo'jako'rsinga" amalga oshirila boshlaydi. (Masalan, 2012 yilda Jahon moliya banki raisi Dominik Stros Kan 2017 yilda Fransiyada o'tkaziladigan Prezident saylovida ishtirok etishi mumkin bo'lgan munosib nomzod bo'lgan. Uning Prezident saylovida ishtirok etishi va ko'p ovoz olishi prognozlashtirilgach, faoliyati atrofida turli mish-mishlar tarqatildi va 2017 yildagi Prezident saylovida umuman ishtirok etmasligiga erishildi. 2016 yilda Fransiyaning Prezidenti lavozimiga saylovlar kompaniyasida ishtirok etgan 12ta nomzodlardan biri Fransua Fiyon munosib nomzod bo'lganligi uchun uning turmush o'rtog'ining noqonuniy maosh olayotganligi va boshqa shunga o'xshash sabablar bilan oila faoliyati atrofida siyosiy o'yinlar tashkil etildi va oqibatda Fransua Fiyon Fransiya Prezidenti lavozimiga saylovining birinchi bosqichidayoq mag'lubiyatga uchradi).

G'oyaviy korrupsiyaning nihoyatda kuchli ta'siri kadrlar korrupsiyasida o'z ifodasini topadi. Kadrlar korrupsiyasi mamlakatda ijtimoiy adolatsizlikka, ma'naviy muhitning buzilishiga sabab bo'ladigan, siyosiy mentalitetga salbiy ta'sir ko'rsatadigan korrupsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. "Korrupsiyaning bu turi ikki subekt – lavozimga tayinlash huquqiga yoki saylov natijalariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxs va mazkur lavozimni egallashdan manfaatdor shaxsning o'zaro aloqasiga asoslanadi"<sup>32</sup>.

Kadrlar korrupsiyasi favoritizm, lobbizm, urug'-aymoqchilik, mahalliychilikka asoslanadi. Favoritizm davlat faoliyatining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va jamoat resurslari davlat lavozimiga alohida iddaolarga ega bo'lganlar o'rtasida samarasiz va adolatsiz taqsimlanishiga imkoniyat yaratadi. Favoritizmning o'zida hokimiyat tizimini urug'-aymoqchilik asosida tashkil etishdan iborat nepotizm va oshnaog'aynigarchilikka tayanadigan hokimiyat tizimi – kronizm farqlanadi. Boshqaruvga umuman layoqati bo'lmagan odamning favoritizm ta'sirida rahbar lavozimiga tayinlanishi bilan bog'liq kadrlar korrupsiyasi g'oyaviy korrupsiyaning oqibati sifatida amal qiladi (rasmiy kadr masalasi norasmiy vaziyatlarda hal bo'ladi). Bularning barchasi korrupsiyaning mazkur turini davlat milliy xavfsizligiga eng jiddiy tahdidlar darajasiga ko'taradi. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar korrupsiyasini shakllantiradi.

Kadrlar korrupsiyasining boshqa bir ko'rinishi urug'-aymoqchilik va mahalliychilikdir. Mazkur hodisa zamirida u yoki bu shaxs jamiyatning o'z alohida korporativ maqsadlariga ega bo'lgan guruhiga mansubligini anglash yotadi va hokimiyat vakolatlariga ega shaxslar alohida klan, korporasiyaga birlashadi.

Kadrlar korrupsiyasiga davlat lavozimlariga kollegial tarzda saylash, tayinlash yoki ulardan ozod qilish vakolatlariga ega davlat hokimiyati organi tarkibiga kiruvchi mansabdor shaxslarning guruhlarini ham kiritish mumkin. Bunda davlat hokimiyati organining o'zi yuridik shaxs sifatida, hatto uning tarkibiga

---

<sup>32</sup> Дамаскин, О.В. (2009). Коррупция: состояние, причины, противодействие. Москва, Триумфальная арка. с.58.

kiruvchi mansabdor shaxslarning barchasi pora evaziga og‘dirilgan bo‘lsa ham, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas (butun jahonda qabul qilingan amaliyot). Ayni vaqtda, ba’zi mamlakatlarda parlamentdagi ko‘pchilikning pora evaziga og‘dirilgani borasidagi dalilning aniqlanishi qonunchilik hokimiyati organi tarqatib yuborilishiga va yangi saylov tayinlanishiga sabab bo‘lishi lozim. Muayyan sharoitlarda kadrlar korrupsiyasiga saylovchilarni, shuningdek, turli toifadagi mansabdor shaxslarni saylash bo‘yicha ovoz berish natijalarini aniqlashga vakolatli mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish ham kiradi. Kadrlar korrupsiyasida davlat xizmati xodimi bo‘lmagan turli vositachilar, xususan tegishli vakolatlarga ega bo‘lmagan yordamchilar, referentlar, kotiblar ishtirok etishi ham mumkin. Kadrlar korrupsiyasining asosiy salbiy oqibatlarini amaldorlarning nokompetentligi, ishning samarali emasligi, davlat hokimiyati obro‘sining pasayishidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiya va unga qarshi kurash tushunchasi.
2. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari
3. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari
5. Korrupsiya fuqarolik jamiyati rivojlanishiga zid bo‘lgan salbiy voqelik.
6. Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir choratadbirlar.
7. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar
8. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf yetishga doir chora-tadbirlar.
9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga chek qo‘yish, javobgarlikning muqarrarligi.
10. Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati.
11. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik.
12. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish.
13. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish.
14. Korrupsiya sohasidagi tadqiqotlar.



## 15. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G‘afur G‘ulom. 2017.
2. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
7. Utamuradov A, Qirg‘izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O‘quv qo‘llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so‘z. 2018. 395 bet.
8. A. Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

### **3-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurash: rivojlangan mamlakatlar tajribasi.**

#### ***REJA:***

3.1. Korrupsiya darajasi past bo‘lgan rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi..

3.2. Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida korrupsiya darajasi. Rivojlangan Sharq mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish..

3.3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro reyting agentliklari va ularning faoliyat me'zonlari.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiya darajasi past bo'lgan rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi. Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida korrupsiya darajasi. Rivojlangan Sharq mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish. "Xalollik vaksinasi"ning mazmun mohiyati. Iqtisodiy taraqqiyot va korrupsiyaga qarshi kurash Jinoiy jazolarning liberallashtiruvining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro reyting agentliklari va ularning faoliyat me'zonlari.

"Transparency International" xalqaro tashkiloti tomonidan tashkil qilingan har yilgi "Corruption Perceptions Index" (CPI)<sup>33</sup> reytingidagi mamlakatlarning o'rnidan kelib chiqib, turli davlat xizmatlari tizimida Korrupsiyaning oldini olish chora-tadbirlari bilan bog'liq bir qator misollarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ayniqsa bunda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim yutuqlarga erishgan davlatlar alohida qiziqish uyg'otishi shubhasiz, chunki Korrupsiyaga qarshi effektiv dasturlarni o'z ichiga olgan xorijiy tajribalarni mamlakatimizda joriy qilish, Korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarni yaratishga chindan ham yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, 2020 yilgi reytingning (1 ilova) Korrupsiya darajasi bo'yicha eng "toza" mamlakatlari AQSH, Kanada, **Fransiya, Germaniya, Shvesiya, Finlandiya, Estoniya, Niderlandiya**, kabi mamlakatlarda ishlab chiqilgan davlat xizmati tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish nazariyasi va amaliyotiga tegishli ayrim tajribalarni ko'rib chiqamiz.

**AQSH** [CPI (2020) - 67 ball (180 mamlakat ichida 25-o'rin), 1 ilova]. Davlat organlarini Korrupsiyaning buzg'unchi ta'siridan himoya qilish zarurati XIX asrdayoq AQSH hukumatini Korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri qilishga majbur qildi.

Ushbu davlatda bugungi kunda barcha davlat amaldorlari uchun majburiy bo'lgan xizmat-axloq qoidalari va qonuniy cheklovlar asta-sekin shakllandi. Bugungi kunda hukumat amaldorlari turli xil kodekslar va qoidalar, jumladan, 1990 yil 17 oktabrdagi davlat amaldorlari va mansabdor shaxslarining odob-axloq tamoyillari

---

<sup>33</sup> Мамлакат ёки хууднинг CPI баллари маълум бир мамлакатнинг давлат секторидаги коррупция даражаси тўғрисида тадбиркорлар ва мутахассислар тушунчасини акс эттиради ва уни 100 (коррупция деярли йўк)дан 0 (коррупция даражаси жуда юқори)гача бўлган ўлчовда баҳолайди.

va 1978 yilgi Amerika Qo‘shma Shtatlari amaldorlarining odob-axloq to‘g‘risidagi qonuni bilan boshqariladi<sup>34</sup>.

Ushbu Qonunga binoan Oq uyning va boshqa ijro etuvchi bo‘limlarning barcha xodimlari o‘z bo‘lim rahbarlariga quyidagi ma‘lumotlarni taqdim etishlari shart:

1. Barcha korporasiyalar, kompaniyalar, firmalar va tadbirkorlikning boshqa shakllari, notijorat tashkilotlar, shuningdek, xodimning o‘zi, yoki rafiqasi, voyaga yetmagan bolalari yoki oilasining boshqa a‘zolari ta‘lim olayotgan muassasalar nomlari ro‘yxati taqdim qilinadi. Bunday holda, mansabdor shaxsning qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishidan qat‘i nazar, ushbu tashkilotlar bilan “har qanday uzoq muddatli moliyaviy manfaat va har qanday aloqalarini” o‘rnatishi taqiqlanadi.

2. Ilova shakliga binoan mansabdor shaxs o‘zining barcha shaxsiy kreditorlari, xotining kreditorlari, yosh bolalari va u bilan birga yashaydigan boshqa oila a‘zolari ro‘yxatini taqdim etishi shart.

3. Ko‘rsatilgan shaxslarining barcha ko‘chmas mulklari mavjudligi to‘g‘risida ma‘lumot.

4. Ularning “doimiy” tijorat, moliyaviy va boshqa manfaatlari to‘g‘risida ma‘lumot.

Ushbu deklarasiyalarda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni tekshirish har qanday davlat ma‘muriyati yoki idorasida, komissiyalarida maxsus tayinlangan shaxslar yoki guruhlar tomonidan amalga oshiriladi, ular zarur bo‘lganda qo‘shimcha ma‘lumotlarni so‘rashlari, mansabdor shaxslarning o‘zlarini chaqirishlari va ichki tekshiruvlarni olib borishlari mumkin.

Mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklar aniqlanganda, unga nisbatan quyidagi chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin:

- qisman yoki to‘liq diskvalifikasiya qilish;
- martabasining tushirilishi;
- “ziddiyatli” moliyaviy aloqalarni to‘xtatish bo‘yicha talab.

Deklarasiya qilinadigan narsalarga o‘tgan yilgi barcha moliyaviy xarajatlar va daromadlar, shu jumladan:

- to‘liq daromad, dividendlar, depozitlar bo‘yicha foizlar, ko‘char va ko‘chmas mulkdan olinadigan daromadlar, yig‘imlar;
- nodavlat tashkilotlardan olingan moliyaviy va boshqa daromadlar; ■ transport va tegishli xarajatlarni to‘lash;
- har qanday shaxs va tashkilotdan olingan sovg‘alar, shu jumladan sayohat xarajatlari, ovqatlanish, mehmonxonada turar joy, restoranlarda ovqatlanish va turli xil tadbirlar;

---

<sup>34</sup> *Клитгаард Р.* Коррупция назорати. Салифорния Университети нашриёти, 1991. 99-100 бетлар.

- moliyaviy va boshqa majburiyatlar, ular bo'yicha qarzlari; ■ turli tashkilotlar bilan kelishuv va shartnomalar;
- mavjud qo'shimcha ish va boshqa ko'p narsalar.

Chet el fuqarolari, tashkilotlari va hukumatlaridan sovg'alar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, agar senator yoki xodim chet el hukumati, tashkiloti, kompaniya vakili yoki xususiy shaxsdan 50 dollardan ortiq qiymatga ega bo'lgan sovg'a olgan bo'lsa, u sovg'ani olish uchun ikki nusxada tushuntirish tayyorlab, ulardan birini Senatning maxsus Etika qo'mitasiga, ikkinchisi esa sovg'a bilan birga Senat kotibiga yuborishi kerak.<sup>35</sup>

Qo'shma Shtatlarning qonunchilik tashabbuslarini nafaqat o'z mamlakatida mavjud bo'lgan Korrupsiya bilan bog'liq, balki xalqaro Korrupsiya amaliyoti bilan bog'liqligi ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Masalan, Amerika xorijiy amaldorlarga pora olishni taqiqlovchi "Xorijiy Korrupsiya amaliyoti to'g'risida"gi qonuni (1977) qabul qilgan birinchi mamlakat bo'ldi.

Umuman olganda, Qo'shma Shtatlarda Korrupsiyaga qarshi kurashish fuqaroning davlat majburiyatlarini qat'iy bajarish huquqini tan olishga asoslangan. Unga qarshi kurashish uchun uning oldini olishga qaratilgan profilaktika choralari ham, tegishli taqiqlarni buzgan shaxslarga nisbatan jinoyat qonuni ta'sir qilish choralari ham ishlab chiqilgan. Davlat xizmati qat'iy belgilangan chegaralar bilan faoliyatning o'ziga xos turi sifatida qaraladi, davlat va kommunal xizmatchilar korpusi qat'iy nazorat qilinadigan axloqiy va intizomiy meyorlarga bo'ysunishi shart.

**Kanada** [CPI (2020) – 77 ball (180 mamlakat ichida 11-o'rin), 1 ilova]ning jinoyat qonunchiligiga muvofiq, "mansabdor shaxslarni pora evaziga og'dirish", "hukumatni aldash", "mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiiste'mol qilish" mansabdorlik jinoyatlari hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda 1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o'rtasida to'qnashuv yuz bergan holda ular amal qilishi shart bo'lgan xulq-atvor qoidalarini o'zida jamlagan Kodeks qabul qilindi. Qonun chiqaruvchining fikriga ko'ra, mazkur qoidalarning maqsadi – "davlat apparatiga va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirish"dan iborat. Bundan tashqari, qoidalar yuqorida zikr etilgan jinoyatlarning oldini olishga, davlat xizmatida va uni tark etgandan so'ng "manfaatlar to'qnashuvi" ro'y bergan hollarda barcha davlat xizmatchilari xulq-atvorining aniq qoidalarini belgilashga, "bunday holatlar ro'y berish ehtimolini mumkin qadar kamaytirish va ular ro'y bergan holda, ularni jamiyat manfaatlarida hal qilish"ga qaratilgan.

**Fransiya** [CPI (2020) – 69 ball (180 mamlakat ichida 23-o'rin), 1 ilova]da davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish maqsadida XX asrning 90-yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilariga va korrupsiya ta'siriga berilishi mumkin bo'lgan jamoat xizmati kadrlariga o'z mol-

<sup>35</sup> *Клутгаард Р.* Коррупция назорати. Салифорния Университети нашриёти, 1991. 106-бет.

mulki va daromadlari haqida mustaqil idoralarga ma'lumot berish majburiyatini yuklash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklarasiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta'minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar yaratildi. Ma'muriy muassasada imzolangan munosabatlar yoki ular tomonidan berilgan ruxsatlar haqida keng jamoatchilikka axborot berish shakllari ishlab chiqildi. Ko'cha harakati qoidalarini buzganlik uchun shu joyning o'zida jarima to'lash taqiqlandi. Davlat xizmati tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga barham berish usuli sifatidagi davlat nazoratining samaradorligini oshirish maqsadida prefekturalarning qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazorat olib boradigan xizmatlarda band bo'lgan xodimlarining sonini ko'paytirish va malakasini oshirish, shuningdek prefekturalarning xizmatlariga mazmuni korrupsiya xavfini kuchaytiradigan hujjatlarni bajarish muddatini kechiktirish huquqini berish to'g'risida qaror qabul qilindi. Fransiya hukumati Hisob palatasi vakolatlarini kengaytirish, shuningdek korxonalarining o'z xodimlarini korrupsiya xavfidan saqlash uchun ichki audit va nazorat tadbirlari o'tkazish borasidagi say-harakatlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida qaror qabul qildi. Bundan tashqari, Fransiya hukumati Adliya vazirligi qoshida Korrupsiyaga qarshi kurash markaziy xizmati tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi.

**Germaniya** [CPI (2020) – 80 ball (180 mamlakat ichida 9-o'rin), 1 ilova] tajribasi korrupsiyaga ta'sirchan sohalarni aniqlash, mamlakat markaziy bankida davlat xizmatchilarini pora evaziga og'dirishda fosh qilingan jismoniy va yuridik shaxslarning ma'lumotlar bazalarini tashkil etish korrupsiyaning oldini olish borasida eng samarali tashkiliy-huquqiy choratadbirlar bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ularga yangi nom bilan yoki boshqa niqob ostida davlat buyurtmalarini olishga, boshqaruv kadrlarini rotasiya qilishga, boshqaruv xodimlari faoliyati ustidan ichki nazorat olib boradigan tashqi bo'linmalar tashkil etishga imkon bermaydi.

XIX asr o'rtalariga qadar **Shvesiya** [CPI (2020) – 85 ball (180 mamlakat ichida 3-o'rin), 1 ilova]da korrupsiya gullab-yashnagan. Shvesiyada korrupsiyaga qarshi eng nufuzli jamoat birlashmasi Shvesiyaning Korrupsiyaga qarshi kurash institutidir. Institut 1923 yilda tashkil etilgan.

Shvesiya qonunchiligi pora olishni davlat sektoridagi pora va xususiy sektordagi pora sifatida ajratadi. Shvesiyada davlat sektoridagi poraxo'rlik og'irroq jinoyat hisoblanadi.

Shvesiyadagi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun sanksiyalar og'ir emas. Ushbu sanksiyalar dunyoning ko'plab nufuzli mamlakatlaridagi jinoyat qonunchiligidan ancha yengil hisoblanadi. Shvesiya davlat boshqaruvidagi korrupsiyaga qarshi kurashning muvaffaqiyati shved jamiyatining ta'limidir.

Shvesiyada jamoatchilik nazorati korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Bunda ommaviy axborot vositalarining xam o'rni katta, chunki ular

shaxsning mavqeidan qat'iy nazar, darhol korrupsiyaning barcha holatlarini oshkor qilishadi.

2003 yilda Shvesiya prokuraturasida korrupsiyaga qarshi kurashish milliy tarmog'i tashkil etildi va 2012 yilda korrupsiyaga qarshi kurashish milliy polisiya tarmog'i tashkil etildi.

Shu bilan bir paytda Shvesiya parlamenti va hukumati ma'muriyat xodimlari uchun yuqori axloqiy standartlar o'rnatdi va ularni ijro qilishga erishishga intila boshladi. atigi bir necha yildan so'ng halollik byurokratiya orasida ijtimoiy meyorga aylandi. Yuqori mansabdagi amaldorlar maoshi dastlab oddiy ishchilarning ish haqidan 12-15 baravar katta bo'lgan, lekin vaqt o'tishi bilan bu farq ikki baravargacha pasaygan.<sup>36</sup> Hozirgi kunda Shvesiya avvalgidek, dunyo bo'yicha korrupsiya ko'rsatkichi eng past bo'lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashning **fincha** [CPI (2020) – 85 ball (180 mamlakat ichida 3-o'rin), 1 ilova] strategiyasiga xos bo'lgan xususiyat korporasiya haqida maxsus qonun yo'qligi hisoblanadi. Korrupsiya qattiq jinoyat turlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan va qonunchilik, meyorlar va boshqa nazorat tizimlarining barcha darajalarida tartibga solingan. Amaldorlarning pora olganlik uchun nisbatan yumshoq - jarima to'lashdan to'rt yil qamoq jazosiga hukm qilinishigacha jazo belgilanishi Finlyandiyaga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Urushdan keyingi davrda ilgari juda yuqori bo'lgan proxo'rlik darajasining keskin pasayishi ro'y berdi - 1945-1954 yillarda pora olganlik uchun 549 kishi jazolangan bo'lsa, 1980-1989 yillarda chiqarilgan bunday hukmlar soni 81 tani, 1990-yillarda esa 38 tani tashkil qildi.<sup>37</sup> 1990-yillardan boshlab Finlyandiyada xalqaro vositalar foydalanila boshladi - 1997 yilgi Korrupsiyaga qarshi kurash YEI Konvensiyasi, 1998 yilgi poraxo'rlikka qarshi kurash IHTT Konvensiyasi, Yevropa Kengashining korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoiy va fuqarolik huquqi bo'yicha konvensiyasi, 2003 yil dekabrda Mexikoda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi BMT Konvensiyasi ratifikasiya qilindi.

**Estoniya** [CPI (2020) - 75 (180 mamlakat ichida 17-o'rin), 1 ilova]. Barcha postsovet respublikalari orasida Estoniya CPI bo'yicha Ispaniya, Isroil va Portugaliya kabi davlatlardan oldinda, yuqori ko'rsatkichga ega.

Ushbu mamlakatda islohotlar, jumladan Korrupsiyaga qarshi islohotlar byudjet siyosatini rivojlantirish bilan boshlandi, bu davlatga hukumat barqarorligini, iqtisodiy o'sishni, past foiz stavkalarini, nazorat qilinadigan inflyasiyani va xorijiy investitsiyalar oqimini ta'minlashga imkon berdi.

Estoniyada maqbul davlat tartibini yaratish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarga tegishli bojxona to'lovlari joriy etildi va daromad solig'ining 26% "tekis stavkasi" joriy etildi.

---

<sup>36</sup> Новости за 03.02.1999 // Polit.Ru

<sup>37</sup> <http://www.ieras.ru/pub/monografii/seu.pdf>

Bunday soliq tizimi xususiy va korporativ soliqqa tortish uchun yagona soliq stavkasidan foydalanishni nazarda tutadi. Misli ko‘rilmagan iqtisodiy o‘shish darhol kuzatildi, chunki soliqning progressiv stavkasiga asoslangan soliq tizimidan farqli o‘laroq, “barqaror” soliq odamlarni ko‘proq ishlagani va mehnati uchun “jazolamaydi”.

Estoniyada turli xil hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to‘lovning muqobil usuli sifatida, hukumat tomonidan nazorat qilinadigan Internet-to‘lov tizimini rivojlantirish dasturi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolardan pora talab qilish imkoniyatini sezilarli darajada minimallashtirishga imkon berdi. Chunki bu holda shaxsiy aloqalarga ehtiyoj deyarli yo‘qoladi.

Bundan tashqari, davlat organlarining barcha faoliyati va davlat amaldorlari tomonidan fuqarolarning murojaatlarini ko‘rib chiqish jarayoni mamlakatning har bir fuqarosiga ixtisoslashtirilgan elektron axborot tizimi – “Elektron hukumat” orqali taqdim etiladi.<sup>38</sup> Boshqacha qilib aytganda, fuqarolar istalgan vaqtda o‘z murojaatlari bo‘yicha hujjatlarni ko‘rib chiqish jarayonini kuzatishi mumkin. Bunday onlayn boshqaruv tizimining vazifalari:

- davlat apparati ishida oshkoralikni ta‘minlash;
- fuqarolarning ishlarini mansabdor shaxslar tomonidan orqaga surilishi yoki adolatsiz munosabatlarni oldini olish;
- ma‘lum bir ish uchun ruxsatnoma yoki sanksiya berish masalalari Korrupsiya ehtimoli yuqori bo‘lgan hollarda qanday hal qilinayotganligini nazorat qilish va biron bir qonunbuzarlik aniqlanganda norozilik bildirish huquqini ta‘minlash.<sup>39</sup>

Bundan tashqari, hokimiyat va jamiyatning say-harakatlarini birlashtirish va Korrupsiyaning paydo bo‘lishiga yordam beradigan munosabatlarni istisno qilish maqsadida mamlakat parlamenti Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini qabul qildi, uning doirasida 2003 yilda parlament komissiyasi 1999 yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunni amaliyotga tadbiq qildi.<sup>40</sup>

Aynan parlament komissiyasi mamlakatning yuqori mansabdor shaxslari, shu jumladan parlament a‘zolari, mamlakat prezidenti, hukumat a‘zolari, sudyalari va boshqalar daromadlari to‘g‘risidagi deklarasiyalarning “qo‘riqchisi” hisoblanadi va taqdim etilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshiradi.

Komissiya parlamentni ham, jamoatchilikni ham Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunni qo‘llash samaradorligi va natijalari to‘g‘risida xabardor qiladi, Korrupsiya bilan bog‘liq shubhalarni tekshiradi. Agar Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik alomatlari aniqlansa, komissiya materiallarni tegishli huquqni muhofaza qilish organlariga, xususan, Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni ochish,

---

<sup>38</sup> *Зарев М. Асло секин эмас. New Times. 2009. № 16. 18-бет.*

<sup>39</sup> *Зарев М. Асло секин эмас. New Times. 2009. № 16. 18-19 бетлар*

<sup>40</sup> *Зарев М. Асло секин эмас. New Times. 2009. № 16. 19-бет.*

tergov qilish va ularning oldini olishga jalb qilingan tergovchilar va polisiya xodimlaridan iborat maxsus organga yuboradi.<sup>41</sup>

Bundan tashqari, 24 soat davomida ishlaydigan telefon liniyasi mavjud bo‘lib, u yerda pora berish yoki mansabdor shaxsning o‘z lavozimidan suiiste‘mol qilish faktlari to‘g‘risida xabar berishingiz mumkin.

**Niderlandiya** [CPI (2020) – 82 ball (180 mamlakat ichida 8-o‘rin), 1 ilova]. Niderlandiyalik mutaxassislarining fikriga ko‘ra, ushbu davlatda *asosiy Korrupsiya* turi (mansabdor shaxslarning fuqarolardan pora olishi) deyarli chiqarib tashlangan. Buning sababi shundaki, jamoatchilik ongida amaldorning obro‘li obrazi muhim funksiyani bajaradigan - davlat siyosatini olib boradigan va aholiga xizmat qiladigan shaxs sifatida shakllangandir. Shuning uchun uning asosiy vazifasi ma‘lum bir shaxsga emas, balki davlatga sodiqlikni saqlashdir.

Ushbu mamlakatda Korrupsiyaga qarshi kurash davlat va fuqarolik jamiyatining quyidagi chora-tadbirlarga asoslangan bo‘lib, ular ham Korrupsiyani rag‘batlantiruvchi sharoitlarni, ham shaxsni Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini minimallashtirish yoki yo‘q qilishga asoslangan:

1. Korrupsiyani aniqlash va uning oqibatlarini muhokama qilish, ya‘ni Korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan jazo choralari to‘g‘risida doimiy ravishda xabar berish va oshkoralik. Har yili ushbu mamlakat Ichki ishlar vaziri Parlamentga Korrupsiya aniqlangan holatlar va Korrupsiyaga aloqadorlarni jazolash choralari to‘g‘risida hisobot taqdim etadi.

2. Korrupsiyaga yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish tizimini ishlab chiqish va ushbu organlar xodimlari faoliyatini qat‘iy nazorat qilish.

3. Mansabdorlarning xizmat axloq qoidalarini buzganlik, shu jumladan Korrupsiya uchun javobgarligini ko‘rsatadigan huquq va majburiyatlari tizimini yaratish. Ushbu tizim qoidalar buzilgan holatlardagi xulq-atvor bilan bog‘liq chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga oladi.

4. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun asosiy jazo jamoat tashkilotlarida ishlashni taqiqlash va davlat xizmati tomonidan taqdim etiladigan barcha ijtimoiy nafaqalarning bekor qilinishidir (masalan, pensiya va ijtimoiy xizmatlar). Jazo ko‘lami, shuningdek jarimalarni va subektlarning ishlash faoliyatini vaqtinchalik to‘xtatishni o‘z ichiga oladi.

5. Barcha muhim tashkilotlarda, xususan vazirliklarda ichki xavfsizlik xizmatlari mavjud bo‘lib, ular mansabdor shaxslarning xatolarini, ularning amaldagi qoidalarni qasddan yoki tasodifan buzganliklarini va bunday huquqbuzarliklarning tegishli oqibatlarini ro‘yxatdan o‘tkazishi va aniqlashi shart. Davlat idoralari mansabdor shaxslarning ijobiy harakatlarini rag‘batlantirishga intiladi. Bunday

---

<sup>41</sup> Зарев М. Асло секин эмас. *New Times*. 2009. № 16. 19-20 бетлар.



rag‘batlantirish tizimi mansabdor shaxs uchun o‘zini halol tutishning moddiy va ma‘naviy jihatdan foydaliligini targ‘ib qilishga qaratilgan.

6. Korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo‘lgan lavozimlarga mas‘uliyatli shaxslarni tanlash tizimi tashkil etildi.

7. Korrupsiyaga oid barcha materiallar, agar ular milliy xavfsizlik tizimiga ta‘sir qilmasa, majburiy ravishda jamoatchilikka taqdim etiladi.

8. Har bir mansabdor shaxs o‘zini ijobiy va salbiy tomondan tavsiflovchi ma‘lumotlar bilan tanishishga haqlidir.

9. Mansabdor shaxslar uchun Korrupsiyaning siyosiy-ijtimoiy zarari va uning oqibatlarini tushuntirib beradigan maxsus o‘quv tizimi yaratildi.

10. Korrupsiya holatlarini aniqlash bo‘yicha katta vakolatlarga ega bo‘lgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat xavfsizligi tizimi yaratildi.

11. Barcha darajadagi mansabdor shaxslar o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan Korrupsiya holatlarini ro‘yxatdan o‘tkazishlari shart; ushbu turdagi ma‘lumotlar tegishli kanallar orqali ichki ishlar va adliya vazirliklariga uzatiladi.

12. Korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynaydi, ular Korrupsiya holatlarini e‘lon qiladi va ko‘pincha mustaqil tergov olib boradi.<sup>42</sup>

Korrupsiya nuqtai nazaridan eng “toza” mamlakatlarni ko‘rib chiqib, ularning barchasi demokratik va huquqiy davlatlar ekanligini ta‘kidlashimiz mumkin. Albatta, demokratik rejim Korrupsiyani batamom yo‘q qilishga kafolat bermaydi, ammo baribir unga qarshi kurashish uchun diktatura va repressiyalardan ko‘ra ko‘proq imkoniyatlar yaratadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiya darajasi past bo‘lgan rivojlangan davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi..

2. Sobiq sovet ittifoqi davlatlarida korrupsiya darajasi. Rivojlangan Sharq mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurashish..

3. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha xalqaro reyting agenliklari va ularning faoliyat me‘zonlari.

4. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha AQSH tajribasining o‘ziga xosligi nomada?

5. Qanday sabablarga ko‘ra Kanada davlatida korrupsiya darajasi past?

6. Korrupsiyaga qarshi kurashda Fransiya fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

7. Germaniyada OAVlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi faoliyati.

---

<sup>42</sup> Дунёдаги коррупция ва unga qarshi kurashning xalqaro strategiyasi / эд. В.А.Номоконов. Владивосток, 2004 й. 106

8. Finlandiyada korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy yo‘nalishlari.
9. Estoniyaning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi.
10. Gruziyaning korrupsiyaga qarshi kurashda o‘ziga xosligi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G‘afur G‘ulom. 2017.
2. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
7. Utamuradov A, Qirg‘izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O‘quv qo‘llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so‘z. 2018. 395 bet.
8. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

#### **4-mavzu: Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish: fuqarolik jamiyati taraqqiyoti kafolati.**

##### **REJA:**

- 3.1. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni.
- 3.2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun жавобгарлик чоралари.
- 3.3. Korrupsiga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar va ularni oldini olish choratadbirlari. Korrupsiga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

Osiyo davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurashda **Singapur, Yaponiya, Xitoy** katta tajribaga ega davlatlar hisoblanib, bu mamlakatlar tamonidan ishlab chiqilgan institusional tizimda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurash nazariyasi va amaliyotiga tegishli ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz.

**Singapur** [CPI (2020) – 85 ball (180 mamlakat ichida 3-o‘rin), 1 ilova]. Korrupsiyaga qarshi kurashning singapurcha strategiyasi qattiqqo‘llik va izchillik bilan ajralib turadi va «korrupsiya ustidan nazorat mantiqi»ga asoslanadi: «korrupsiyani tag tomiri bilan yo‘q qilishga qaratilgan harakatlar shaxsning poraxo‘rlik bilan bog‘liq harakatlar amalga oshirishga moyillik imkoniyatini ham, stimulini ham yaratadigan shart-sharotlarni minimal qilish yoki istisno qilishga intilishiga asoslangan bo‘lishi lozim».<sup>43</sup>

Mustaqillikni qo‘lgan kiritgan 1965 yilda Singapur korrupsiya darajasi juda yuqori bo‘lgan mamlakat hisoblanardi. Korrupsiyani pasaytirish taktikasi bir qator vertikal chora-tadbirlarga: amaldorlar harakatlarini tartibga solishga, byurokratik jarayonlarni soddalashtirishga, yuqori odob-axloq standartlariga rioya qilinishi ustidan qattiq nazoratga asoslangan. Uning markaziy bo‘g‘iniga aylangan korrupsiya holatlarini tergov qilish bo‘yicha mustaqil Byuroga fuqarolar davlat xizmatchilari ustidan arz qilish va yetkazilgan ziyonni qoplashni talab qilib murojaat qilish huquqiga ega bo‘lgan. Shu bilan bir paytda qonunchilik talablari kuchaytirildi, sud tizimi mustaqilligi oshirildi (yuqori ish haqi va imtiyozli maqom berilgan holda), pora berganlik yoki korrupsiyaga qarshi tergov ishlarida ishtirok etishdan bosh tortganlik uchun iqtisodiy jarima choralari joriy qilindi, shuningdek, bojxona xodimlari va boshqa davlat xizmatchilariga nisbatan yoppasiga ishdan bo‘shatishga qadar bo‘lgan qattiq choralar ko‘rildi. Bu iqtisodiyotni qayta tartibga solish, amaldorlar ish haqini oshirish va yuqori malakali ma‘muriyat kadrlari tayyorlash bilan uyg‘unlashdi.

Singapur davlati korrupsiyaga qarshi siyosatining asosiy g‘oyasi «insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni bartaraf qilish»dan iborat. Bunga bir qator tamoyillar orqali erishiladi:

- 1) davlat xizmatchilarining ish haqini xususiy sektorda muvaffaqiyatli ishlayotgan shaxslarning o‘rtacha oylik ish haqi bilan tenglashtirish;
- 2) davlat organlari mansabdorlarining mulki, aktivlari va qarzlari bo‘yicha yillik hisobotlarini nazorat qilish. Xususan, prokuror korrupsiyaga qarshi qonunchilikni buzganlikda gumon qilingan shaxslarning har qanday bank hisob raqamlarini, aksiyalarini tekshirishga haqli;
- 3) yuqori lavozimdagi mansabdorlarning ma‘naviy yuksakligini ta‘minlash;

---

<sup>43</sup> ВЦИОП — Сингапурская стратегия борьбы с коррупцией

4) iqtisodiy rivojlanishda duch kelinadigan ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish.

Hozirgi paytda Singapur korrupsiya yo'qligi, iqtisodiy erkinlik va taraqqiyot borasida dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Ushbu davlatda Korrupsiyaga qarshi kurash hali hanuz davom etmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy faoliyat ko'rsatuvchi, siyosiy va funksional mustaqillikka ega bo'lgan ixtisoslashgan organ - *Korrupsiya ishlari tergov byurosi* mavjudligi buning yaqqol dalilidir. Ushbu mustaqil organning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Singapur iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorlaridagi Korrupsiya holatlarini tekshirish va ularga chek qo'yish;
- davlat xizmatchilari o'rtasida o'z mansabini suiiste'mol qilish holatlarini tekshirish va bu haqda tegishli organlarga xabar berish;
- zarur bo'lgan intizomiy choralarni ko'rish;
- boshqaruv tizimidagi mavjud zaif tomonlarni aniqlash uchun Korrupsiyaga uchragan davlat organlarining ish uslublarini o'rganish. Korrupsiya va mansabni suiiste'mol qilishga olib keladigan holatlar aniqlansa, Byuro ushbu bo'limlar rahbarlariga tegishli choralarni ko'rilishini ta'minlaydi.

Korrupsiy ishlari tergov byurosi rahbari lavozimini Bosh vazir oldida bevosita mas'ul bo'lgan direktor egallaydi. Shunday qilib, boshqa biron bir vazir tergovni to'xtata olmaydi, yoki unga qandaydir tarzda ta'sir o'tkaza olmaydi.

Singapurda Korrupsiyaga qarshi kurash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ikkala tomonga, ya'ni pora berganga ham, pora olganga ham chora ko'rilishi kerak;
2. Korrupsiya nafaqat ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik, balki ommaviy tanqid bilan ham jazolanishi kerak;
3. Davlat majburiyatlari va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi aniq chegarani belgilash;
4. Qonun ustuvorligini mustahkamlash;
5. Hokimiyatda aniq va qat'iy ishlash metodlarini o'rnatish va qaror toptirish orqali Korrupsiyani maksimal darajada yo'q qilish;
6. Korrupsiyaga qarshi kurashda, liderlar o'z axloqiy avtoritetini, obro'sini saqlab qolish uchun o'zlarining namunali xulq-atvorini eng maksimal darajada namoyish etishlari kerak;
7. Mansabdor shaxslarni tayinlashda oilaviy aloqalar yoki siyosiy homiylik emas, balki shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarning inobatga olinish kafolatlarining mavjudligi;
8. Davlat xizmatchilarining munosib maosh bilan ta'minlanishi, Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni kamaytirishga xizmat qiladi;

9. Korrupsiyaga qarshi kurashda, samarali va haqqoniylik prinsiplariga binoan ishlovchi organ tashkil etish va boshqarish, shuningdek, Korrupsiya hodisalari to'g'risida xabar bergan shaxslarni himoya qilish;

10. Keraksiz ma'muriy to'siqlarni yo'q qilish. Masalan, hujjatlar uchun zarur bo'lgan imzo sonini minimallashtirish;

11. Davlat amaldorlarining o'z daromad manbalari to'g'risida majburiy hisobotlarini e'lon qilish.

Singapurda har yili davlat xizmatchilaridan o'z mol-mulki va qarzlarini deklarasiya qilish uchun maxsus formani (blankani) to'ldirishlari talab qilinadi. Agar ular qo'shimcha mablag'larni qayerdan olganliklarini tushuntirib bera olmasalar, bu mablag'larning manbayini Korrupsiya deb taxmin qilinadi. Keyin tegishli tekshiruv o'tkaziladi. Prokuror Korrupsiyaning oldini olish to'g'risidagi qonunni buzganlikda gumon qilingan shaxslarning har qanday bank, aksiyalar va hisob-kitob hisobvaraqlarini tekshirishga haqli.

Singapur hukumati tomonidan qoniqarsiz moliyaviy siyosatni nazorat qilish bo'yicha ko'rilgan choralar: hukumat siyosatini o'zgartirishga ta'sir qiluvchi kuchlarni sotib olishga imkon bermaydigan qat'iy qoidalarni joriy etish (masalan, saylovoldi tashviqotiga sarflanadigan mablag'larning qat'iy cheklanishi, xayriya mablag'larini ayrim vazirlarga yoki parlament a'zolariga emas, faqat siyosiy partiyalarga berish kabilar) alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Bundan tashqari, 1973-yil iyuldan boshlab Singapur Moliya vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus dasturni amalga oshirmoqda, unga quyidagi tadbirlar kiritilgan:

- sustkashlikni bartaraf etish maqsadida fuqarolar va tashkilotlar bilan o'zaro aloqalar tartibini takomillashtirish;
- yuqori mansabdor shaxslarning quyi lavozimli mansabdor shaxslar ustidan nazoratining shaffofligini ta'minlash;
- barqaror Korrupsiya aloqalarining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik uchun mansabdor shaxslarning rotasiyasini joriy etish;
- kutilmagan tekshiruvlar o'tkazish;
- Korrupsiya maqsadida ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim ma'lumotlarning tarqalishini oldini olish uchun maxfiylikni ta'minlash;
- har 3-5 yilda Korrupsiyaga qarshi choralar kompleksini ko'rib chiqish tartibini joriy etish.<sup>44</sup>

Barchamizga ma'lum, **Yaponiya** [CPI (2020) – 74 ball (180 mamlakat ichida 19-o'rin), 1 ilova] iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakat bo'lib, uning korrupsiyaga qarshi siyosati davlat boshqaruvi tizimida ushbu salbiy illatga qarshi mexanizmlarni takomillashtirish yo'llarini topishga asoslangan.

---

<sup>44</sup> Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси/В.А.Номо-Конова. Владивосток, 2004. 93-94 бетлар. (<http://www.indem.ru/corrupt/whoww/index.htm>)

Korrupsiyaga qarshi kurashishda Yaponiyada ta'lim-tarbiya jarayoni muhim rol o'ynaydi, yapon tilida korrupsiya so'zi "iflos ish" deb tarjima qilinadi. Agar yaponlar korrupsiyada ayblanadigan bo'lsa, nafaqat aybdor shaxs, balki uning butun oilasiga tushadigan eng katta sharmandalik hisoblanadi.

Qadim zamonlardan beri Yaponiyada shaxsiy manfaatlarni qurbon qilish qobiliyatini umumiy manfaatlarga qurbonlik sifatida qadrlangan. Kunchiqar yurt Konstitusiyasi talablariga ko'ra, hokimiyat organlarining barcha mansabdor shaxslari butun jamiyatning xizmatchilari hisoblanadi hamda shaxsiy manfaatlardan yuz o'girish - bu amaldorlarning yo'lidir. Bugungi kunda Yaponiyaning huquqiy siyosati, jinoiy qonunchiligi va jinoyatchilikka qarshi kurash tizimining samarasi o'laroq ushbu mamlakat uzoq vaqtdan beri dunyodagi eng xavfsiz davlatlardan biri hisoblanadi.

Yaponiya Jinoyat kodeksiga muvofiq pora olish, talab qilish yoki oldindan olish uchun xavflilik darajasiga qarab turli muddatlarga majburiy jismoniy mehnatga jalb qilingan holda ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llaniladi. Kodeksda nafaqat mansabdor shaxs tomonidan pora olish, balki uchinchi tomonga berish, vositachilik uchun pora olganlik uchun ham jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan.

Yaponiyada siyosatchilar va xodimlarning o'z xizmat majburiyatlarini bajarishda ularning axloqiy xatti-harakatlariga katta e'tibor beriladi. Jumladan, "Parlament to'g'risida"gi qonunda "kasbiy etika" bobining mavjudligini yoki "Davlat xizmatchilarining etikasi to'g'risida"gi qonun amal qilayotganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Unda xodimlarning axloq qoidalari, kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda sovg'alar olishga va ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini qabul qilishga taqiq va cheklovlar mavjud bo'lib, ushbu qoidalar va meyorlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilishning qat'iy tartibi belgilangan.

Yaponiyada korrupsiya bilan bog'liq barcha materiallar, agar ular milliy xavfsizlik tizimiga ta'sir qilmasa, keng jamoatchilik uchun ochiq hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu davlatda davlat hokimiyati organlarining aholiga hisobot berish amaliyoti samarali yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, korrupsiya bilan bog'liq ishlarni keng ommaga yetkazib borish maqsadida 2001 yilda Yaponiyada axborotni oshkor qilish tartibini nazarda tutuvchi qonun qabul qilingan.

Ushbu hujjat fuqarolarga davlat organlari tomonidan saqlanadigan ma'lumotlardan foydalanish huquqini, shu bilan birga agar hukumat muayyan ma'lumotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, u holda ma'lumotlarning oshkor etilishini nazorat qilish kengashiga murojaat qilish imkoniyatini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, agar mansabdor shaxslar korrupsiya nuqtai nazaridan biron narsani yashirishsa va fuqaro amaldorni obro'sizlantiradigan narsani bilsa, u hukumatdan obro'sizlantiruvchi faktlarni oshkor qilishni talab qilishga haqli.

Shunday qilib, davlat xizmatchilari o'rtasida korrupsion harakatlarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli choralar keng jamoatchilikning bosimi hamda samarali jamoat nazoratining amal qilayotganligi bois ham ushbu salbiy illatga o'zining natijasini bermoqda.

Kadrlar siyosati Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Katta tabiiy resurslarga ega bo'lmagan ushbu Osiyo mamlakati ko'p jihatdan samarali kadrlar siyosatining amalga oshirilayotganligi tufayli innovasion texnologik taraqqiyotga erishmoqda.

Kadrlar siyosatining adolatli olib borish va xodimlar manfaatlarini himoya qilish vazifasi parlament palatalari roziligi bilan Hukumat rahbari tomonidan tashkil etiladigan kadrlar masalalari bo'yicha kengash zimmasiga yuklatilgan.

Mazkur kengash har yili parlamentga va hukumatga maoshning milliy tendensiyalari to'g'risida hisobot beradi. Xususiyl sektorda ish haqining sezilarli darajada oshishi aniqlanganda, Kengash davlat xizmatchilarining ish haqi miqdoriga ham tegishli o'zgartirishlar kiritish haqida tavsiyalarni ishlab chiqadi va ko'rib chiqish uchun parlamentga taqdim etadi.

Yaponiyada yosh avlodda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. To'rt yoshli bolalarga yaxshilikni yomondan ajratishga, optimist bo'lishga o'rgatiladi.

An'anaga ko'ra, yapon maktablarida ko'proq tarbiyaga e'tibor qaratiladi. Jumladan, boshlang'ich va quyi o'rta maktablarining o'quv dasturlarida "dotoku keiku" - axloqiy tarbiya kabi maxsus fanlar ham mavjuddir.

Shubhasiz, kunchiqar yurt noyob va zamonaviy demokratik, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatdir.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyada korrupsiyaga qarshi kurashishning ustuvor yo'nalishlari sifatida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, davlat xizmatini isloh qilish (munosib ish haqi, rag'batlantirish tizimi, meritokratiya prinsipi), fuqarolik huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ijtimoiy-huquqiy nazorat va siyosatchilarga ma'naviy ta'sir ko'rsatish tizimining amal qilayotganligini hamda bu borada ijobiy tajribalar mavjudligini e'tirof etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Xitoy** [CPI (2020) - 42 (180 mamlakat ichida 78-o'rin), 1 ilova]. Korrupsiyaga yo'l qo'ygan amaldorlarni tez-tez, hatto milliy televideniye orqali nishonga olishlariga qaramay, Xitoy Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaxshi tizimni yaratishda omadli chiqmadi.

Buning sababi shundaki, repressiv choralar, go'yoki samarali ko'rinsada, kerakli natijani bera olmaydi. Shubhasiz, poraxo'r amaldorlarning bir necha foizi kamayadi (o'lim jazosidan qo'rqish sababli), lekin umuman olganda bu faqat pora miqdorining ko'payishiga olib keladi (xavfni oshirganligi uchun to'lov).

Bundan tashqari, bunday choralar, odatda, kimni qatl etish va kimni afv etish to'g'risida qaror qabul qilish monopol huquqini olgan "byurokratiya korporatsiyalaridan" biri - huquqni muhofaza qiluvchi organlarning keskin kuchayishiga olib keladi.

Mutaxassislar Xitoyning Korrupsiyaga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizligini siyosiy tizim, Kommunistik partiyaning ko'plab iqtisodiy xatolari, shuningdek mamlakatda byurokratiya mavjudligining ming yillik an'analari bilan bog'lashadi.

Shunga qaramay, Xitoyning "urush strategiyasi" deb nomlangan Korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi bizda qiziqish uyg'otmoqda.

Ushbu strategiyaning boshlanishi 1951-yil dekabrda, "uchtaga qarshi" (Korrupsiyaga, byurokratiya va chiqindilarga qarshi) deb nomlangan dasturdan boshlanadi. Uni amalga oshirish doirasida Korrupsiya to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadigan maxsus xalq sudlari tashkil etildi va unga qarshi kurashish uchun aniq choralar ko'rildi: har bir fuqaro, jinoiy jazo tahdidi ostida, ma'lum bo'lgan Korrupsiya ishlari to'g'risida xabar berishga majbur bo'ldi.<sup>45</sup>

1965-yilda yakunlangan strategiyaning natijalari hayratlanarli edi: ro'yxatdan o'tgan Korrupsiya holatlari soni 500 mingdan 180 mingga tushdi.

Xitoyda ushbu Korrupsiyaga qarshi kurash dasturining afzalliklari qatorida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi ishlab chiqiladi va kun tartibiga qo'yildi, bu unga qarshi muvaffaqiyatli kurashishning birinchi qadami sifatida tan olinishi mumkin, chunki Korrupsiya borligi haqidagi faktning o'zi tan olindi. Ko'rinib turibdiki, Korrupsiya mavzusi ma'muriy yoki madaniy jihatdan taqiqlangan jamiyatlarda unga qarshi kurashish deyarli mumkin emas.

2. Natijalarga tez erishish. Repressiv choralar tabiatan ommaviydir, chunki ularning natijalari ko'plab odamlarga ta'sir qiladi, ularni hisoblash oson, siyosiy reklama uchun ishlatilishi mumkin, tezda ommaga yetib boradi va uzoq vaqt esda qoladi.<sup>48</sup>

"Urush strategiyasining" kamchiliklari ham unchalik jiddiy emas:

1. Ushbu Korrupsiyaga qarshi dastur davlat tomonidan nazoratni kuchaytirishga asoslangan jazolash xususiyatiga ega bo'lib, bu o'z navbatida totalitar mamlakatlarda Korrupsiyaning gullab-yashnashining sabablaridan biridir.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish va profilaktika obekti korrupsioner mansabdor shaxs qaratiladi, ya'ni ushbu ijtimoiy salbiy hodisaning o'ziga emas.<sup>49</sup>

---

<sup>45</sup> Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси/В.А.Номоконова. Владивосток, 2004. 93-94 бетлар. <sup>48</sup> Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси/В.А.Номоконова. Владивосток, 2004. 93-94 бетлар. <sup>49</sup> Дунёдаги коррупция ва унга қарши курашнинг халқаро стратегияси/В.А.Номоконова. Владивосток, 2004. 93-94 бетлар.



“Urush strategiyasidan” foydalanish demokratiya tamoyillariga mutlaqo mos kelmaydigan shartlarga rioya qilishni talab qiladi, chunki uni amalga oshirish uchun tez-tez tergov harakatlarini amalga oshirishda, shuningdek jazo tayinlashda inson huquqlarini buzish kerak bo‘ladi (masalan, insonning yashash huquqi).

Xitoydagi Korrupsiyaga qarshi kurashning navbatdagi muhim qadamini partiya Markaziy qo‘mitasi tomonidan 1982-yilda boshlangan yangi kampaniya deb hisoblash mumkin.

Ushbu kampaniyaning rivojlanishiga Korrupsiyasining keskin ko‘payishi to‘sqinlik qildi. Bu, avvalambor, mansabdor shaxslarning Korrupsiyaga qarshi kampaniyalarga qarshi “antitelalari” ishlab chiqqani va barqaror koalitsiyalar tuzib, ular doirasida bir-birlarini "yopib qo‘yganliklari" bilan bog‘liq.

Davlat bunga qarshi nazorat organlarini qayta tuzish va jinoyat kodeksini to‘ldiruvchi maxsus qonunlarni qabul qilish va Korrupsiyaviy munosabatlarni cheklash uchun yanada jiddiy jazolarni tayinlash orqali qarshi chiqdi.

Shunga qaramay, ushbu kampaniya natijalari juda oddiy edi. Buning asosiy izohi mansabdor shaxslar nazorat qiluvchi organlarning tashrifini kutib, “hujum va mudofaa ittifoqlari” tuzgan degan taxmindir. Masalan, mansabdor shaxslardan biri “yuqoriga” yuborgan Korrupsiya amaliyotlarini uning boshlig‘i yoki boshqa Korrupsiyachi amaldorlarning koalitsiyasi olib turdi.<sup>46</sup> O‘z navbatida, 2007-yilda Intizomni tekshirish bo‘yicha markaziy komissiya o‘z ixtiyori bilan Korrupsiyani tan olgan mansabdor shaxslarga nisbatan “yumshoqlik” ko‘rsatadigan farmon chiqardi. Natija barcha kutilgan natijalardan oshib ketdi: atigi bir oy ichida 1790 kishi aybni tan olish uchun kelib, 10,2 million dollarni davlatga qaytarib berishdi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali usullaridan biri bu barcha davlat organlarida kadrlar almashinuvidir. Xitoyda ushbu profilaktika chorasi, aksariyat hollarda, viloyat va shahar partiya qo‘mitalari kotiblari tomonidan ilgari boshliq bo‘lgan viloyat intizom komissiyalari rahbarlarini almashtirishda o‘z aksini topdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.
4. Singapurda Korrupsiyaga qarshi kurash qanday tamoyillarga asoslanadi?

---

<sup>46</sup> Дунёдаги коррупция ва unga qarshi kurashning xalqaro strategiyasi/V.A.Номоконова. Владивосток, 2004. 93-94 бетлар.

5. Korrupsiyaga qarshi kurashda Xitoyning o'ziga xosligi qanday omillar bilan asoslanadi?

6. «Insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni bartaraf qilish» tamoyili qaysi davlatda keng tadbiiq etilgan.

7. “Urush strategiyasidan” foydalanish qaysi davlat amaliyotida foydalanilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G'afur G'ulom. 2017.
2. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.
3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. 5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
7. Utamuradov A, Qirg'izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O'quv qo'llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so'z. 2018. 395 bet.
8. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1–amaliy mashg‘ulot: Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish: fuqarolik jamiyati taraqqiyoti kafolati.. (2 soat)

#### **REJA:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari.
3. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar va ularni oldini olish choratadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

Dunyoda XXI asr boshlariga kelib ham korrupsiyaga barham berish masalalari had etilgani yo‘q. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra dunyoda berilgan pora hajmi keyingi uch yil ichida yiliga o‘rtacha 1 trl. AQSH dollarini tashkil etmoqda. Rossiya Federasiyasi adliya vazirligi hisobiga ko‘ra korrupsiya Rossiyani 20 foiz yalpi ichki mahsulotdan maxrum qilib, u yiliga 16 trln. rublni tashkil etmoqda. Rivojlangan davlatlarda ham korrupsiyani kamaytirishda hal etilmagan muammolar mavjud. O‘zbekistonda ham mustaqillik davrida korrupsiyaga berilgan mansabdorlar xatti-harakatiga to‘liq barham berishning huquqiy va tashkiliy jihatlari o‘z takomiliga yetkazilmadi.

Prezident SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da mamlakatda korupsiyaga qarsha kurashni samarali tashkil etish bo‘yicha vazifalar qo‘yildi. Uning 2-yo‘nalishi qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish vazifalarini o‘z ichiga olib, uning 4-bandida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish vazifalari qo‘yildi. Xususan unda korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy

mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 24 iyulda qabul qilingan "Qonunchilik ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibida Qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bosh boshqarmasi tashkil etilishi prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurash va nazorat faoliyati kuchayishining muhim omiliga aylandi. 2014-2017 yillarda qonunlar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan 17 mingdan ortiq tekshiruv yakunlariga ko'ra prokuratura organlari tomonidan 115228 ta prokuror nazorati hujjati qo'llanildi, 87094 nafar fuqaroning buzilgan huquqlari tiklandi. Davlat organlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan 19578 ta hujjati ustidan arz qilindi. Natijada keyinchalik ushbu hujjatlar bekor qilindi yoki qonun hujjatlariga muvofiq holga keltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilingan "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining qoidalarini so'zsiz ijro etishgaprokuratura organlari tomonidan alohida e'tibor qaratildi. Mazkur farmon, unga muvofiq qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni so'nggi yillarda mazkur sohada qabul qilingan eng muhim normativ hujjatlar bo'lib qolmoqda. Ushbu qonun hujjatlari tadbirkorlik subektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, biznes olib borishni tashkil etish, nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq mazkur subektlar faoliyatining deyarli barcha jihatlariga taalluqlidir.

Ushbu qonun hujjatlarining qoidalarini amalga oshirish maqsadida prokuratura organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining so'zsiz ijro etilishiustidan nazoratni kuchaytirishga, tadbirkorlik subektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini buzganlik uchun nazorat qiluvchi, huquqni muhofaza qiluvchi va vakolatli davlat organlari mansabdor shaxslari javobgarligining muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan kompleks, tizimli chora-tadbirlar ko'rilmogda hamda ro'yobga chiqarilmogda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 mayda qabul qilingan farmonini ijro etish maqsadida Bosh prokuratura huzurida fuqarolarning, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining murojaatlarini kechayu kunduz qabul qiladigan elektron tizim yaratildi va samarali faoliyat ko'rsatmogda. Murojaatlarni ko'rib chiqish tezligini ta'minlash maqsadida ushbu tizimga 34 ta idora, prokuratura organlarining viloyat va tuman bo'linmalari ulandi. Har bir murojaatning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi on-layn rejimda nazorat qilinmogda.

Bosh prokuraturaning murojaatlarni kechayu kunduz qabul qiluvchi markazi tashkil etilganidan buyon (2015 yil 1 iyul) markaz telefonlariga 19 mingdan ziyod murojaat kelib tushdi. Ular bo'yicha prokuror tomonidan tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. Hisobot davrida prokuratura organlari tomonidan deyarli 16 ming nafar tadbirkorlik subektining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan ularga amaliy yordam ko'rsatildi. Tadbirkorlarni himoya qilishga qaratilgan nazorat tadbirlari natijasida ularning foydasiga 13 milliard so'm undirish to'g'risida sudlarga 764 ta ariza kiritildi, 6220 nafar tadbirkorning huquqlari tiklandi. Muhokama chog'ida qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning mehnat, ijtimoiy ta'minot, sog'liqni saqlash, ta'lim sohasidagi huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha prokuratura organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshirishga doir taklif hamda tavsiyalar bildirildi<sup>47</sup>.

2016 yilning so'nggi choragidan boshlab mamlakatda korrupsiyaga barham berish sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 2017 yil 2 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2752-sonli qarori mamlakatda korrupsiyaga barham berish va unga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Qarorga asosan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarining samarali ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi tasdiqlandi, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

-korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir choratadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

---

<sup>47</sup> Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 4-ялпи мажли 2015,5 декабрь. № 235 (6418).

-korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

-korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish<sup>48</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlangan "2017-2018 yillarga mo'ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi"da korrupsiyani yo'qotish va unga qarshi kurashish uchun quyidagi huquqiy asoslar loyihalarini ishlab chiqish topshirildi:

1) "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

2) Davlat xizmati tizimini yaratish va uning faoliyati asosiy tamoyillarini, davlat xizmatining kadrlar tarkibini shakllantirishga, davlat xizmatiga ishga kirishga bo'lgan talablarni, uni o'tashni va yakunlashni tartibga soluvchi «Davlat xizmati to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

3) Davlat va xususiy tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'zaro manfaat keltiruvchi hamkorlikning qonuniy asoslarini nazarda tutuvchi «Davlat va xususiy sheriklik to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

4)Quyidagilarni nazarda tutuvchi «Davlat xaridlari to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish:

-davlat xaridlarini raqobat asosida amalga oshirishning shaffof va ochiq mexanizmi, ushbu sohada korrupsiyaning oldini olish choralari;

-davlat xaridlariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarini keng jalb qilish;

-davlat xaridlari ishtirokchilari uchun shikoyat qilishning mustaqil va samarali tizimi hamda tartibini yaratish;

-elektron xaridlarni yanada rivojlantirish va boshqalar.

---

<sup>48</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси қонунининг қоидаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2017 йил 2 февралда қабул қилинган ПҚ-2752-сонли қарори//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 37сон, 982-модда.

5) Quyidagilarni nazarda tutuvchi «Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

-normativ-huquqiy hujjatlarni tarqatishning ta'sirchan tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini, shuningdek konsepsiyalarni va ularga tushuntirish xatlarini chop etishni, qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlariga sharhlar tayyorlash va chop etish amaliyotini keng joriy etish;

-aholiga normativ-huquqiy hujjatlar mazmuni va maqsadlarini tushuntirish va ulardan keng xabardor qilish bo'yicha choralar;

-Oliy Majlis palatalarining, Vazirlar Mahkamasining, boshqa davlat organlarining aholi va ijrochilarga qonun va qonunosti hujjatlarini yetkazish bo'yicha aniq vakolatlarini belgilash.

6) Davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyati ustidan jamoat nazoratini amalga oshirish bo'yicha munosabatlarini tartibga soluvchi «Jamoat nazorati to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

7) Jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat prosessi boshqa ishtirokchilarining, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida ma'lumot beruvchi shaxslarning jismoniy va ijtimoiy himoyasining davlat tomonidan kafolatlarini nazarda tutuvchi «Jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat prosessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish.

8) Quyidagilarni nazarda tutuvchi «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

-davlat organlarining boshqaruv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish;

-asosli va tezkor qarorlarni qabul qilish yo'li bilan davlat xizmatlarini ko'rsatishning samarasini ta'minlash;

-jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishning zamonaviy tartib-taomillarini joriy etish.

9) Mamlakatda huquqiy ta'lim va ma'rifatni tubdan yaxshilashga, huquqiy bilimlarni jamiyatda targ'ib etishga qaratilgan Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining loyihasini tayyorlash.

Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning oxiridan boshlab davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashining tizimli faoliyatini yo'lga qo'yilishi, uning tashabbusi bilan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, proyektura va sud-huquq tizimini isloh etilishi, Prezident va Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojatlarni tahlil etib borish qoidalarini o'rnatilishi, mansabdorlar xizmatini oxirgi natijalariga qarab baholanishi qoidalarini o'rnatilishi kabi chora-tadbirlar o'z natijasini bera boshladi. Yuqori davlat organlari bilan chatishib ketgan bir necha uyushgan jinoiy ishlar fosh etildi.

2017 yilning birinchi yarmida 1566 ta mansabdor shaxsga nisbatan 1130 ta jinoi ish qo‘g‘atilib, ulardan 954 tasi (84,4 foizi) sudga oshirilgan. Lekin, bu davrda 2016 yilning birinchi yarmiga nisbatan sudga oshirilgan jinoi ishlar 22 foizga kamaydi. Korrupsiyaviy faoliyat tufayli keltirilgan zararning 77 foizi undirildi. 374 ta guruhlar tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar ochib tashlandi, 1330 ta korrupsiyaviy jinoyatlar aniqlandi<sup>49</sup>.

Mamlakatda har payshanba kuni “Huquqbuzarliklarni oldini olish kuni” deb e‘lon qilinib, bu kunlari mehnat jamoalari va yashash joylarida huquqni himoya qilish organlari vakillari aholini ro‘y berayotgan jinoyatlardan ogoh etib borish, aholini huquqiy madaniyatini oshirish tadbirlarini o‘tkazish an‘anaga aylandi. Shuningdek, payshanba kunlari ichki ishlar tayanch punktlarida “ochiq eshiklar kuni” o‘tkazish, fuqarolarni qabul qilish ishlari olib bori qoidasi o‘rnatildi.

2018 yil 19 fevralda O‘zbekiston ichki ishlar vazirining bergan ma‘lumotlariga binoan 2017 yilda 1426 ta korrupsiyaviy jinoyatlar fosh etilib, undan 171 tasi poraxo‘rlik, 109 tasi tovlamachilik, 517 tasi firibgarlik, 125 tasi noqonuniy valyuta aylanmasini amalga oshirish, 19 tasi soxta pullarni ishlab chiqish, 190 tasi davlat mulkini o‘g‘irlash va unga kamomad keltirish kabi jinoyat turlarini tashkil etdi. 2017 yilda jinoiy harakat qilganligi uchun 230 ta ichki ishlar organlari xodimlari ustidan jinoiy ish qo‘zg‘atildi, 8000 ta xodim intizomiy javobgarlikka tortildi. Lekin, 2017 yilda 73.692 ta jinoiy ishlar fosh etilib, bu 2016 yilga nisbatan 15,7 foizga kamaygani ham qayd etildi<sup>50</sup>.

Shuningdek, prokuratura, davlat milliy xavfsizligi, soliq idoralari kabi mamlakatdagi barcha davlat organlari faoliyati tahlil etilganida 2017 yilga kelib korrupsiyaviy jinoyatlarning ancha kamayganligi sezildi. Bu haqda Prezident SH.Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida e‘tibor qaratilib, mamlakatda korrupsiyaning 2016 yilga nisbatan 33%ga kamayganligini ko‘rsatib o‘tdi.

2017 yil 29 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining navbatdagi yig‘ilishida davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2017-2018 yillarga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Davlat dasturida belgilangan choratadbirlarining ijrosi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar muhokama qilindi. Shuningdek, yig‘ilishda Komissiya tomonidan o‘tgan davrda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘plab tashkiliy-huquqiy ishlar va amaliy tadbirlar bajarilganligi ta‘kidlab o‘tildi. Xususan, mamlakatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan

---

<sup>49</sup> В Узбекистане коррупция пошла на спад//<https://regnum.ru/news/2360143.html>.

<sup>50</sup> Глава МВД Узбекистана признал наличие среди милиционеров вымогателей и взяточников.19.02.2018. <http://interfax.az/view/726256>.



murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, komissiya davlat dasturi ijrosi tahlili ayrim vazirlik va idoralar tomonidan belgilangan tadbirlar ijrosiga yetarli mas’uliyat bilan yondashilmay, unda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etilmaganligi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga doir o‘quv-metodik va ilmiy adabiyotlar ishlab chiqilmaganligi, bu soxada tizimli ravishda uquv mashg‘ulotlari tashkil etilmaganligi qayd etildi.

Komissiya korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, aniqlash, chek qo‘yish, shuningdek korrupsiya holatlarini keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish borasidagi choratadbirlarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan samarali va o‘z vaqtida amalga oshirilishiga qaratilgan aniq vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi<sup>51</sup>.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan salkam ikki yil ichida O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy huquqiy asoslari ishlab chiqildi, ular amaliyotda qo‘llana boshlandi. Muhimi, aholining Prezident va Xalq qabulxonalari vositasida yuz berayotgan korrupsiyaviy jinoyatlarni davlat hokimiyati organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish imkoniyati yaratildi. Korrupsiyaga barham berish uchun maxsus davlat hokimiyati organlari tuzilmalari shakllandi, ularning xalq oldidagi mas’ulligi oshirildi. Qisqa davr ichida korrupsiyaviy jinoyatlar ancha kamaydi. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashning fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan shakllari va taribotlari shakllantirildi, bu sohadagi muhim vazifa sifatida aholi huquqiy madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni qay darajada?
2. O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat xizmatchilarini qo‘llab-quvvatlash qay darajada?
3. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiyaga qarshi kurashda o‘rni qay darajada muhim?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining asosiy vazifasi va yo‘nalishlari nimalardan iborat.
6. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar va ularni oldini olish chora-tadbirlari.

---

<sup>51</sup> Коруупцияга қарши курашиш бўйича комиссия йиғилиши бўлиб ўтди. 30.12.2017// <http://www.Prokuratura.uz/uz/page/news/sahdhsagdhsagd7673826378687/>.

7. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G'afur G'ulom. 2017.
2. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t. 7. Utamuradov A, Qirg'izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O'quv qo'llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so'z. 2018. 395 bet.
8. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

### **2–amaliy mashg'ulot: O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida inson huquqlarining ta'minlash – korrupsiyaga qarshi kurashning omili. (2 soat)**

#### ***REJA:***

1. Insonning qadr-qimmati, uning shaxsiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari.
2. Inson huquqlari jahon sivilizasiyasining umum e'tirof etilgan qadriyati sifatida.
3. Inson huquqlarining rivojlanish dinamikasi.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillar va ularni oldini olish choratadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi ko'p sohalar kabi, O'zbekistonning huquq fani sohasida ham ko'plab yangi tarmoqlarni vujudga kelishiga va ularni rivojlanishiga imkoniyatlarni yaratib berdi. Chunki, masalan, ushbu inson huquqlari o'quv kursini olib qaraylik, ushbu kurs 90 yillargacha ilg'or g'arb mamlakatlarida o'quv yurtlarning engi asosiy predmetlaridan hisoblangani holda, sovet tuzumi o'quv yurtlarida esa, huquqshunoslikning bunday predmeti borligi to'g'risida mutaxassislar ham bilmas edi. Chunki, Sovet tuzumi inson huquqlari butunlay inkor etar edi.

Sovet mafkurasiga ko'ra, inson huquqlari qo'pol va sistematik ravishda buziladigan ushbu davlatda, davlat tomonidan inson huquqlari buzilishi holatlari umuman inkor etilib keongan va alohida individlarni huquqlari va maanfaatlari davlat manfaatlaridan keyingi o'rinlardar, kerak bo'lsa, eng oirgi o'rinda turgan. Birinchi o'rinda davlat, keyin esa jamiyat va eng oxirida shahs manfaati turar edi. Davlat manfaat yo'lida jamiyat va shahs manfaatlari poymol etilishi qonuniy hisoblangan va uning uchun ham tabiiy huquqlar degan tushunchalar umuman inkor etilib kelingan.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyinoq, inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida qaray boshladi. Bunga, 1991 yilning 30 sentabrida Inson huquqlari butunjahon Deklarasiyasi O'zbekistonning a'zo bo'lishininng o'ziyoq yaqqol misol bo'la oladi. Chunki, ushbu yosh davlat mustaqilligining birinchi kunlaridanoq o'z oldiga, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishni maqsad qilib qo'ygan va bu yo'lda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilib kelingan umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tan olingan edi.

Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shahslar tomonidan muayyan shahslarning qonuniy huquq va erkinliklarini buzilishi tushuniladi. Bunday buzilishlar, mavjud qonunlarga rioya qioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor ahslar tmoonidan to'sqilik qilish, yoki bo'lmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlariga zid holda qonunlar, yoki qoun osti hujjatlarini chiqarishlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. YA'ni davlat u yoki bu majburiy xalqaro hujjatni imzolash orqali inson huquqlariga oid xalqaro andozalarni bajarishni o'z zimmalariga oladilar, ammo mamlkatda ushbu hujjatlar yetarli ravishda implementasiya qilinmaydi. Uning normalari milliy qonunchilikka qo'llanilmaydi.

Mansabdor shahslar, ayniqsa, huquqni muxofaza qilish organlari vakillari odil sudlovni yoki huquqni qo'llashni amalga oshirish vaqtida o'z vazialarini su'istemol qiladilar, yoki o'z vakolat doiralarida chetga chiqailar va oqibatda muayyan shahslar yoki shahslar guruhining huquqlari va erkinliklarini poymol etadilar.

«Inson huquqlari» maxsus o'quv kursi hususida fikr yuritganimizda, ushbu fanning predmeti tushunchasini bilib olishimiz kerak. Ushbu kursning predmeti – shu fan o'rganadigan masalalar doirasini tashkil etib, bu doiraga quyidagi masalalar kiradi: inson huquqlari va erkinliklari, ularning tarixiy rivojlanish qonuniyatlari, turli

davlatlarning milliy qonunchiligiga implimentasiya (qo'llash) usullari, inson huquqlari va erkinliklari kafolatining universal mexanizmlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklariga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va boshqa omillar.

«Inson huquqlari» kursining maqsadi – inson huquqlari va erkinliklari muammolarini, ularning turli xilligidan kelib chiqqan holda o'rganish hisoblanadi.

Kursning asosiy vazifalari:

Birinchidan, fuqarolarning inson huquqlari to'g'risidagi bilimlar bilan tanishtirish;

Ikkinchidan, fuqarolarda insonlarga, ularning huquqlari, sha'ni va qadr-qimmatiga nisbatan hurmat hissini oshirish:

Uchinchidan, fuqarolarda o'z huquq va erkinliklarini har qanday qonunbuzarliklar va boshboshdoqlikdan himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishiga ko'maklashish;

Va to'rtinchidan, pirovard natijada jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yanada ko'tarishga ko'maklashishdan iborat.

Inson huquqlari o'quv kursini o'rganish metodologiyasi.

Metodologiya deganda, obektiv-haqiqiy bilimlarni olish jarayonida qo'llaniladigan usullar, qoidalar va yo'llarning majmui tushuniladi. Bunda universal va hususiy metodlar farqlanadi. Universal usullar asosida tabiat, tafakkur va jamiyatning umumiyroq bo'lgan qonuniyatlari yotadi. Shu bilan birga inson huquqlari va erkinliklarini o'rganish jarayonida hususiy usullar ham qo'llanilib, ularga quyidagilar kiradi: sistemali, tarixiy, qiyosiy, sosiologik, mantiqiy usullar.

Sistemali usulda inson huquqlari va erkinliklari muammolari shahsiy huquq va erkinliklari o'zaro bog'liq holda yagona butun sifatida o'rganiladi.

Qiyosiy usulda tushunchalar, holatlar ular o'rtasidagi umumiy tomonlar va farqlarni solishtirish asosida o'rganiladi.

Tarixiy usulda inson huquqlari tarixiy taraqqiyot rivojlanishida o'rganiladi.

Sosiologik usulda axborotlar yig'iladi va taxlil etiladi. Bularning birinchisiga, turli shakldagi so'rovlar kiradi (ommaviy anketa so'rovlari, intervyu, ekspert so'rovlari va boshqalar).

Mantiqiy usulda inson huquqlari va erkinliklari muammolarini mantiqiy o'rganishning vositalari va usullari tushuniladi.

### **Sharq mutafakkirlari ta'limotlari inson huquqlari g'oyasi.**

Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Beruniylar ham inson huquqlari masalasini chetlab o'tmaganlar. Somoniylar davrida amalda bo'lgan tartibqoidalar, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bu mutafakkirlarning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan. Ular o'z asarlarida bu davrga baho berish bilan birga, qimmatli

g'oyalarni ilgari surganlar, inson huquqlari va ularni himoya qilish to'g'risida ham o'z fikrlarini yozib qoldirganlar.

Inson huquqlari g'oyasi diniy va huquqiy asarlardagina emas, falsafiy tafakkurning eng sara mevalarida ham o'z aksini topgan. Markaziy Osiyoning eng yirik mutafakkirlaridan biri Abu Nasr Forobiy (873-950) o'zining «Fozil odamlar shahri» degan asarida aytgan, fozil shahar hukmdori «shahar uchun dastlabki imomlar tomonidan joriy etilgan qonunlar, qoidalar va rasm-rusmlarni biladigan, yodda tutadigan va o'z ishlari, harakatlarida ularga rioya etadigan» bo'lmog'i lozim<sup>52</sup>. Boshqacha qilib aytganda, fozil shaharda inson huquqlarini amalga oshirishning eng asosiy omili bo'lgan qonun ustunligiga rioya etilmog'i lozim. Yer yuzida baxt-saodatga erishuvning shartlaridan biri ham shu. «Agar xalqlar baxtsaodatga erishish uchun bir-birlariga yordam beradigan bo'lsalar, butun kurrai zamin fozil va oqil bo'lib qoladi»<sup>53</sup>, - deb yozgan Forobiy insonparvarlik sohasida, muruvvatpeshalikda, shu jumladan inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini oldindan ko'rgandek. Forobiyning «Fozil odamlar shahri» jamoasi haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bina bog'lanib ketgan. Komil inson jamiyatning teng huquqli, erkin fuqarosi bo'lishi lozimligi, jamoa uning huquqlarini hurmat qilishi, kishilarning tinch va osoyishta xayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlab berishi haqidagi fikrlar asarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Garchi, bu masala xayoliy tarzda tasvirlangan bo'lsa-da, biroq unda insonga g'amho'rlik qilish, uning xaq-huquqlarini himoya qilish zarurligi g'oyalari ilgari surilganligining o'zi muhim ahamiyatga egadir.

### **Islom ta'limotlarida inson huquqlari g'oyasi.**

Musulmon huquqi o'z zaminida normativ tizim sifatida VII-X asrlarda arab xalifaligida feodal jamiyat qaror topayotgan bir davrda shakllangan bo'lib, islom diniga asoslangandir<sup>54</sup>. Islom mavjud huquq Alloh tomonidan yuborilganligiga asoslanadi. Sarvari koinot tarixning muayyan bir davrida bashariyatga o'zining rasuli – Muhammad payg'ambar (taxminan 570 – 632 yillar) orqali islom ta'limotini ayon etdi. Alloh tomonidan in'om etilgan huquq insoniyatga bir yo'la va abadul abad berilgan. Shu bois jamiyat bu huquqqa amal qilmog'i, binobarin muttasil o'zgarib turuvchi hayotning ijtimoiy sharoitlari ostida o'z huquqini yaratishga urinmasligi lozim. To'g'ri, musulmon huquqi nazariyasi ilohiy kashfiyot tushuntirish va sharhlashga muhtoj ekanligini e'tirof etadi. Musulmon huquqshunoslarining necha asrlik sermashaqqat ishlari ayni ana shunga, ya'ni tushuntirish va sharhlashga

---

<sup>52</sup> Фараби. Трактат о взглядах жителей добродетельного города/Пер. А.В.Сагадеева//Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. М., 1960. С.165

<sup>53</sup> Там же. С. 157

<sup>54</sup> Human Rights in Islam. Kuwait University, 1982

ketgan. Biroq ularning bu say-harakatlari yangi huquq yaratishga emas, balki Alloh tomonidan nozil bo'lgan huquqni faqatgina amaliy jihatdan foydalanishga moslashtirishga qaratilgan, xolos.

Musulmon huquqida Rimning keyingi davriga oid huquqdagi, qolaversa G'arb huquqiga xos qonun tushunchasi yo'q. Nazariy jihatdan yolg'iz Alloh qonunchilik hokimiyatiga ega. Amalda esa huquqshunos olimlarning asarlari musulmon huquqining birdan-bir manbaidir. Musulmon huquqi xususiy mutaxassislar tomonidan yaratilgan va rivojlantirilgan. Davlat emas, balki fiqh – huquq ilmi qonun chiqaruvchilik rolini o'ynaydi<sup>55</sup>. Huquq muayyan normalarning majmui sifatida islom amal qila boshlagan dastlabki ikki asr mobaynida shakllandi. Keyingi asrlar amalda bu borada hech bir yangilik kiritmagan. Ana shu turg'unlikni ijtihod eshiklarini yopilishiga bog'laydilar. XIX asrga qadar musulmon huquqiy ongining tadrijiy rivoji diniy-huquqiy sharhlar hamda fatvolar majmuida o'z ifodasini topgan. Bu sharh va fatvolar esa shariatning an'anaviy qoidalari va prinsiplarini yangicha tarzda talqin etar ekanlar, hech qachon ularni ochiqdan-ochiq rad etmaganlar va ularning odatiy jarangini o'zgartirmaganlar<sup>56</sup>.

Islom nasroniylik kabi ruh abadiyligi g'oyasiga e'tiqod qiladi. Unda bani bashar Odam Atoning teng huquqli farzandlari sifatida qaraladi. Musulmonlar o'z qalamravlaridagi kofirlarga, bedinlarga hamisha sabrmurosa bilan munosabatda bo'lish, bag'rikenglik fazilatini namoyon etib kelganlar. Nomusulmon jamoalarga odatda o'z ichki ishlarini boshqarish huquqi berilgan.

Arablarning islomgacha bo'lgan urf-odatlar va udumlariga nisbatan islomda qashshoqlar, yetim-yesirlar va ayollarga munosabatda anchagina ilg'or tamoyillar ko'zga tashlanadi. Garchi quldorlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, qullarga yuridik huquqlar berilgan, ular xususan ishlab topgan mablag'lari asosida haq to'lab ozod bo'lish huquqini olganlar. Majburiy tusda bo'lmasa ham, har qalay qullarning ozod qilinishi din sharofati bilan sodir bo'ladigan harakat sifatida qo'llab-quvvatlab kelingan. Ilgari keng tarqalgan qiz bolalarni go'dakligidayoq nobud etish, yo'q qilishdek vahshiy odat taqiqlangan. Qotillik uchun shaxsiy o'ch olganlik yoki boshqa jinoiy qilmishlar yuzasidan javobgarlik kuchaytirilgan. Odil sudlov din peshvolari tomonidan Qur'on oyatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirilgan. Muqaddas kitob – Qur'onda er-xotin ajralishi to'g'risidagi normalar, nikoh bekor bo'lishi oqibati bolalar uchun keltirib chiqaradigan qoidalar ham qamrab olingan.

Shu sababli, E.Meyer ta'kidlab aytganidek, «islom tafakkur olami inson huquqlarining rivojlangan nazariyasiga ega bo'lmaganligi fakti musulmon dunyosining an'anaviy jamiyatlarida davlat repressiv namunada tuzilganligini

---

<sup>55</sup> Schacht J. Introduction to Islamic law. Oxford, 1966. P.5. Мұфассалроқ билиш учун қаранг: Сюкияйнен Л.Р. Доктрина как источник мусульманского права//Источники права. М., 1985. С.65-83.

<sup>56</sup> Хайдарова М.С. Основные направления и школы мусульманского права //Мусульманское право. М., 1984. С.47. <sup>61</sup> Қаранг: Mayer A.E. The Dilemmas of Islamic Identity//Human Rights and the World's Religions. Ed. By L.S.

Rouner (Boston University studies in philosophy and religion. Notre Dame, 1988. P.94-95

anglatmaydi; aksincha tarixan bunday jamiyatlarda ijtimoiy va madaniy masalalarga hukmdorlarning aralashmasligidek umumiy namuna mavjud bo'lgan. O'tmishda qaror topgan an'analar, urug'aymoq va jamoalar singari nohukumat institutlar shaxs erkinligiga ta'sir etuvchi omillar sifatida hukmdorlarga nisbatan muhimroq rol o'ynagan. Davlat bilan shaxs huquqlari o'rtasida muttasil nizo va mojarolar keltirib chiqaradigan yoki islom mutafakkirlarini bunday erkinliklarni hukmdorlar egallab olishidan himoya etish bilan, inson huquqlarining hozirgi normalari rivoji zamirida yotgan tashvish-anduhlar bilan bog'liq masalalar ustida ish olib borishga undaydigan shart-sharoitlarning o'zi yo'q edi»<sup>61</sup>.

Imom Buxoriy, At-Termiziy, Axmad Yassaviy, Abul-Qosim Zamaxshariy singari xadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandalari inson huquqlari va uning ijtimoiy mohiyatini Qur'oni Karim va Xadisi Shariflarda kuyilgan islom xamda shariat talablari asosida ko'rsatib berishga harakat qilganlar. Islomning bu muqaddas manbalarida insonning takdiri va xayoti Olloh nomi bilan bog'lik holda ifodalab beriladi. Bunda yer yuzidagi barcha insonlarning Olloh oldidagi tengligi g'oyasi, har bir insonga Olloh tomonidan berilgan ne'matlardan ularning baravar foydalanishi zarurligi g'oyasi bilan chambarchas bog'lanib ketganini ko'ramiz<sup>57</sup>.

Kur'oni Karim va Xadisi Shariflarda insonning Olloh va shariatdagi xaq-huquqlari inson foydalanishi zarur bo'lgan alohidaalohida huquqlar misolida ko'rsatib berilgan. Masalan, "Kur'oni Karim"ning "Baqara surasi"dagi 223, 228-229, 230-oyatlarida erkak va ayolning nikohga kirish yoki nikohdan chiqish huquqi, "Ol-i imron surasi"ning 20-oyatida islom diniga e'tiqod qilish huquqi va insonning boshqa huquqlari shariat talablari asosida bayon qilingan.

Inson huquqlarini shariat talablari asosida ko'rsatib berishga doir bunday yondashish xadislarda ham o'zining aniq, ifodasini topgan. Har bir xadisda jamiyat xayotining alohida bir masalasiga doir talablar ilgari surilganligi uchun xam, ularda insonning xilma-xil xaq-huquqlari ularning alohida huquqdari misolida bayon qilib beriladi. Masalan, Imom Buxoriyning "Al-adab, al-mufrad" (Adab durdonalari) asarida ota-ona xaqini ado qilish, farzandning ota-onasi oldidagi va ota-onaning farzandi oldidagi xaq-huquqlari, ziyorat qilish, turar joyga ega bo'lish va boshqa shular singari xaq-huquqlarning har biri alohida xadislarda berilganki, bunday xolni xadislarda to'g'risida yozilgan har bir asarda uchratish mumkin.

Turli masalalardagi singari, inson huquqlari masalasiga doir xadislarda xam inson huquqlari masalasi uning xaq-huquqlari misolida beriladi. Bunda insonning kimningdir oldidagi xaqi (Ollohning, uning rasuli Muxammad Payg'ambarning yoki jamiyatning) uning huquqi ekanligini ham anglatadi.

Masalan, bordi-yu, bir kishi ikkinchi bir kishidan biror narsa bilan qarzdor bo'lib qolgan bo'lsa, bu qarzni qaytarib olish shariatda ikkinchi kishining huquqi xisoblanadi va shu ikkinchi kishi o'zining qarzini qaytarib olish hukuqidan

---

<sup>57</sup> Инсон ҳуқуқлари. Ўқув қўлланма. Х.Бобоев таҳрири остида. Т.: Ўзбекистон. 1997. Б. 44

foydalanishi mumkin bo‘ladi. Qarz olgan kishining uni qaytarib berishi esa uning huquqi xisoblanmaydi. Shunga ko‘ra islomda va uning manbalarida insonning huquqlari uning xaqi misolida berilganligini ko‘ramiz. Jumladan, Imom Buxoriy farzandlar ota-onalarini rozi qilish huquqiga ega ekanligini quyidagi bir xadida shunday bayon qiladi: “Kim ota-onasini rozi qilsa, unga tubo (jannat) nasib bo‘lib, Oллоh Taolo uning umrini ham ziyoda kiladi”<sup>58</sup>. Bunda farzandning ota-onasini rozi qilishi kerakligi Oллоh nomi bilan har bir insonning u foydalanishi mumkin bulgan huquqi ekanligi nazarda tutilgan.

### ***Inson Huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Bill***

*Inson Huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Bill* inson huquqlarini himoya qilish borasida qabul qilingan eng asosiy hujjatlar majmui bo‘lib, u bu sohada keyinchalik qabul qilingan barcha hujjatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Inson Huquqlari to‘g‘risidagi Xalqaro Bill o‘z ichiga inson huquqlari sohasidagi asosiy hujjatlarini birlashtirgan. Bu xalqaro hujjatlar quyidagilardan iboratdir:

1. *Inson Huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi (1948 yil);*

2. *Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi*

*Xalqaro Pakt (1966 yil);*

3. *Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt hamda unga ilova qilingan I Fakultativ Bayonnoma (1966 yil) va o‘lim jazosini bekor qilishga qaratilgan II Fakultativ Bayonnoma (1989 yil). Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasini ishlab chiqilishi.*

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yilning 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini belgilovchi dastlabki muhim tarixiy hujjat hisoblanadi.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi mazkur hujjat qabul qilinishidan oldin bu sohada muhim ishlar amalga oshirilgan edi. BMTning tashkil topishi va uning Nizomini qabul qilinishi inson huquqlari sohasidagi davlatlararo munosabatlarni yangi sifatli darajaga ko‘tardi. BMT Nizomi xalqaro munosabatlar tarixida inson huquqlari bo‘yicha davlatlarning keng hamkorligiga asos solgan birinchi ko‘p tomonlama shartnoma bo‘ldi. Ammo BMT Ustavini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan davlatlar turli yondashuvda ekanliklari namoyon bo‘lib qoldi.

1946 yilda BMTning Inson Huquqlari bo‘yicha Komissiyasi tashkil etilishi. Komissiya faoliyati, 1947-1948 yillar. Deklarasiya loyihasi bo‘yicha ishchi guruh.

1948 yili 10 dekabrda Deklarasiyaning qabul qilinishidagi tortishuv va qabul qilinishi.

Deklarasiyaga asos bo‘lgan hujjatlar.

Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining tuzilish va mazmuni.

Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi Muqaddima va 30 moddadan iborat bo‘lib, unda insonning asosiy huquqlari, qadr-qimmat, inson shaxsining benazirligi hamda erkaklar bilayen ayollarning teng huquqligi o‘z ifodasini topgan.

---

<sup>58</sup> Имом Исмоил ал-Бухорий, Ал-адаб ал-Муфрад (Адаб дурдоналари). Т., Ўзбекистан, 1990. б.20



Deklarasiyaning 1-moddasida huquqiy jihatdan asoslangan falsafiy fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda “Barcha odamlar erkin, qadr-qimmat va huquqlarda teng bo‘lib tug‘iladilar. Ular aql va vijdon sohibidirlar va bir-birlariga birodarlarcha muomala qilishlari zarur” deyilgan.

#### **Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro Paktlar va ularning ahamiyati.**

Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi qabul qilinganidan so‘ng BMTga a‘zo davlatlar tasdiqlashi zarur bo‘lgan inson huquqlari to‘g‘risidagi Paktning sharnomaviy shaklini ishlab chiqishga kirishildi.

Paktlar deyarli 16 yilda ishlab chiqildi va qabul qilindi. 1950 yilda BMT Bosh Assambleyasi o‘zining Rezolyusiyasida fuqarolik va siyosiy huquqlardan foydalanish shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy huquqlarga hamda madaniyat sohasidagi huquqlarga ega bo‘lish o‘zaro bog‘liq va birbirini taqozo etuvchi huquqlar ekanligini e‘lon qildi. 1951 yilda Komissiya maxsus muassasala fikrlari va hukumatlar takliflari asosida iqtisodiy, ijtimoiy huquqlar to‘g‘risida 14ta moddani tuzdi. U shuningdek bu huquqlarni amalga oshirish yuzasidan chora ko‘rish to‘g‘risidagi 10 ta moddani shakllantirdi. Shunga muvofiq Paktning ishtirokchi davlatlari bu masala bo‘yicha o‘zlarining ijodiy ma‘ruzalarini topshirishlari lozimligi qayd qilindi. 1951 yilda uzoq davom etgan muzokaralardan so‘ng Bosh Assambleya komissiyaga inson huquqlari to‘g‘risidagi ikkita Paktning loyihasini ishlab chiqishni va ulardan birida fuqarolik va siyosiy huquqlar, boshqasida esa, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlar yoritilishi lozimligini topshirdi. 1966 yilda oldindan belgilangan bitta Pakt o‘rniga ikkita xalqaro Pakt ishlab chiqildi; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakt hamda fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt. Bundan tashqari, fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Paktga Fakultativ protokol ham qo‘shimcha ravishda ishlab chiqilib, unda alohida shaxslarning paktda ifodalangan huquqlarining buzilishiga doir xabarlari ko‘rib chiqilishi o‘z ifodasini topishi zarurligi qayd etildi.

#### **Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro institutlar**

***Birlashgan Millatlar Tashkiloti.*** BMT Ustavining muqaddimasida Birlashgan Millatlar xalqlari «kelajak avlodlarni... urush kulfatlaridan halos etishga va insonning asosiy huquqlariga... ishonchni qayta qaror toptirishga, ijtimoiy taraqqiyot va keng ozodlik sharoitida turmushni yaxshilashga yordam berishga» qat‘iy ahd qilganliklari aytiladi. Ustavning 1-moddasiga muvofiq BMTning maqsadlaridan biri irqi, jinsi, tili va dinidan qat‘i nazar hamma uchun inson huquqlari va asosiy erkinliklarga bo‘lgan hurmat-ehtiromni rag‘batlantirish hamda rivojlantirishda xalqaro hamkorlik amalga oshirilishiga erishishdan iboratdir.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganidan buyon o'tgan yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida BMT o'z Ustavida inson huquqlari sohasida nazarda tutilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan yaxlit va ko'lamdor strategiya ishlab chiqqan. Bu strategiyaning asosi inson huquqlariga oid xalqaro normalar va standartlar majmui bo'lib, hozirgi vaqtda inson faoliyatida ular qamrab olmagan sohaning o'zi yo'q.

Ana shu puxta xalqaro-huquqiy negiz asosida huquqni muhofaza etishning xalqaro standartlarni yanada rivojlantirishga hamda ularning amalga oshirilishi, ularga rioya etilishi ustidan nazorat olib borishga, shuningdek inson huquqlarini buzish hollarini tekshirishga ko'maklashadigan mexanizmlarining g'oyat keng tarmog'i barpo etilgan. Mazkur strategiya ijtimoiy informatsiya va texnik hamkorlik dasturi sohasidagi faoliyatning turfa xil turlari bilan mustahkamlangan bo'lib, bunday faoliyatdan ko'zlangan maqsad zamirida ularning inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etishga qaratilgan kuch-g'ayratlari davlatlar tomonidan amaliy tarzda qo'llab-quvvatlanishiga erishishdek ezgu ishlar yotadi.

Bu xil tuzilmalar va faoliyat turlari BMTga inson huquqlari va asosiy erkinliklar uchun kurash yo'lida norma yaratish va rahbarlik qilish borasida yetakchilik rolini ta'minlaydi. Qolaversa, inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish vazifasi muayyan bir tashkilot zimmaga olishi bilan bajariladigan yoki shunday tashkilot o'z zimmasiga oldi deya kifoyalansa bo'ladigan vazifalar toifasiga kirmaydi. BMTning inson huquqlari sohasidagi amaliy faoliyatida inson huquqlarini yalpi hurmatlash har bir mamlakatning, har bir fuqaroning yoki alohida olingan har bir guruh va jamiyatdagi har bir tashkilotning birgalikdagi sayharakatlarini talab etadi degan asosiy g'oyaga asoslaniladi.

***Mintaqaviy institutlar.*** Xalqaro tizim inson huquqlarini himoya qilish sohasida mintaqaviy institutlar, xususan Afrika, Amerika va Yevropada faoliyat ko'rsatib turgan tuzilmalarga o'xshash mintaqaviy tuzilmalarning qo'llab-quvvatlashiga tayanishi tabiiy. Bunday tuzilmalar tegishli mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy, tarixiy va siyosiy sharoitlari bilan bog'liq inson huquqlari sohasidagi muammolarni hal etishga yordam beradigan vositalarni ta'min etish orqali xalqaro normalar va mexanizmlarni mustahkamlash ishida qo'shimcha, ammo muhim vazifani ado etadi.

***Nohukumat tashkilotlar.*** Inson huquqlari borasidagi umumjahon madaniyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynayotgan tegishli nohukumat tashkilotlar inson huquqlari sohasidagi xalqaro normalarni amalga oshirishda qo'shimcha madad bo'lib turibdi. Nohukumat tashkilotlar o'z xususiyatiga ko'ra fikrlarni ifoda etish erkinligiga, harakatlarning moslashuvchanligiga hamda erkin harakat qilish imkoniyatiga ega bo'lib, muayyan sharoitda bu hol ularga hukumatlar va hukumatlararo tashkilotlar hal etishga qodir bo'lmagan yoki, ehtimol hal etishga urinib ham ko'rmaydigan vazifalarning yechimini topish imkonini beradi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi g'oyalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy harakatga hamma va har kim qo'shilishi mumkin.

Bu kampaniya ko‘pincha ana shu ezgu ish yo‘lida o‘z hayotlarini xavf ostida qoldiradigan ming-minglab faollarning va fuqarolar guruhlarining madadi hamda qo‘llab-quvvatlashiga tayanadi.

Inson huquqlarini himoya qilish ishida qatnashayotgan odamlar soni to‘xtovsiz ortib borayotganligi shunday muhit yuzaga kelishiga yordam bermoqdaki, bunda insonning erkinligi hamda qadr-qimmatini kutilgan va istalgan natijalar beradi.

Nohukumat tashkilotlar 1945 yildan e‘tiboran BMT faoliyatiga va inson huquqlarini himoya qilish ishiga barakali hissa qo‘shib kelmoqdalar. Ular axborot manbai vazifasini o‘tamoqda hamda katta-katta o‘zgarishlarga erishishga qodir bo‘lgan kuch sifatida javlon urmoqda.

***Inson huquqlarini milliy darajada himoya qilish.*** Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ko‘pgina mamlakatlar inson huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnomalarning ishtirokchisi bo‘lib qoldilar. Bu hujjatlar inson huquqlari sohasidagi normalarni amalga oshirish yuzasidan huquqiy majburiyatlar yuklaganligi bois mazkur sohaga oid normalar xalqaro ko‘lamda amalga oshiriladigan majburiyatlar darajasiga ko‘tarildi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar ayrim shaxslarning o‘zaro munosabatlarini hamda muayyan shaxslar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Shu sababli inson huquqlarini himoya etish va rag‘batlantirish eng avvalo davlatning ichki vazifasi bo‘lib, uning bajarilishi uchun javobgarlik har bir davlat zimmasiga tushadi.

Inson huquqlarini milliy ko‘lamda himoya qilish tegishli qonun hujjatlari yordamida, mustaqil sud hokimiyati orqali, himoya vositalarining yakka tartibdagi kafolatlarini qonunchilik yo‘li bilan rasmiylashtirish va amaliyotga tatbiq etish, shuningdek demokratik institutlar tashkil etish yo‘li bilan ta‘minlanadi. Bundan tashqari milliy va mahalliy ko‘lamda ishlab chiqilib amalga oshiriladigan, mahalliy sharoitlar hamda an‘analar inobatga olinadigan kampaniyalar ham borki, ular ma‘rifiy va axborot xususiyatga ega bo‘lgan samarali tadbirlar tariqasida tan olingan.

Inson huquqlari milliy ko‘lamda himoya etilishini samarali tarzda amalga oshirish muammosi jahonda, ayniqsa XXI asr boshida katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda boshqaruvning demokratik shakli paydo bo‘lganligi yoki tiklanganligi inson huquqlari o‘zagini tashkil etuvchi huquqiy va siyosiy asoslarni ta‘minlashda demokratik institutlar o‘ynaydigan rolning ahamiyati katta ekanligidan dalolat bermoqda.

Shunday qilib, inson huquqlarini samarali tarzda amalga oshirish eng avvalo bu huquqlarni rag‘batlantirish va himoya etish uchun milliy infratuzilmalar yaratishni taqozo etishi aniq-ravshan ko‘rinib turgan faktga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda jahonning ko‘pgina mamlakatlarida zimmasiga inson huquqlarini himoya etish bilan bog‘liq aniq vazifalar yuklatilgan muassasalar tashkil etildi. Garchi bunday muassasalarning vazifalari har bir mamlakatda o‘ziga xos bo‘lib, birbiridan farq qilsa-da, ularning hammasi bitta mushtarak maqsadga erishishni ko‘zlaydi. Shu

sababli ham ular inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya etish bilan shug'ullanuvchi milliy institutlar deb yuritiladi.

***Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro sud.*** 1998 yilning iyunida Rimda Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro sudni ta'ris etishga bag'ishlab konferensiya o'tkazildi. Bu sud inson huquqlarini xalqaro ko'lamda himoya etishning shakllanib borayotgan tizimida muhim bo'g'in bo'lib qoladi deb katta umid bildirdilar.

Insoniyatga qarshi jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish va jazolash uchun Jinoyat ishlari bo'yicha xalqaro sudni tashkil etish taklifini amalga oshirish yo'lida BMT qariyb yarim asr harakat qildi. Ana shu vaqt mobaynida sobiq Yugoslaviyada, shuningdek Ruandada sodir etilgan harbiy jinoyatlarni hukm qilish uchun ikkita maxsus jinoyat tribunallari tuzildi, xolos.

### **Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha organlari**

***Bosh Assambleya.*** BMT Ustavining 13-moddasiga muvofiq Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridan biri «iqtisodiyot, ijtimoiyot, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalaridagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish, inson huquqlarini va barchaning asosiy erkinliklarini irqi, jinsi, tili va dinini ajratmagan holda amalga oshirishga ko'maklashish» maqsadida o'rganish va tadqiq etish ishlarini uyushtirish hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. BMT Bosh Assambleyasi inson huquqlariga taalluqli masalalarning kattagina qismini ko'rib chiqish va muhokama etishda ixtiyorni Bosh Assambleyaning ijtimoiy, gumanitar va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi Uchinchi qo'mitasiga o'tkazishni lozim topgan.

***Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash.*** BMT Ustavining 62-moddasiga binoan Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash inson huquqlari va barchaning asosiy erkinliklari hurmat qilinishi hamda ularga rioya etilishini rag'batlantirish maqsadida tavsiyalar berishi mumkin. Mazkur Kengash Bosh Assambleyaga taqdim etish uchun konvensiyalarning loyihalarini tayyorlashi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro konferensiyalar chaqirishi mumkin. BMT Ustavining 68-moddasiga muvofiq Kengash «iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda hamda inson huquqlarini rag'batlantirish bo'yicha komissiyalar tuzadi». Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash inson huquqlari masalalarida yordam ko'rsatishni ko'zlab Inson huquqlari Komissiyasi, Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Komissiya, Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita ta'ris etgan.

***BMTning Inson huquqlari komissiyasi*** Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan 1946 yilda ta'ris etilgan bo'lib, 56 ta a'zo davlat vakillaridan tashkil topgan. Komissiya o'z sessiyasini har yili olti hafta mobaynida o'tkazadi. Komissiya o'rganish va tadqiq etish ishlarini olib boradi, inson huquqlari bo'yicha tavsiyalarni

hamda xalqaro hujjatlarning loyihalarini tayyorlaydi, shuningdek BMT Bosh Assambleyasi hamda Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashning maxsus topshiriqlarini bajaradi.

Inson huquqlari Komissiyasi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash hamda BMT Bosh Assambleyasi o'zlarining har yilgi sessiyalarida inson huquqlarini qo'pol tarzda va muntazam ravishda buzish hollari bilan bog'liq voqealar va amaliyotni muhokama etib boradilar. Agar muayyan bir mamlakatdagi yoki muayyan bir amaliyotdagi ahvol tashvish uyg'otayotgan bo'lsa, bu organlar mustaqil va xolis ekspertlar guruhi (ishchi guruhi) yoki alohida shaxs (maxsus ma'ruzachi) tomonidan bu borada tekshiruv o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Ana shu maxsus organlarga Inson huquqlari komissiyasi va BMT Bosh Assambleyasiga ma'ruzalar taqdim etish va tavsiyalar ishlab chiqishdan tashqari alohida shaxslar, guruhlar yoki jamoalarning huquqlari buzilgan taqdirda choralar ko'rish vakolati ham berilgan. Masalani darhol, sira kechiktirmay o'rganib chiqish va tekshirish talab etiladigan alohida hollarda maxsus ma'ruzachi yoki ishchi guruhi xavf tahdid solayotgan ayrim shaxsni, guruhni yoki jamoani muhofaza etish maqsadida tegishli hukumatlar bilan hatto bevosita uchrashishi va muloqotga kirishishi mumkin.

Janubiy Afrikada inson huquqlari bo'yicha maxsus ishchi guruhi (1967 yilda tuzilgan) ana shunday dastlabki organ bo'ldi. Mazkur guruh, shuningdek bosib olingan hududlarning aholisiga nisbatan Isroil harakatlarining inson huquqlariga taalluqli jihatini tekshirish bo'yicha maxsus qo'mita (1968 yilda tashkil etilgan) hozirga qadar faoliyat ko'rsatib turibdi.

Komissiya ta'sis etgan boshqa ba'zi maxsus organlarning faoliyati, o'sha mamlakatlarning inson huquqlari sohasidagi ishlarida ahvol yaxshilangach, tugatildi. 1993 yilda, masalan, Afg'oniston, Gaiti, Iroq, Eron, Kuba, Salvador, Sudan, Ekvatorial Gvineyada hamda Sobiq Yugoslaviya hududida inson huquqlari sohasidagi ahvolni o'rganish va nazorat qilib borish uchun maxsus ma'ruzachilar bo'lgan.

1980 yildan keyin Inson huquqlari Komissiyasi inson huquqlarini qo'pol tarzda buzish bilan bog'liq amaliyotni butun jahon miqyosida o'rganish hamda shu munosabat bilan tegishli choralar ko'rish maqsadida bir nechta maxsus organlar ta'sis etgan. Bu organlarga, ta'bir joiz bo'lsa, yo'nalish mavzuiga qarab vakolat berilgan edi. Hozirgi vaqtda shunday guruhlardan ikkitasi ishlab turibdi. Bularning birinchisi g'ayriixtiyoriy ravishda yoki zo'rlik ishlatish bilan g'oyib bo'lib qolishlar to'g'risidagi masala bilan va ikkinchisi o'zboshimchalik bilan ushlab turishlar to'g'risidagi masala bilan shug'ullanuvchi ishchi guruhidir.

Yo'nalish mavzuiga qarab ko'plab maxsus ma'ruzachilar tayinlangan bo'lib, quyidagi masalalar doirasi ularning o'rganish sohasi deb belgilangan edi:

- 1) suddan tashqari va o'zboshimchalik bilan hamda lozim darajada sud muhokamasi o'tkazmay turib qatl etishlar to'g'risidagi masalalar bo'yicha;
- 2) qiynoqlarga solishga hamda muomalada bo'lish va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni tahqirlovchi turlari bo'yicha;

- 3) bolalarni sotish, bolalar bilan bog'liq fohishabozlik va bolalar pornografiyasi bo'yicha;
- 4) mamlakat ichkarisida ko'chib yurgan shaxslar to'g'risidagi masala bo'yicha;
- 5) diniy murosasizlik bo'yicha;
- 6) irqchilik, irqiy kamsitish va ksenofobiya bo'yicha;
- 7) fikrlash va so'z erkinligi bo'yicha;
- 8) xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirishga qarshilik ko'rsatish vositasi sifatida yollangan kishilardan foydalanish bo'yicha.

Inson huquqlari Komissiyasi va BMT Bosh Assambleyasiga yuqorida zikr etib o'tilgan maxsus organlar tomonidan taqdim etiladigan ma'ruzalar ochiq sessiyalarda muhokama qilinadi hamda bu ma'ruzalar shu masalalar yuzasidan Inson huquqlari Komissiyasi qaror qabul qilishida asosiy omil bo'ladi.

Inson huquqlari Komissiyasi o'z ishini yanada samaraliroq amalga oshirish uchun 1947 yilda *Kamsitishlarning oldini olish va kam sonli millatlarni himoya etish bo'yicha kichik komissiya* ta'sis etgan. Bundan ko'zlangan maqsad o'rganish va tadqiq etish ishlarini Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini inobatga olgan holda olib borish hamda Inson huquqlari Komissiyasi uchun insonning huquqlari va asosiy erkinliklarga nisbatan har qanday shakldagi kamsitishlarning oldini olishga, shuningdek kam sonli millatlarni irqiy, milliy, diniy va til jihatidan himoya etishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

Kichik komissiya tarkibida 26 a'zo bo'lib, ular Inson huquqlari Komissiyasi tomonidan saylanadi va davlatlarning vakillari sifatida emas, balki shaxsiy fazilatlariga asoslangan holda ish ko'radi. Kichik komissiyaning har yilgi sessiyalari to'rt hafta davom etadi, bu anjumanlarda BMTga a'zo davlatlardan kuzatuvchilar hamda hukumatlararo tashkilotlarning, nohukumat tashkilotlarning, BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari va anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalardan manfaatdor milliy-ozodlik harakatlarining vakillari hozir bo'ladilar.

***Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Komissiya*** Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash tomonidan 1946 yilda ta'sis etilgan. Komissiyaning vazifalari doirasiga xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy, fuqaroviy, ijtimoiy sohalar va ta'lim sohasidagi huquqlarini rag'batlantirish to'g'risida Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashga tavsiyalar va ma'ruzalar tayyorlash, shuningdek erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqliligi prinsipini amalga oshirish maqsadida xotin-qizlar huquqlari sohasidagi eng muhim muammolar bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish to'g'risida tavsiyalar va takliflar tayyorlash vazifalari kiradi. Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha Komissiyaga xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha umumjahon konferensiyasida 1985 yilda qabul qilingan xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash sohasidagi istiqbolga mo'ljallangan Nayrobi strategiyasi amalga oshirilishini nazorat qilish, shu yo'nalishdagi ishlarning ahvoliga baho berib tahlil qilib borish vazifasi topshirildi. Xotin-qizlarning ahvoli bo'yicha komissiya xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlar

to'g'risida alohida shaxslardan ham, bir guruh shaxslardan ham olingan xabarlarni ko'rib chiqishi mumkin. Yakka tartibdagi shikoyatlar bo'yicha choralar ko'rilmaydi. Buning o'rniga mavjud muammolarni hal etish uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida xotin-qizlarni kamsitish sohasidagi tamoyillarni aniqlashga qaratilgan taomildan foydalanish bilan cheklanadilar.

**Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar boshqarmasi.** Turli organlar va muassasalarga xizmatlar ko'rsatish hamda har xil taomillar bilan bog'liq xizmatni keng yo'lga qo'yish vazifalari BMT Kotibiyati xodimlari zimmasida bo'ladi. Inson huquqlari bo'yicha kotibiyat BMTning Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari boshqarmasida, ya'ni Inson huquqlari bo'yicha sobiq markazda ish olib boradi.

Bu boshqarma Jenevada joylashgan bo'lib, aloqa uchun Nyu-Yorkda kichikroq byurosi, jahonning turli joylarida esa bir nechta muvaqqat vakolatxonalari bor. Hozirgi vaqtda mazkur boshqarmaning qarorgohida yuzdan ortiq mutaxassis, asosan xalqaro masalalar bo'yicha ixtisoslashgan yuristlar va siyosatshunoslar ishlamoqda.

Boshqarmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

**birinchidan**, Inson huquqlari komissiyasi va uning kichik komissiyasiga xizmatlar ko'rsatish; **ikkinchidan**, tekshirish, nazorat qilish va o'rganib tadqiq etish ishlarini o'tkazishning Bosh Assambleya tomonidan belgilangan turli taomillarini qo'llab-quvvatlash; **uchinchidan**, shartnomalar ijro etilishi ustidan nazorat qiluvchi

organlarga xizmatlar ko'rsatish; **to'rtinchidan**, inson huquqlari sohasi doirasidagi turli masalalar yuzasidan Inson huquqlari komissiyasi va kichik komissiya so'roviga binoan o'rganish va tadqiq etish ishlari olib borish; **beshinchidan**, inson huquqlariga oid normalarni milliy darajada singdirish sohasida davlatlarga texnik masalalarda yordam ko'rsatish dasturini amalga oshirish, shu jumladan mutaxassislarni o'qitish, yuridik yordam berish va axborot tarqatish.

Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar Boshqarma rahbari hisoblanadi.

**Inson huquqlari bo'yicha oliy komissar.** Inson huquqlari bo'yicha 1993 yilgi umumjahon konferensiyasi Bosh Assambleyaga BMTning Inson huquqlari bo'yicha oliy komissari lavozimini ta'xis etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni birinchi navbatdagi vazifa sifatida tavsiya etdi. Bosh Assambleya 1994 yilda qabul qilgan rezolyusiyaga muvofiq bunday lavozim ta'xis etildi va dastlabki Oliy komissarlik lavozimi ekvadorlik Xose Ayyala Lassoga nasib etdi. Bosh Assambleya bayonot berib aytdiki, Oliy komissar BMTning mansabdor shaxsi bo'lib, BMTning inson huquqlari sohasidagi faoliyati uchun asosiy javobgarlik yukini Bosh kotibning rahbarligi va rahnamoligi ostida tortadi. Oliy komissar o'z vazifasini bajarar ekan, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash hamda Inson huquqlari komissiyasining umumiy vakolatlari, vazifalari doirasida va qarorlari asosida ish olib boradi. Oliy komissar keng vakolatlarga ega bo'lib, bu vakolatlar unga amalda inson huquqlari sohasidagi har qanday muammoni ko'rib chiqish va inson huquqlarini buzish hollarining oldini olishga qaratilgan dunyo miqyosidagi

faoliyatda faol tarzda ishtirok etish imkonini beradi. Ayni bir vaqtda unga insonning barcha huquqlarini to'lato'kis amalga oshirish yo'lidagi hozirgi mavjud to'siqlarni bartaraf etish va shu yo'nalishdagi yangidan yangi vazifalarni hal etish ishida, qolaversa butun jahonda inson huquqlarini buzish hollari davom etishiga yo'l qo'ymaslik ishida yetakchi rol o'ynash imkoniyati berilgan. 1997 yilning oxirlarida BMT Bosh Assambleyasi Irlandiyaning sobiq Prezidenti Meri Robinsonni ikkinchi Oliy komissar sifatida tasdiqladi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va ularning inson huquqlarini himoya etishdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha Vakili.

Parlament huzuridagi Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Oliy Majlisning birinchi sessiyasida tashkil etildi va 1995 yil 6 mayda Oliy Majlis qaroriga binoan uning huzurida Vakilning inson huquqlari borasidagi vazifalarni namunali amalga oshirishiga ko'maklashish uchun fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlari va erkinliklariga rioya qilish Komissiyasi tashkil etildi. Vakil va Komissiya faoliyati Oliy Majlisning 1995 yil 29 avgust Qarori bilan tasdiqlangan Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi Nizom bilan tartibga solingan.

Inson huquqlari bo'yicha vakilning roli va mavqeini oshirish uchun Vakil haqidagi Qonun loyihasi ustida ish boshlanib, bunda Oliy Majlis qo'mitalari a'zolari, respublika huquqshunos olimlarigina emas, balki BMTni Rivojlanish Dasturi ekspertlari, jumladan janob Din Gotterer ham ishtirok etdi. Qonunning loyihasini tayyorlashda chet el ombudsman va mutaxassislari tajribasi hisobga olindi. Bunda ular 1996 yil sentabrda Toshkentda o'tkazilgan "Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar" YEXXT seminarining kengashida o'z taklif va mulohazalarini bildirdilar.

Inson huquqlari bo'yicha vakil haqidagi qonun loyihasi umumxalq muhokamasi uchun "Xalq so'zi", "Narodnoye slovo" gazetalarida 1997 yil 14 fevralda e'lon qilindi. 1997 yil 24 aprelida esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida " Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun parlament islohotlarini amalga oshirilishi munosabati Bilan 2004 yil 29 avgustda yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur qonun inson huquqlari bo'yicha Vakilning huquqiy holatini, faoliyat sohasi va tamoyillarini, shuningdek, lavozimga saylanish va ishdan bo'shatilish tartibini, fuqarolarning shikoyat va arizalarini ko'rib chiqishdagi vakolatlari hamda fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoyalashdagi huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi.<sup>59</sup>

---

<sup>59</sup> Саттаров А. Омбудсман – ҳуқуқ ҳимоячиси ( хорижий ва миллий тажриба ) Т., 2000 34-бет.



Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyatini olib borishda uning faoliyatini tartibga soluvchi Qonungagina emas, balki boshqa normativ huquqiy hujjatlarga ham asoslanadi. Bunday hujjatlar qatoriga Kotibiyat faoliyati to'g'risida Nizom, Vakil qoshidagi Inson huquqlari va erkinliklariga rioya etish Komissiyasi Reglamenti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risidagi Nizom kabilar kirib, bular Vakil faoliyatining barcha yo'nalishlarini batafsil belgilab beradi.

Vakil o'z vazifalarini bajarishda 1994 yil 6 maydagi "Fuqarolar murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1995 yil 30 avgustdagi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari hamda inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarga amal qiladi.

Bundan tashqari "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi 2003 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining Qonunining 23-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilini saylash tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili nomzodi Qonunchilik palatasi ko'rib chiqishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kiritiladi.

Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilini saylash masalasi yuzasidan qarori Senatga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining majlislarida ko'rib chiqilganidan keyin Ushbu masala yuzasidan qabul qilingan uzil-kesil qaror qonunda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

O'zbekistondagi Vakil keng huquqiy vakolatlarga ega bo'lib, uning faoliyati davlat va fuqaro, jamiyat va shaxsga oid ijtimoiy munosabatlarning muhim sohasini o'z ichiga oladi. Hozirgi zamon jamiyatining hayoti va faoliyatining Vakilga taaluqli bo'lmagan birorta sohasi yo'q, chunki inson va uning xaq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Vakilning asosiy diqqat obekti hisoblanadi.

Bir tomondan, Vakil zimmasiga tarbiyaviy va ma'rifiy funksiyalar yuklatilgan: u inson huquqlari bo'yicha boshqa milliy tizimlar qatori inson huquqlarini himoya qilish va ularga rioya qilish zaruratini yalpi tan oldirish va tushunishga keng ko'lamda ko'maklashadi, jamiyatga O'zbekiston qonunlari va xalqaro huquq normalarida mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlari, kafolatlari va burchlari haqida atroflicha axborot beradi.

Ikkinchi tomondan, Vakil fuqarolar huquqlarining beg'araz va insonparvar himoyachisidir6 u inson huquqlari buzilganligi to'g'risidagi shikoyatlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi, ayrim tashkilotlar va mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan xatoliklarni tugatish yuzasidan tadbirlar tavsiya qiladi, fuqarolar huquqlari

tiklanishiga yordamlashib, inson huquqlarining jiddiy buzilishiga sababchi shaxslarni qonunga binoan javobgarlikka tortish to'g'risida tavsiya qilishga ham haqlidir.

Uchinchi tomondan, Vakil faoliyati chuqur analitik ish bilan bog'liq: u mamlakatda inson huquqlariga qanday rioya qilinayotganligini o'rganishi va tahlil etishi, inson huquqlari buzilishini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlashi, O'zbekiston huquq normalarining shu sohadagi xalqaro shartnomalarga qanchalar muvofiqligini tekshirishi, inson huquqlariga amal qilishni ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqishi va boshqa tashkilotlar tayyorlagan analitik dasturlarning hayotga tatbiq etilishida ishtirok etishi lozim.

Vakil faoliyatining to'rtinchi yo'nalishi inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, inson huquqlarini ta'minlash borasida mavjud chet el tajribasini o'rganish va shu bilan birga, jahon jamoatchiligini respublikamizdagi inson huquqlarini ta'minlash va himoyalash ahvolidan xabardor qilib turishdir.

Shunday qilib, Vakil faoliyatining biz ta'riflagan to'rt asosiy yo'nalishi O'zbekistonda inson huquqlari umumiy holatining yaxshilanishi inson va uning huquqlarining jamoatchilik tomonidan hurmat qilinishiga hissa qo'shadi, zero mamlakatning muvaffaqiyatli demokratik taraqqiyotini siyosat, iqtisod, ekologiya va madaniyat sohasida jahon sivilizasiyasi tomonidan tan olingan inson huquqlari tantanasisiz amalga oshirish mumkin emas. Jamiyatda inson huquqlariga rioya qilish va ularning himoyasi muammosi qanchalik samarali hal etilsa, u shunchalik demokratiyaga fuqarolik jamiyati shakllanishiga yaqinlashadi.

“Biz uchun,- deb yozadi Birinchi Prezident Islom Karimov,- fuqarolik jamiyati – ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'z-o'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. Shaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. YA'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish ayni bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va bir-birini taqazo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart”.<sup>60</sup>

Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'z faoliyati davomida jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ana shu asosiy prinsiplarini taraqqiy ettirish va hayoga tatbiq etilishi uchun xizmat qiladi.

“Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida”gi 20 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi qonunining har bir qoidasi inson huquqlari himoyasi uchun xizmat qiladi.

Fuqarolarning huquqlari va erkinliklari buzilishiga doir murojaat tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyat qismi qonuniylik va huquq tartibotni ta'minlash,

---

<sup>60</sup> Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т., Ўзбекистон. 1997. 173-бет.

aholini ijtimoiy himoya qilish hamda aholiga uyjoy kommunal, tibbiy xizmatlar ko'rsatish masalalari bilan bog'liqdir. Kelib tushayotgan murojaatlar asosan sud hukmidan norozilik, asossiz qamash va ayb qo'yish, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlarining noqonuniy harakatlari, kvartira masalalari bo'yicha sud qarorlaridan norozilik, uy-joy kommunal masalalari, ro'yxatga olish masalalari, ijtimoiy ta'minot masalalari, mehnat masalalari, ta'lim masalalari, tadbirkorlik huquqlari buzilganligi, pul mablag'larining indeksasiya bo'yicha, sud qarorlarining ijro etilmaganligi haqida bo'lib, fuqarolarning ariza va murojaatlari qat'iy tartibda ko'rib chiqilib, kerakli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Fuqarolar arizalarini o'rganish va tahlil qilish fuqarolarning huquq va erkinliklari qo'pol ravishda buzilishiga;

- Ichki ishlar, prokuratura, sud ayrim xodimlarining,

- Mahalliy xokimiyat va boshqaruv organlari, turli tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining malakasi pastligi, kasb dunyoqarashi torligi, sovuqqonlik, to'rachilik, mas'uliyat hissining yetishmasligi:

- Shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, xibsga olish, ozodlikdan mahrum etishning qonuniyligi va asoslanganligi ustidan yetarli darajada prokuror va sud nazoratining yo'qligi sabab bo'layotganini ko'rsatadi.

Inson huquqlari bo'yicha vakil devoniga kelib tushayotgan shikoyatlarga xos bo'lgan umumiy tendensiyaning ijobiy tomonga o'zgarayotganligi sifatida shuni ta'kidlash kerakki, ushbu shikoyatlar yanada aniq va dalillangan bo'lib bormogda, fuqarolar shaxsiy muammolaridan tashqari ijtimoiy muammolarni ham yozib yubormogdalar, ular amaldagi qonun hujjatlarini, huquqni muhofaza qiluvchi va mahalliy xokimiyat organlarining faoliyatini takomillashtirish yo'llarini taklif etmogdalar. Demak, aytish mumkinki, huquqiy demokratik jamiyat qurish bilan bir qatorda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini ortib borayotganidan dalolat beradi. **O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari Milliy markazi.**

Hozirgi vaqtda respublikamizda inson huquqlariga rioya qilish va himoyalash masalalari bilan shug'ullanuvchi bir necha idoralar mavjud. Ulardan ikkitasi qonun chiqaruvchi, bittasi ijroiya va yana biri nohukumat organidir. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi yil ish faoliyatida 1995 yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili organi ta'sis etildi va uning ixtiyorida inson huquq va erkinligi bilan shug'ullanuvchi Komissiya tuzildi. 1996 yilda esa Oliy Majlis huzurida amaldagi qonunchilik monitoringi instituti tashkil qilindi.

O'sha yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga ko'ra Respublika inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Inson huquqlari milliy markazi davlat idoralararo tahlil, tushuntirish va muvofiqashtirish organi hisoblanadi, ya'ni mazkur organ inson huquqlari sohasida davlat boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqashtiradi, inson huquqlari sohasidagi ishlar milliy rejasini ishlab chiqadi, O'zbekistonda inson huquqlari himoyasi bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlaydi, davlat xizmatchilari uchun esa inson huquqlari muhofazasi

sohasida axborot bazasi yaratadi, ularni o'qitadi, maslahatlar beradi, tashviqot ishlari olib boradi<sup>61</sup>.

Markazning asosiy maqsadi – ustuvor vazifalarni har tomonlama hal etish yo'li bilan Inson huquqlari sohasidagi Milliy faoliyat dasturini – huquq va erkinliklarni himoya etishning ko'p jihatli tizimini ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, jumladan:

1. Inson huquqlari sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish;
2. Huquqiy yordam ko'rsatish va inson huquqlarini sud yo'li bilan himoya qilish;
3. Inson huquqlarini suddan tashqari himoya qilish tizimini yaratish;
4. Turli toifadagi shaxslar huquqini himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish;
  - Aholining ijtimoiy kam ta'minlangan qatlamlarini;
  - ekologik ofat mintaqalarida yashovchi aholini;
  - dindorlarni, turli din vakillarini; □ ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni; □ harbiy xizmatchilarni.
5. Nohukumat huquqni himoya etish tashkilotlari faoliyatlarining samarali shakllarini rivojlantirish;
6. Inson huquqlariga rioya qilish kafolati sifatida axborot olish erkinligini ta'minlash;
7. Inson huquqlari sohasidagi ta'limning ko'p maqsadli tizimini – alohida ixtisoslashgan kurslardan tortib ommaviy ma'lumot – tanishuv dasturlarigacha tashkil etish;
8. Ijro xokimiyati doirasidagi vazirliklar, qo'mitilar, idoralar va muassasalarni inson huquqlari sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;
9. O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari va erkinliklari tizimining rivojlanishi asosida xalqaro hamjamiyatga kirish yo'llarini shakllantirish.

Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari.

Qo'yidagilar Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari hisoblanadi; fuqarolarning huquq va erkinliklari sohasida milliy harakat rejasini ishlab chiqish;

inson huquqlari sohasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorligini rivojlantirish;

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etilishi va bu huquqlarning muhofaza qilinishi yuzasidan milliy ma'ruzalar tayyorlash;

---

<sup>61</sup> Раҳмонқулов Х, Раҳмонов А. Права человека: история и современность. Т., Изд. «Мир экономики и право», 1998. 213 стр.

Inson huquqlarini muhofaza qilish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha xalqaro va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

Inson huquqlari sohasida davlatlararo ikki tomonlama va ko'p tomonlama bitimlarni ishlab chiqish va ekspert baholash hamda ularni kelishishda qatnashish;

Davlat organlarining inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida ta'lim berish, targ'ibot, o'quv-uslubiy adabiyotlarni nashr etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini rivojlantirish yuzasidan sosiologik tadqiqotlar o'tkazish va ularda qatnashish;

Davlat organlarining inson huquqlariga rioya etish va bu huquqlarni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ularga tavsiyalar tayyorlash;

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlarni ishlab chiqish;

Aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish;

Inson huquqlarini rag'batlantirish va muhofaza qilish sohasida jamoatchilik tashabbuslarini rag'batlantirish va muvofiqlashtirish;

Inson huquqlari bo'yicha adabiyotlar, teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, shuningdek, «O'zbekistonda demokratiyalash va inson huquqlari» davriy nashrini tayyorlash va chiqarish;

Milliy, mintaqaviy va xalqaro darajalarda inson huquqlariga rioya etish va ularni muhofaza qilish sohasida ilmiy tadqiqotlar tashkil etishda;

Inson huquqlari sohasida hukumatga qarashli bo'lmagan jamoat, huquqini muhofaza qilish va siyosiy partiyalar bilan hamkorlik qilish;

O'zbekiston Respublikasini Hukumatining insonning huquqlari va asosiy erkinliklariga rioya qilish, muhofaza qilish va rag'batlantirish bo'yicha faoliyati to'g'risida aholini shuningdek xalqaro jamoatchilikni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish.

Markaz faoliyati dasturining g'oyaviy asosi – Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasida bayon etilgan huquqiy madaniyatni rivojlantirishning umumbashariy tamoyillaridir.

Huquqiy davlat mafkurasini rivojlantirishni ilmiy rejalashtirish inson huquqlarini himoya qilish Milliy konsepsiyasini yaratishni ko'zda tutadi. Bu konvensiyada Sharqning ko'p asrli huquqiy madaniyati tajribasi, bizning buyuk ajdodlarimiz turmush tarzi an'analari aks etishi lozim. Markazning inson huquqlarini himoya qilish milliy konsepsiyasini yaratish faoliyati inson huquqlari sohasidagi harakatlar milliy dasturining muhim nazariy qismi, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar bosqichining boshlanishi hisoblanadi.

Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

1. Inson huquqlari sohasidagi faoliyat milliy dasturini ishlab chiqish orqali davlat va jamoat tashkilotlarining ilmiy- tadqiqot, ta'lim va ma'rifiy faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

2. O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari milliy konsepsiyasi asosida huquqiy davlat milliy mafkurasini shakllantirish;

3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti e'lon qilgan inson huquqlari sohasidagi barcha normativ aktlarni bosqichma-bosqich qabul qilish orqali O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga kirishining samarali mexanizmini yaratish.

Markazning qo'shimcha tarkibiy bo'linmalari:

«Kichik ilmiy jamoa» shaklidagi aniq masalalarni hal qilish uchun tuzilgan vaqtinchalik ijodiy guruhlar majmuasidan iborat. «Kichik ilmiy jamoa»ni yaratishning birinchi bosqichida markaz qo'yidagi guruhlarini tashkil etadi:

- axborot- tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlovchi guruh (axborotni yig'ish va qayta ishlashning o'ziga xos dasturini ishlab chiqish);

- jamiyatdagi huquqiy islohotlarni ijtimoiy-iqtisodiy tahlil etish guruhi (inson huquqlarini rivojlantirishni iqtisodiy rag'batlantirish modelini yaratish);

- inson huquqlari sohasida ko'p maqsadli ta'lim tizimini tashkil etish guruhi (BMT Rivojlanish Dasturi faoliyati doirasida);

- O'zbekiston televideniyesi orqali huquqiy madaniyat asoslarini targ'ib etish guruhi (Markaz teleko'rsatuvi – «XXI asr odobi», alohida ko'rsatuv – «Telematn – hammasi inson huquqlari to'g'risida»).

Hamkorlik imkoniyatlari:

Xalqaro aloqalar vositalari orqali ma'lumotlar almashish; hamkorlikda nashrlar – monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, maqolalar to'plami; seminar, konferensiya, simpoziumlar o'tkazish; teleko'rsatuvlar tayyorlash, o'quv va ilmiy-ommabop filmlar yaratish; tezkor ekspeditsiyalar, mamlakatning turli yerlarida joylarga chiqib tadqiqotlar o'tkazish. Markaz o'z faoliyatini amalga oshirishda qator xalqaro tashkilotlar bilan; BMT, YEXHT, TASHIS, YUNESKO, AQSH, Fransiya, Angliya, Italiya elchixonalari, qator xalqaro nohukumat tashkilotlar va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari Milliy markaz oliy o'quv yurtlarida inson huquqlari bo'yicha darsliklar, ma'ruzalar va seminarlar o'tkazilishini amalga oshirmoqda<sup>62</sup>.

### **Nazorat savollari:**

1. Inson huquqlarining ustuvorligi korrupsiyaga qarshi kurashda qanday ahamiyat kasb etadi?

---

<sup>62</sup> А.Х.Саидов. Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека в 1999 году: основные направления деятельности. Т.,НЦПЧ. 2000. 12,18-бет.

2. Inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlash shartlari qanday?
3. 2017 yil 7 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947sonli Farmonida nazarda tutilgan mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan edi?
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson xuquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-sonli farmonining mazmuni va mohiyati?
5. Insonning davlat bilan munosabati, ular o'rtasidagi huquqiy bog'liqlik.
6. Inson huquqlarining buzilishi va korrupsiya holatlari qanday izohlaysiz.
7. Mulk huquqining poymol etilishi va korrupsiya o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin.
8. Iqtisodiyotda monopol faoliyat korrupsiya bilan qanday bog'liqlikda bo'lishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G'afur G'ulom. 2017.
2. Sharifxo'jayev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.
3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015. 5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
7. Utamuradov A, Qirg'izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O'quv qo'llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so'z. 2018. 395 bet.
8. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyusiyasi. –T., "Adabiyot uchqunlari", 2018. B.193.

### **3–amaliy mashg'ulot: O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashdagi tub burilish davrining boshlanishi. (2 soat)**

#### **REJA:**

1. O'zbekiston Respublikasini BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi"ga qo'shilishi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o'zini. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo'ladigan omillar va ularni oldini olish choratadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

Bizga ma'lumki, korrupsiya jamiyatni rivojlanishiga qarshi qaratilgan harakat sifatida har qanday jamiyat va davlatda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni chuqurlashtirishga sabab bo'ladigan omil sifatida baholanadi.

Ko'pchilik ekspertlar tomonidan jamiyatda korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo'llash samarali hisoblanmasligi qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda muntazam ravishda izchil amalga oshirilishi yaxshi natija berishi mumkin.

Har bir davlat korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obekti sifatida alohida olingan korrupsionerga emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarni bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralari namoyon bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil etishda quyidagi-larni inobatga olish lozim deb hisoblaymiz:

- har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda qonun hujjat-larini zamon va islohotlar talablari darajasida takomillashtirish;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimiz ongida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni muntazam ravishda shakllantirib borish;

- davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga izchil tadbiriq qilish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish va oqibatlarini keng jamoatchilikka tushuntirish, korrupsiyaga imkon bergan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralarni ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan holda tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va bu sohada xalqaro hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish.

Har qanday davlatda korrupsiyaning rivojlanishi davlatning ichki va tashqi siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, natijada jamiyat a'zolarini mazkur davlatning organlariga bo'lgan ishonchiga putur yetkazishga olib keladi.

***“Jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozim. Nega deganda, Jinoyat va Jinoyat-***



*prosessual kodekslar qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash*

*tarzi, ongi dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli bu kodekslar bugungi kun talablariga javob bermay qoldi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga, ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi. Shuning uchun jinoyat va jinoyat prosessual qonunchilikni tubdan qayta ko'rish zarur"[2].*

Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslarini rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, xalqaro ekspertlarni jalb qilish hamda bugungi kunda shiddatli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarni talablariga muvofiq Jinoyat va Jinoyat prosessual kodekslar loyihasi norma ijodkorligi asosida ishlab chiqish jamiyatda jinoyatlarni shu jumladan korrupsion jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan normalarni mustahkamlash jamiyatda jinoyatlarni hamda korrupsion jinoyatlarni oldini olinishiga xizmat qiladi.

Hozirgi glabollashuv davrida yoki jarayonida korrupsiya muammosi jahonning deyarli har bir mamlakatida mavjudligini ko'rish mumkin. Ammo bu - barcha davlatlarda ham korrupsiya bir xil degan ma'noni anglatmaydi. Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, korrupsiyaning vujudga kelish sabablari turli mamlakatlarda turli xil bo'lib, tarixiy rivojlanish bosqichi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning mavjudligi hamda taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga barham berishga qaratilgan ma'muriy normalar majmui ishlab chiqilgan.

XX asrning 90 yillaridan xalqaro va mintaqaviy doiralarda korrupsiyaga qarshi kurash bilan bog'liq xalqaro shartnomalar qabul qilina boshlandi.

Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ko'p tomonlama xalqaro hujjatlar qabul qilingan:

- Amerika davlatlari tashkiloti tomonidan 1996 yil 29 mart kuni qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Amerika konvensiyasi" (4);

- Yevropa ittifoqi Kengashi tomonidan 1997 yil 21 noyabrda Yevropa hamjamiyatining mansabdor shaxslariga yoki Yevro ittifoqiga a'zo davlatlarning mansabdor shaxslariga daxl qilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi (5);

- Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan 1997 yil 21 noyabrda qabul qilingan Xalqaro tijorat amaliyotlarida xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishga qarshi kurashish bo'yicha Konvensiyasi (6);

- Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 27 yanvar-da qabul qilingan "Korrupsiya uchun jinoyat javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi (7);

- Yevropa Kengashi Vazirlar qo'mitasi tomonidan 1999 yil 4 noyabr-da qabul qilingan "Korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarligi to'g'risida"gi Konvensiyasi;

• 2003 yil 12 iyuldagi Afrika Ittifoqining “Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi;

• BMTning “Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka hamda korrupsiyaga qarshi kurash” Konvensiyasi;

• MDH doirasida esa unga a’zo davlatlar tomonidan 2003 yil 15 noyabrdagi qarorga muvofiq, “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganligi ham korrupsiyani jamiyat rivojlanishiga qarshi qaratilgan illat sifatida uning qanchalik xatarli ekanligini ko‘rsatadi.

Davlat hokimiyati organlarining korrupsiyaning zararli ta’siridan saqlash zaruriyati AQSH hukumatini korrupsiyaga qarshi kurashni XIX asrdayoq davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashga olib kelgan.

1978 yilda AQSH Kongressi “Hukumatdagi axloq to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilgan. Ushbu Qonunning vazifasi davlat amaldorlari va muassasalari haloliligini saqlash hamda bunga imkoniyat yaratishdan iborat.

Kanadaning jinoyat qonunchiligida “mansabdor shaxslarni pora evaziga og‘dirish”, “Hukumatni aldash”, “mansabdor shaxs tomonidan sodir etilgan ishonchni suiste’mol qilish” mansabdorlik jinoyatlari hisoblanishi belgilab qo‘yilgan.

1985 yil Kanadada davlat xizmatchilarining xizmat vazifalari va shaxsiy manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyat yuzaga kelgan holda ular amal qilishi shart bo‘lgan xulq-atvor qoidalarini o‘zida mujassam qilgan Kodeks qabul qilingan.

Kanadalik qonun ijodkorlarining fikriga ko‘ra, ushbu qonunlardan ko‘zlangan maqsad – davlat apparati va davlat xizmatchilarining halolligiga jamiyatning ishonchini oshirishga qaratilganligini qayd etishadi.

Davlat xizmati tizimida korrupsiyani oldini olish, unga qarshi kurashish va barham berish maqsadida Fransiyada XX asrning 90 yillarida saylangan barcha davlat xizmatchilari va korrupsiya ta’siriga berilishi mumkin bo‘lgan jamoat xizmati kadrlariga o‘z mol-mulki va daromadlari haqida tegishli davlat idoralariga ma’lumot berish majburiyatini yuklash to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Shuningdek, davlat apparati yuqori martabali xodimlarining daromadlari va mol-mulki haqidagi deklarasiyalar keng miqyosda oshkor etilishini ta’minlaydigan huquqiy va tashkiliy asoslar qonun ijodkorligi asosida yaratilgan.

***Korrupsiyani oldini olishning nazariy poydevori “ta’lim, xabardorlik va targ‘ibot” (Education, Awareness and Advocacy) tamoyillariga asoslanib, amaliy tomondan esa “samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlik” (effectiveness, transparency, accountability) tamoyillari asosida aniq davlat siyosatini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada davlat siyosati dunyoda (xususan, Singapurda) “one size fits all” (“barcha uchun bir xil mezon”) tamoyillari ishlab chiqilgan va o‘zining ijobiy natijasini bergan[3].***

“Respublika bo‘yicha 2018 yilda **1561 nafar** turli toifadagi mansabdor shaxs jinoyiy javobgarlikka tortilgan. Bularning aksariyatini – **580 nafar** xo‘jalik yurituvchi subektlar rahbarlari, **257 nafari** – ta‘lim sohasi, **83 nafari** – sog‘liqni saqlash tizimi, qolgan qismini boshqa soha vakillari tashkil qiladi. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning **39 nafari** respublika, qolganlari viloyat tuman-shahar miqyosidagi vazirliklar, idoralar hamda korxonalar va tashkilotlarda ishlab kelgan. Jinoyiy javobgarlikka tortilgan bu xodimlarning **821 nafari** o‘zganing mulkini o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, **138 nafari** pora olish va berish, qolganlari esa boshqa mansabdorlik jinoyatlari uchun javobgar bo‘lgan”[4]. Mazkur tahliliy materillardan ham ko‘rinib turibdiki, keyingi ikki yilda mamlakatimizda korrupsiyani oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonidan izchil ravishda amalga oshirilayotganligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev rahnomaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri korrupsiyaga qarshi tizimli ravishda kurashish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, tashkiliy tuzilmasi va amalga oshirish strategiyasi xalqaro huquqiy talablarasosida belgilandi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (Nyu-York, 2003 yil 31 oktabr) qo‘shilishi jamiyat taraqqiyotini amalga oshirishning milliy mexanizmi sifatida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentning “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2752-son qarori qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning alohida institusional tuzilmasi sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilib, hozirgi kunda mazkur idora UNODC (BMTning Narkotik va jinoyatchilik bo‘yicha idorasi), UNDP (BMT taraqqiyot dasturi) va OSCE (Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha fuqarolarning daxldorligini kuchaytirish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturining qabul qilinishi bu borada davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berilishi davlat bilan jamiyat a‘zolari bo‘lgan fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish izchil davom ettirishga shart-sharoitlar yaoatmoqda.

**O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasining samaradorligini ta‘minlashda quyidagilarni e‘tibor olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:**

**birinchidan** – korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishish modeli ishlab chiqilib, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institusional tuzilmasi, moliyaviy va mehnat resurslari bilan doimiy ta‘minlab turilishi, muntazam monitoring faoliyati hamda xolis va shaffof baholash tizimi aniq qonunchilikda mustahkamlanishi lozim. Amaldagi qonunchilikda

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining yuqoridagi sanab o'tilgan huquqiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy elementlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va birbiriga ta'sir qilish mexanizmi yo'lga qo'yilmagan. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yaxlit kompleks tizimning uzviy ishlashini jamiyatda yo'lga qo'yish qo'yish uning samaradorligini ta'minlaydi; **ikkinchidan** – korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasida innovasion yondashuvni samarali qo'llash. Bunda davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta'minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berish. Bunda, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integrasiyaga erishishga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri – jinoyat va jinoyat prsessual qonunchiligini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha moddalarini mukamal ishlab chiqish hamda korrupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlarni o'rganish, tahlil qilish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chortadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tadbiiq qilishda aniq statistika hamda dalillarga asoslangan ma'lumotga tayangan holda ish olib borish korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi; **uchinchidan** – jamiyatning ijtimoiy sohalarida xususan, tadbirkor-

lik, ta'lim, sog'liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, korrupsiya bilan bog'liq ayrim xatti-harakatlarni barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarida ta'minlash hamda xalqaro tajribani o'rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlarni qonunchilikda mustahkamlash yaxshi natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi; **to'rtinchi** – korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturini ijrosini jamiyatda ta'minlanishi va bu borada tizimli monitoring qilish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmning islohotlar talablari darajasida ishlab chiqish hamda davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalariga rioya qilish darajasining talab darajasidan pastligi, davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilining amalda ta'minlanishi, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish jamiyatda ijtimoiy adolatni o'rnatishga xizmat qiladi.

**beshinch** – korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib amalda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish asosida zamonaviy tendensiyaga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashish masalan mamlakatimizda davlat xizmatlari agentligini tashkil etilganligi va xalqimizga xalqaro talablar asosida xizmat qilinayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichini boshlab berib, fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish daxldorligini oshirishda muhim qadamlardan bo'layotganligini qayd etish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish; **oltinchidan** – korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish, korrupsiyaga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni o'rganish imkoniyatini yaratish, yangi texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya

holatlari haqida axborot berish, korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning izchil tizimini yaratish va hayotga tadbiq qilish; **yetinchidan**, O'zbekistonda har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda sohaning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, korrupsiya holatlari oldini olishga qaratilgan yangi innovasion usullarini ishlab chiqish va qo'llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o'tkazish, monitoring qilish va baholash jamiyatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida jamiyatda inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning qonuniy asoslari takomillashtirilganligi borasida quyidagi tahliliy ma'lumotlarni ta'kidledi.

“Bugungi kunda yurtimizda inson huquq va erkinliklarini qonuniy himoya qilish bo'yicha salmoqli ishlar qilinmoqda. Jumladan, shaxsni ayblashda qonunga zid usulda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanganlik uchun qat'iy javobgarlik belgilandi.

Keyingi ikki yilda sudlar mustaqilligini ta'minlash bo'yicha muhim choralar ko'rildi. Jumladan, joriy yilning o'zida **1 ming 881 ta jinoyat ishi** dalillar yetarli bo'lmaganligi sababli tugatildi, sudlar tomonidan **590 nafar** shaxs oqlandi. Vaholanki, bu raqam 2016 yilda – e'tibor bering – bor – yo'g'i **28 tani**, 2017 yilda esa **263 tani** tashkil etgan edi.

Shuningdek, **5 ming 462** nafar shaxsga nisbatan tergovda asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarilib tashlandi, **2 ming nafar** shaxs esa sud zalidan ozod qilindi. Sudlarda ishlarni yillar davomida qayta-qayta ko'rish amaliyotiga butunlay chek qo'yildi.

Insonparvarlik tamoyili asosida yangi amaliyot joriy etilmoqda. Buning natijasida jinoyat yo'lga adashib kirib, qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan **993 nafar fuqaro**, jumladan, **456 nafar** yigit-qiz hamda **113 nafar** ayollar Yoshlar ittifoqi, mahallalar va xotin-qizlar qo'mitalarining kafilligi bilan jazodan ozod qilindi.

Shunidek, jazoni o'tayotgan **3 ming 333** nafar, jumladan, faoliyati man etilgan tashkilotlarga kirib qolgan **646 nafar** mahkum avf etilib, oilasi bag'riga qaytarildi.

Ulug' bayram – Konstitusiya kuni munosabati bilan bugun maxsus Farmonni imzoladim. Unga ko'ra, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan va ayni paytda ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan **136** nafar shaxs avf etildi.

Bir paytlar diniy ekstremistik guruhlariga aloqasi bor, deb nazoratga olingan **20 mingdan ziyod fuqaro** “maxsus hisoblar”dan chiqarildi.

Man etilgan tashkilotlarga adashib kirib qolgan, qilmishiga pushaymon bo'lib, tuzalish yo'lga o'tgan fuqarolarning murojaat-larini ko'rib chiqish bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi tuzildi”[\[5\]](#).

O‘zbekiston Respublikasi 2008 yil 7 iyuldagi O‘RQ-158-sonli qonuni bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (NYU-YORK, 2003 yil 31-oktabr) O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirishning bugungi sharoitida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish davlat va jamiyat oldidagi muhim va ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish mustahkam huquqiy asos va samarali huquqiy mexanizmni joriy etilishini talab etadi. Shu munosabat bilan 2017 yil 3 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunining kuchga kiritilishi **“Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”**, degan ezgu g‘oyalarni jamiyat hayotiga tatbiq qilish hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil qilish maqsadida qabul qilingan. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan strategik islohotlarni samarali yakunlanishi hamda “yashirin iqtisodiyot”ga barham berilishiga xizmat qilishini qayd etish joiz.

**Mazkur Qonunning 3-moddasiga muvofiq:**

*- korrupsiya deganda – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shunidek bunday nafni qonunga xilof raishda taqdim etish tushuniladi.*

*- korrupsiya oid huquqbuzarlik deganda – korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilish tushuniladi;*

*- manfaatlarni to‘qnashuvi deganda - shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning yoki xizmat majburiyat-larining*

*lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilot-larning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi.*

2017 yil 2 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2752- qarorida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyasini tuzilishi, mazkur Komissiya to'g'risidagi Nizomni tasdiqlanishi, Mazkur Nizomda Komissiyaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilganligi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish ishlarini tizimli ravishda olib borilishiga shart-sharoitlar yaratadi va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ijrosini samarali ta'minlanishga xizmat qiladi.

***Mazkur Qonunning 8-moddasiga muvofiq: Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika Idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:***

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilot-larning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta'minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksal-tirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir choratadbirlar samaradorligi oshirili-shini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samarador-ligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

***Bizga ma'lumki, bugungi kunda, hokimlar va ularning turli darajadagi xodimlari, boshqa davlat organlarining xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid***



*jinoyat sodir etilayotganligi hamda pora bilan qo‘lga tushayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar ommaviy axborot vositalarida berilayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari davlatning vakolatli organlari tomonida tizimli ravishda izchil borilayotganligini ko‘rsatadi.*

Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan xabarda davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan:

*- 2018 yil 3 choragida hukumat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning topshiriqlari hamda jismoniy shaxslarning murojaatlari asosida byudjet tashkilotlarida 1334 ta davlat moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilganligi:*

*- o‘tkazilgan nazorat tadbirlaridan 1111 tasida moliyaviy intizomga rioya qilinmay sarflangan mablag‘lar 16,6 mlrd. so‘mni, shundan kamomad va o‘zlashtirishlar 4,5 mlrd so‘mni, noqonuniy xarajatlar 12,1 mlrd so‘mni tashkil etganligi;*

*- shuningdek, hisobot davrida byudjet intizomini buzgan byudjet tashkilotlarining 20 nafar rahbar va mansabdor shaxslari 13,9 mln. so‘m miqdorida ma‘muriy javobgarlikka tortilganli ma‘lum qilingan[6]*

**Mazkur Qonunning 14-moddasida** fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan bo‘lib, unga muvofiq, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjat-larini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

**Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida** Idoralararo komissiya va hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etadi.

**Ushbu Qonunning 15-moddasiga binoan.** ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi quyidagi tarzda mustahkamlangan bo‘lib, unga ko‘ra ommaviy axborot vositalari:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga, shu jumladan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni yoritadi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Ekspertlarning fikricha qaysi sohada korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari tizimli ravishda yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, ushbu soha rivojlanmayotganligini ko'rish mumkin.

Keyingi ikki yilda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan korrupsiya illati yillar davomida tomir otganligi to'g'risida o'zining chiqish va maruzalarida korrupsiyaga qarshi kurashish jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masala ekanligini takror-takror qayd etib kelmoqda.

Shu bois ham, davlatimiz rahbari o'zining saylov oldi ma'ruzalaridan birida ushbu muammoga alohida e'tibor qaratib, **“bugungi kundagi yana bir ustuvor vazifamiz - mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'layotgan yovuz illat, ya'ni korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarlikni oldini olish masalalarini samarali hal etishdan iborat”** deb ta'kidlagan edi.

“2019 yildan boshlab joriy etilayotgan yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlarga uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin. Afsuski, yalpi ichki mahsulotda “yashirin” iqtisodiyotning ulushi katta bo'lib, bu mamlakat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Soliq yukini kamaytirish biznes yuritish uchun yanada qulay sharoitlar yaratish “yashirin” iqtisodiyotga barham berishning yagona yo'lidir. Shuning uchun bu borada ta'sirchan choralarni nazarda tutadigan dastur ishlab chiqishimiz zarur[7]”.

Bizga ma'lumki, soliq stavkalarini pasaytirilishi yoki ayrim soliqlarning bekor qilinishi bilan byudjetga tushadigan tushumlar albatta kamayadi. Bu masalani soliq ma'murchiligi orqali bartaraf etish mumkin, ya'ni shu vaqtgacha faoliyat yuritayotgan “yashirin” iqtisodiyot jamiyatda qonuniy iqtisodiyotga aylanishi natijasida insofli, halol soliq to'lovchilarni soliq qonunchiligida rag'batlan-tirishni huquqiy jihatdan mustahkamlash tadbirkorlar, biznesmen-lar faoliyatini yanada rivojlanishiga hamda yalpi milliy daromadda xususiy mulkning ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ko'pchilik xalqaro ekspertlar tomonidan har bir davlat va mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini rolini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirish va ular bilan davlat organlari hamkorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning asosiy shartlaridan biri ekanligini qayd etadilar.

**Biz shuni qayd etishimiz lozimki, ilgari yurtimizda korrupsiya muammosi to'g'risida so'z ochish deyarli mumkin emas edi.**

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim masala sifatida hal etilishi lozimligi shundan iboratki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida mazkur vazifani yechimini topish davlat rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida ham korrupsiyaga qarshi ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash muhimligi qayd etilgan edi.

Mamlakatimizda yurtboshimiz rahbarligida davlatning mazkur illatga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan bo'lib, ularni real hayotga tatbiq qilish uchun tizimli ravishda ishlar davlat organlari tomonidan olib borilayapti.

Bugungi kunda, xalqaro subektlar hamda jamoat arboblari tomonidan tan olingan mamlakatimizda tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlarning yo'l xaritasi hisoblangan Harakatlar strategiyasida mazkur yo'nalishda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuqorida qayd etilgan qonun va qonun ijrosini ta'minlashda fuqarolarning faol ishtirok etishini ta'minlash mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Albatta, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va eng muhimi korrupsiyaning oldini olish ishlarini tashkil etishga qaratilgan mazkur maqsadlarni ro'yobga chiqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari-bilan davlat idoralari o'rtasida hamkorlikni zamon talablari darajasida tashkil etish, huquqiy targ'ibot samaradorligiga erishish, jamiyat a'zolarining huquqiy bilim va saviyalarini yanada oshirishni yo'lga qo'yish korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijrosini ta'minlashda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

***Keyingi ikki yilda mamlakatimizda xalqimizning adolat qaror topgan jamiyatda yashashi uchun ma'sul bo'lgan davlat idoralari o'z faoliyatlarini bugungi kun talablari asosida tashkil etmoqdalar, ammo, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish ishlariga har bir fuqarodan ushbu masalaga o'zining fuqarolik burchi sifatida yondoshib bu ishlarga o'z hissalarini qo'shishi lozimligini qayd etish joiz.***

Bu ishlarni amalga oshirishda eng muhim masala bizning fikrimizcha yurtdoshlarimizda korrupsiyaga, umuman olganda har qanday ko'rinishdagi

qonunbuzarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyatini muntazam ravishda shakllantirish talab etiladi.

Jamiyatda qonunbuzarlikni sodir etilishida ayniqsa korrupsiyaga doir jinoyatlarni sodir etilishida ko'pincha fuqarolarimizning loqaydligi, o'z haq-huquqlarini bilmasligi hamda ayrim tadbirkorlik subektlari rahbarlarining yuridik bilimlarini juda past darajada ekanligi ham sabab bo'lmoqda. Bunga erishish uchun davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bu sohada hamkorlikni bugungi kun talablari darajasida tashkil etishi zarur bo'ladi.

*Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy rivojlanishlaridan bizga ma'lumki, davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish korrupsion holatlarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.*

Mamlakatimizda bu sohada ishlarni tashkil qilishda "Ijtimoiy sherikchilik", "Jamoatchilik nazorati", "Nodavlat notijorat tashkilotlari" hamda "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar ijrosini jamiyatda ijrosini ta'minlashda davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari hamkorliklarini yanada yuqori bosqichga ko'tarish orqali u yoki bu mansabdor shaxsning faoliyatini xolisona baholash orqali amalga oshirishni yo'lga qo'yilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni o'ziga xos jihatlari va bu sohaning tashkiliy-amaliy xususiyatlari ijtimoiy sheriklik shartnomasida aniq belgilab qo'yilishi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demokratik huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri **birinchidan**, bu-fuqarolar ustidan bosim o'tkazish emas, balki, fuqarolarning konstitusiyada va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va manfaatlarini amalga oshirishda ularga yordam berishga xizmat qiladigan fuqarolik jamiyati institutlarining mavjudligi bo'lsa, **ikkinchidan**, jamiyatda ularning faoliyatini samarali ishlashi uchun davlat tomonidan har tomonlama shart-sharoitlar yaratilishi orqali namoyon bo'ladi.

Bizga ma'lumki, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini beshta ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi va mazkur qonunda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy subektlarining biri sifatida belgilanishi o'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirish asosida rivojlantirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish vazifasini qo'ydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan Davlat rahbarining 2018 yil 5 maydagi "**Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi

maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarining mamlakatni yanada jadal har tamonlama rivojlantirishga qaratilgan jamiyatdagi barcha harakatlarni hamda zamonaviy demokratik institutlarni ochiq-oshkora maydon sifatida birlashtiruvchi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha **Maslahat kengashi** tashkil etilganligi ham ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, har bir davlat organi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha **jamoatchilik kengashi** faoliyatlarini yanada yuksaltirish uchun mazkur jamoat-chilik kengashi a'ziligiga nodavlat notijorat tashkilotlari vakilari hamda kasaba uyushmasi faollari kiritish orqali har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yaxshi natija berishi mumkin.

Shuningdek, har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olinishi mazkur sohalarda korrupsiyani oldini olishga xizmat qiladi.

Har bir davlat organi huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish choratadbirlarini ishlab chiqish va real hayotga joriy qilishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamda boshqa idoralar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, kadrlarni tanlash, ayniqsa, rahbar xodimlarni tayinlashda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'yicha bilim darajasini testlar orqali o'rganishni joriy qilish davlat organlari faoliyatida shafoflik va ochiqlikni ta'minlashga olib keladi.

Bizga ma'lumki, mamlakatimizda keyingi ikki yilda davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi muloqatni sustligi chek qo'yildi, bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ishlarni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bugungi kunda, davlat rahbarimiz tomonidan bir qator sohalarda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi jumladan:

- "O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni, ushbu qonun qabul qilinishidan oldin bu sohani 30 ortiq normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi oqibatida davlat xaridlarining yaxlit tizimi mavjud emasligi natijasida ko'p bosqichli kelishlar hamda takrorlovchi tartiblar ayrim hollarda korrupsiyaga sharoit yaratilganligini ko'rish mumkin. Mazkur qonun davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, davlat xaridlari ochiqligi hamda shafofligini ta'minlash orqali bu sohada korrupsiyani oldini olishga xizmat qilishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarilishiga O'zbekiston Respublikasi konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirishni hamda davlat

xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi;

- Prezidentimizning 2018 yil 19 sentabrdagi "Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni esa, yuqorida qayd etilgan taqiqlangan guruhlar va tashkilotlarga adashib kirib qolgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bo'lgan, o'z qilmishining huquqqa xilofligini anglab yetgan va tuzalish yo'liga o'tgan fuqarolarga Vatanga, oilasi bag'riga, tinch hayotga qaytish imkonini berilganligi hamda insonparvarlik prinsiplariga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir;

- O'zbekiston Respublikasining harakatlar strategiyasiga muvofiq valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlarini joriy qilinishi natijasida investisiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni faol jalb etish borasida izchil tadbirlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilingan davlatimiz rahbarining 2017 yil 2 sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ushbu yo'nalishdagi ayrim noqonuniy operatsiyalarga hamda bu sohada mavjud bo'lgan korrupsiyaviy holat hisoblangan jumladan, valyuta siyosatiga ma'muriy aralashuvlarga barham berilishiga erishishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Davlat rahbarining 2018 yil 18 yanvardagi "**Mamlakatning oziqovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida**"gi Farmoni mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash, respublika oziq-ovqat bozorlarini sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish, shuningdek, mazkur sohadagi tizimli muammolarga barham berish maqsadida qabul qilinganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Farmonning 1 - bandiga muvofiq 2018 yil 1 fevraldan boshlab O'zbekiston Respublikasiga oziq-ovqat tovarlarini import qilish bo'yicha ayrim xo'jalik yurituvchi subektlarga taqdim qilingan individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, boshqa preferensiyalar bekor qilinganligi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan respublikaga oziq-ovqat tovarlarni import qilish bo'yicha ayrim xo'jalik yurituvchi subektlarga individual bojxona, soliq va boshqa imtiyozlar, shuningdek, boshqa preferensiyalar taqdim etishni nazarda tutuvchi qarorlarni qabul qilinishi taqiqlanganligi ushbu band talablari buzilgan hollarda aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan jinoiy javobgarlikgacha bo'lgan javobgarlikka tortilishi belgilab qo'yilganligi mamlakatning oziq-ovqat bozorini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

**Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda quyidagi masalalarni e'tiborga olish lozim deb hisoblaymiz:**

- korrupsiya va uning oqibatlarini jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'layotganligi, uning ijtimoiy xavflilik darajasi sodda va tushunarli tilda huquqiy jihatidan sharhlangan holda jamoatchilikni xabardor qilish;
- har bir sohada korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish orqali qonunchilikni hamda ichki tartib qoidalarini takomillashtirish bo'yicha asosli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- har bir davlat organida o'z xodimlarini korrupsiya holatlaridan ogohlantirish va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmni ishlab chiqish va uni real hayotga tadbiiq qilish choratadbirlarini belgilash;
- har bir sohada korrupsiyani oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini ta'minlash orqali korrupsiyaga sabab bo'luvchi holatlarga barham berishga erishish;
- jamiyatda korrupsiya jinoyatini sodir etgan shaxslarga nisbatan ya'ni korrupsionerlarga nisbatan jazo muqarrarligi mamlakatimizda qonun ustuvorligi asosida ta'minlanayotganligi xususida ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda keng yoritib borishni yo'lga qo'yish;
- har bir sohada korrupsiyani oldini olish ishlarini tashkil etishga keng jamoatchilikni, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish va ular faoliyatini rag'batlantirish korrupsiyaga qarshi ishlarni samaradorligini oshirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy sohada faoliyat yuritayotgan davlat organlari tizimida ma'muriy-byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-taomillarni yanada soddalashtirish;
- davlatning vakolatli organlarining nazorat-tekshiruv vazifalarini maqbullashtirish, tadbirkorlik subektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini yanada takomillashtirilgan holda mustahkamlash;
- davlat organlari va tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning nazorat qilishning masofaviy shakllari-ni keng joriy etish asosida tadbirkorlik subektlari faoliyatida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida taklif va tavsiyalar berish;
- Har bir sohada o'zining xususiyatidan kelib chiqib, "Axloq-odob qoidalarini"ni tasdiqlash, mazkur qoidalarining alohida bo'limida korrupsiyaga qarshi kurashish qoidalarini belgilab qo'yish;
- Har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarni tashkil etish xodimlarning bu sohadagi javobgarliklarini ichki lokal hujjatlarda aniq belgilab qo'yishda yuridik xizmat rolini oshirish korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

"Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1948 yil 10 dekabrda bo'lib o'tgan uchinchi sessiyasida 217A (III)- qabul qilingan) 8-moddasiga ko'ra har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda vakolatli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarni samarali tiklanish huquqiga ega. Birlashgan

Millatlar Tashkiloti Bosh Assambeyasining 1985 yil 29 noyabrdagi rezolyusiyasi bilan maqullangan “Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari” birinchi bo‘limining 1-bandiga ko‘ra sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi hamda konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yiladi. Barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar sud organlari mustaqilligiga hurmat bilan qarashlari va bunga rioya qilishlari shart” [8].

Yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan bo‘lib, uning tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqadimasiga ko‘ra xalqaro huquqning umum e‘tirof etilgan qoidalari O‘zbekiston Respublikasida ustun bo‘lishi tan olinganligi bois, keyingi ikki yilda sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohotlarga muvofiq Sud hokimiyati – hokimiyatning mustaqil tarmog‘i sifatida jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash, odil sudlovni amalga oshirishda sudlar ishlarni oshkora ko‘rish va sayyor sudlarda ko‘rish orqali har bir fuqaroning buzilgan huquqlarini himoya qilishiga kafolat yaratishga qaratilgan ishlar sud tizimida samarali tashkil qilinishi natijasida mamlakatimizda sudlarga bo‘lgan aholining ishonchi tobora ortishiga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to‘liq, xolis va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida choralar ko‘rilishi ustidan nazoratni ta‘minlanishi jamiyatda korrupsiyani oldini olishga samarali xizmat qilishini qayd etamiz.

**Ushbu tadqiqot natijalariga asosan korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha amaldagi qonunchilikni amalga oshirayotgan islohotlar talablariga muvofiq takomillashtirishda quyidagi xulosalarni e‘tiborga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi PF-5505-sonli Farmoni bilan Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish Konsepsiyasiga muvofiq, davlat boshqaruv organlarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha birinchi rahbarga hisob beradigan doimiy ravishda faoliyat yuritadigan komissiya tuzish va Nizomini tasdiqlash hamda mazkur Komissiya ishlariga jamoatchilik nazorati subektlari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subektlari va ilm-fan sohasi vakillarini jalb etishni ichki lokal hujjatlarda belgilab qo‘yish.

2. Barcha sohalarda korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish ishlarini samarali tashkil etishga qaratilgan jamoatchilik muhokamalarining ta‘sir darajasini oshirish asosida davlat xizmatchisi sifatida faoliyat yuritayotgan xizmatchilarning korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha javobgarlikni oshirishga qaratilgan normalarini ishlab chiqish.



3. Korrupsiya va uning oqibatlari jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'layotganligi, uning ijtimoiy xavflilik darajasi sodda va tushunarli tilda huquqiy jihatdan sharhlangan holda jamoatchilikni xabardor qilish asosida fuqarolarimiz ongida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish imunitetini mustahkamlashga qaratilgan seminar treninglarni joylarda tashkil qilish;

4. Har bir sohada korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilish orqali amaldagi qonunchilikni hamda ichki tartib qoidalarini takomillashtirish bo'yicha asosli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Har bir davlat organida o'z xodimlarini korrupsiya holatlaridan ogohlantirish va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmni ishlab chiqish hamda uni real hayotga tadbiiq qilish chora-tadbirlarini norma ijodkorligi asosida belgilash.

6. Har bir sohada korrupsiyani oldini olishga qaratilgan davlat siyosatini ta'minlash orqali korrupsiyaga sabab bo'luvchi holatlarga barham berishning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

7. Har bir sohada korrupsiyani oldini olish ishlarini tashkil etishga keng jamoatchilikni, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish va ular faoliyatini rag'batlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini ta'minlashga hissa qo'shgan xodimlarni rag'batlantirish.

8. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada faoliyat yuritayotgan davlat organlari tizimida ma'muriy-byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, ro'yxatga olish, ruxsat etish va lisenziyaga doir tartib-taomillarni amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yanada soddalashtirish.

9. Davlat vakolatli organlarini nazorat-tekshiruv vazifa-larini amalga oshirishga qaratilgan reja yoki dasturlarni tasdiqlash yoki buyruq, farmoyish hamda ichki nazorat faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarda korrupsiyani oldini olish bo'yicha aniq qoida va tartiblarni belgilash.

10. Tadbirkorlik subektlarining faoliyatini tekshirish tizimini takomillashtirish, ularning faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini qonunchilik-da yanada takomillashtirilgan holda zamon talablariga muvofiq ravishda mustahkamlash.

11. Davlat organlari va tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni nazorat qilishning masofaviy shakllarini keng joriy etish asosida tadbirkorlik subektlari faoliyatida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida taklif va tavsiyalar berish.

12. Har bir sohada o'zining xususiyatidan kelib chiqib, "Axloq-odob qoidalari"ni tasdiqlash, mazkur qoidalarning alohida bo'limida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish qoida hamda tartiblarni belgilab qo'yish.

13. Har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tashkil etish, xodimlarning bu sohadagi javobgarliklarini ichki lokal hujjatlarda aniq belgilab

qo'yish, yuridik xizmat rolini oshirish, korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali tashkil etish bo'yicha xodimlar javobgarligini aniq belgilash.

14. Eng muhimi, davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralari ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash asosida jamiyatda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ishlar samaradorligini oshirish.

15. Harakatlar strategiyasi hamda "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturiga muvofiq har bir sohada korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq qilishga qaratilgan ustuvor vazifalarni belgilab olish.

16. Jamiyatda korrupsiyani olini olish va unga qarshi kurashish dasturlar ijrosini ta'minlashda jamoatchilik nazorati samaradorligini ta'minlash maqsadida davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yanada kuchaytirishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

17. Jamiyatda huquqiy madaniyatni, yuksak ma'naviyatni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, inson huquqlari, manfaatlarini va erkinliklarini ta'minlashda davlat organlari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish asosida jamoat nazorati tamoyillarini hayotga yanada keng va izchil joriy etishga qaratilgan normalarini yaratish.

18. Iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar shu jumladan, korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan innovasion loyihalarni ijtimoiy, iqtisodiy hayotga joriy qilishga qaratilgan normalarni ishlab chiqish.

19. Tadbirkorlarning ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy bilimlarini muntazam ravishda oshirib borishni yo'lga qo'yish

20. Ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ayniqsa qishloq tumanlarida bandlikni ta'minlashga qaratilgan dasturlar ijrosini bajarilishi bo'yicha jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish va bu sohada davlat organlari bilan hamkorlik qilishni yanada kuchaytirish.

21. Mamlakatimizda ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish hamda eksportga yo'naltirilgan tovarlar va xizmatlarni amalga oshirishga qaratilgan dasturlar va biznes loyihalarni tartibga soluvchi qonunchilikning huquqiy mexanizmlarini yanada soddalashtirilgan holda ishlab chiqish.

22. Aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashga qaratilgan innovasion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini yanada mukammallashtirish.

23. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar markazida inson huquqlari va manfaatlarini davlat hamda jamiyat oldida turgan ustuvor vazifa sifatida

belgilanligini e'tiborga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini zamon talablari darajasida tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni OAV keng yoritilishini yo'lga qo'yish.

24. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida "Kam ta'minlangan oila" va "Yordamga muhtoj oila"ning huquqiy maqomlarini iste'mol savatchasini e'tiborga olgan holda qonun darajasida belgilash.

25. Har yili byudjet tashkilotlariga ajratiladigan subsidiyalar bo'yicha ish haqi fondi smetasini tasdiqlashda O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq tuzilgan Jamoa shartnomasi va xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha lokal hujjatlarda belgilangan ijtimoiy kafolatlarni inobatga olish.

26. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdagi o'quvchilar sonini 30-35 nafardan, 20-25 nafarga tushirish asosida ta'lim samaradorligini oshirish.

27. Oliy ta'lim tizimida "onlayn", masofaviy tizimda o'qitish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish.

28. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligida "Ishsizlarni yagona ro'yxatini yuritish Markazi"ni tashkil etish orqali istiqbolda ishsizlikni tugatishga qaratilgan davlat dasturlarini qabul qilish.

**30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 8 avgustdagi "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillash-tirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF 5505-sonli farmoni talablariga muvofiq bank, moliya, investisiya va kredit munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlar inventarizatsiyasini o'tkazish asosida quyidagilar taklif etiladi:** - bank, moliya, investisiya va kredit munosabatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va kodifi-kasiya qilish;

- bank, moliya, investisiya va kredit sohalarida to'g'ridan-to'g'ri amaliyotda qo'llanadigan qonunlar asosida huquqiy tartibga solish amaliyotini joriy qilish asosida idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni imkon qadar qisqartirish;

- tijorat banklari Kengashlari tomonidan kredit va bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tasdiqlanadigan ichki meyoriy hujjatlar bank mijozlarining manfaatlarini inobatga olish asosida qabul qilish tizimini joriy qilish;

- mazkur sohada umumiy tusdagi, harakatsiz va huquqni qo'llash amaliyotiga ta'sir etmaydigan qonun hujjatlarini, shuningdek qaramaqarshiliklar, takrorlash va parallelizmni bartaraf etish;

- asossiz cheklovlar, ortiqcha ma'muriy tartib qoidalar va eskirgan mexanizmlarni bekor qilish.

31. "Fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan xodimlarni ishga qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorini qabul qilish asosida qishloq tumanlarida istiqomat qiluvchi aholining norasmiy bandligi darajasini pasayish imkoniyatini yaratish.

32. Zamonaviy yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanayotganligini inobatga olib, “biz korrupsiyaga qarshimiz” shiori ostida aksiyalar o‘tkazish. Bu bilan yoshlarni bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan bilim va ko‘nikmalarini tizimli ravishda oshirib borish;

33. Xalq tizimi sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha alohida chora-tadbirlar ishlab chiqish.

34. ***Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini ta‘minlash modeli ishlab chiqish bo‘yicha quyidagi-lar taklif etiladi: i o‘rganish markazi memorandum***

–korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligiga erishish modelini ishlab chiqishda korrupsiyani oldini olish va unga tizimli ravishda qarshi kurashishning aniq huquqiy mexanizmi, samarali institusional tuzilmasi ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;

–korrupsiyaga qarshi kurashishda moliyaviy va mehnat resurslari samarali foydalanishning innovasion yo‘llarini ishlab chiqish, muntazam monitoring olib borish va zudlik bilan asosli qarorlar qabul qilish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqishda innovasion yondashuvlarni samarali qo‘llashga qaratilgan loyiha-larni qo‘llab-quvvatlash;

–davlat organlarining fuqarolik jamiyatining barcha institutlari bilan hamjihat faol harakatini ta‘minlash, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda milliy tuzilmalarning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor berish;

• Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida integrasiyaga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillardan biri – jinoyat va jinoyat prosessual qonunchiligini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha moddalarini islohotlar talablariga muvofiq ishlab chiqish;

• korrupsiyani keltirib chiqarayotgan holatlarni o‘rganish, tahlil qilish va korrupsiyani oldini olishga qaratilgan dasturlar, chor-tadbirlarni ishlab chiqishda aniq statistik dalillarga asoslanish.

–jamiyatning ijtimoiy sohalarida xususan, tadbirkorlik, ta‘lim, sog‘liqni saqlash jumladan, huquqni muhofaza qilish sohalarida korrupsiyaga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish, korrupsiya bilan bog‘liq ayrim xatti-harakatlarga barham berishga qaratilgan dasturlar ijrosini barcha sohalarida ta‘minlash hamda xalqaro tajribani o‘rganish asosida xalqaro hujjatlarda nazarda tutilgan standartlarni qonunchilikda mustahkamlash;

–jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturi ijrosini ta‘minlashda davlat organlari faoliyati ochiqligi tamoyilini amalda qo‘llash, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini xalqaro huquq talablari asosida takomillashtirish;

–korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib jamiyatda real ishlaydigan strategiyani ishlab chiqish asosida zamonaviy

tendensiyaga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashish, masalan mamlakatimizda davlat xizmatlari agentligini tashkil etilganligi va xalqimizga xalqaro talablar asosida xizmat qilinayotganligi jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashishning yangi bosqichini boshlab berilganligi fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashish daxldorligini oshirishda muhim qadam va huquqiy yechimlardan bo‘layotganligini qayd etish, tushuntirish hamda ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish;

–korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish ishlarini tashkil etishda jamiyat a‘zolari bo‘lgan fuqarolarimizni faol ishtirokini kuchaytirish, korrupsiyaga tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘rganish imkoniyatini yaratish, yangi kompyuter texnologiyalardan foydalangan holda korrupsiya holatlari haqida axborot berish, korrupsiyaga oid muammolarni hal qilish va bartaraf etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish asosida jamoatchilik nazoratini ta’minlashning izchil tizimini yaratish;

–O‘zbekistonda har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashishda soha xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish, korrupsiya holatlari-ning oldini olishga qaratilgan yangi innovasion usullarini ishlab chiqish va qo‘llash, korrupsiya holatlarini ekspertizadan o‘tkazish, monitoring qilish va baholash, jamiyatda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqish jamiyatni qonuniy rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekiston Respublikasini BMTning “Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi”ga qo‘shilishi.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni va qarorda belgilangan vazifalar.
3. Korrupsiyaga qarshi kurash subektlari va idoralararo komissiyaning asosiy vazifalari.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarida fuqarolar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish mexanizmlari.
5. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi (27.05.2019),
6. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (PF-6013, 29.06.2020), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida belgilangan vazifalari.
7. “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini faoliyatini faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi (PQ- 4761, 29.06.2020) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorining mazmun mohiyati.
8. O‘zbekiston milliy taraqqiётining yangi bosqichida korrupsiyaga qarshi kurashdagi natijalari va ularning ahamiyati.
9. Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining tashkil etilishi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: Gʻafur Gʻulom. 2017.
2. Sharifxoʻjayev M. Oʻzbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirgʻizboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: Oʻzbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
6. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lugʻati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t. 7. Utamuradov A, Qirgʻizboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / Oʻquv qoʻllanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz soʻz. 2018. 395 bet.
8. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati gʻoyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

## **4–amaliy mashg‘ulot: “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident farmonida belgilangan vazifalar.**

(2 soat)

### **REJA:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
2. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya”. 3. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazrati.

**Tayanch iboralar:** Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik choralari. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi asosiy vazifasi va yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillar va ularni oldini olish choratadbirlari. Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquq va majburiyatlari va tizimi.

**Bizga ma‘lumki, keyingi ikki yilda mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida erishilgan yutuqlar nafaqat yurtimizda balki Markaziy Osiyo hayotiga yangicha taraqqiyot va yangicha ruh olib kirganligini xalqaro ekspertlar tomonidan tan olinib, ommaviy axborot vositalarida qayd etilmoqda. Qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatishning huquqiy asoslari qonun ijodkorligi asosida yaratildi va hayotga izchil tadbiriq etilmoqda.**

2018 yil mamlakatimiz tarixida inson manfaatlarini ta‘minlash, tadbirkorlik subektlari faoliyati va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, fan bilan ishlab chiqarish integrasiyasini mustahkamlash, yosh avlodni barkomol va vatanparvar avlod sifatida tarbiyalash hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yanada rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ijrosini ta‘minlash orqali jamiyatni farvonlashtirishga qaratilgan qonuniy, tizimli harakatlar davri bo‘lganligini xalqaro ekspertlar tomonidan qayd etilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan “Obod qishloq” va “Obod mahalla”, “Har bir oila - tadbirkor” hamda “Yoshlar kelajagimiz” sog‘liqni saqlash sohasida tasdiqlangan dasturlar doirasida amalga oshirilgan ishlar jamiyat a‘zolari hisoblangan barcha fuqarolarimiz qalbida OnaVatan bilan faxrlanish hamda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etish, Vatan va islohotlar taqdiriga daxldorlik tuyg‘usi ishonchli asosda shakllanishiga xizmat qilganligini qayd etish lozim bo‘ladi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida **“Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va**

**erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlagan edi.**

Bugun kunda davlatimiz rahbari tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan Harakatlar strategiyasi fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni demokratlashtirish va modernizasiya qilishdagi rolini ham yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarmoqda. Ushbu yo‘nalishda Harakatlar strategiyasiga asosan nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Harakatlar strategiyasining muvofiq 2019 yilda O‘zNNTMA va hududiy bo‘limlari faoliyati bo‘yicha Davlat dasturi ijrosiga NNTlarni keng jalb qilishdagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat qilib belgilangan:

- **birinchidan**, jamoatchilik boshqaruvi tizimini islohotlar talablariga muvofiq takomillashtirish asosida jamiyatda O‘zNNTMAning o‘rni va nufuzini oshirish hamda faoliyatini kompleks rivojlantirish, jamiyatda jamoatchilik nazorati samaradorligini yuksaltirish, davlat organlari bilan ijtimoiy sheriklikni yanada kuchaytirishga qaratilgan amaliy choralarni qaror toptirishda faol ishtirok etish;

- **ikkinchidan**, jamiyatda huquqiy madaniyatni, yuksak ma’naviyatni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, inson huquqlari, manfaatlari va erkinliklarini ta’minlashda davlat organlari bilan hamkorlikni yanada jadallashtirish asosida jamoat nazorati tamoyillarini hayotga yanada keng va izchil joriy qilish;

- **uchinchidan**, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni, innovasion loyihalarni milliy iqtisodiyotga joriy qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik bilimlarini shakllantirishda davlat organlariga ko‘maklashish;

- **to‘rtinchidan**, ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta’minlangan aholi qatlamlarini bandligini ta’minlashga qaratilgan dasturlari ijrosini bajarilishi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini samaradorligini oshirishda davlat organlari bilan hamkorlik qilishni yanada kuchaytirish;

- **beshinchidan**, mamlakatimizda ishchi kuchi raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan dasturlar va loyihalarda faol ishtirok etish; □ **oltinchidan**, aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilashda NNTlarning innovasion faolligini yuksaltirishga qaratilgan loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;

- **yettinchidan**, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar markazida inson huquqlari va manfaatlari davlat va jamiyat oldida turgan ustuvor vazifa sifatida belgilanligini e’tiborga olgan holda O‘zNNTMA va quyi bo‘g‘inlari tomonidan hamda boshqa hamkor tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda mazkur sohani keng yoritishda faol ishtirok etish.

Mamlakatimizda hayotga tatbiq qilingan islohotlarning mazmunmohiyati inson huquqlarini himoya qilish va ularga ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish asosida bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.



Prezidentimiz SH. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida “Shu yil noyabr oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan Inson huquqlari bo‘yicha Osiyo forumida dunyodagi taniqli siyosatchilar, ko‘zga ko‘ringan olim va ekspertlar tomonidan bu borada o‘tgan qisqa davrda amalga oshirgan ishlarimizga munosib baho berildi. Ta’kidlash kerakki, ushbu anjuman O‘zbekistonning jahondagi obro‘si va nufuzini yanada oshirdi. Eng muhimi Osiyo forumi inson huquqlari bo‘yicha xalqaro amaliyotga “Samarqand ruhi” degan tushuncha va tamoyilni olib kirdi”<sup>[9]</sup> deb ta’kidladi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi inson huquqlariga oid birinchi universal xalqaro hujjat hisoblanadi.

Mazkur hujjat muqaddima va 30 ta moddadan iborat bo‘lib, unda insonning asosiy fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlari va erkinliklari belgilangan.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi 1991 yil 30 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikasiya qilingan.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi –O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng tan olgan dastlabki xalqaro huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu Deklarasiyaning barcha asosiy tamoyillari O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida o‘z ifodasini topganligi hamda xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq konstitusiyaviy qoidalar sifatida mustahkamlab qo‘yilganligi mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ishlarini samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2017 yil 7 fevralda tasdiqlangan **“2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”** mamlakati-mizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash tizimini yanada rivojlantirishning yangi bosqichini boshlab berilganligida ko‘rish mumkin.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda, O‘zbekiston insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hamda ma’rifiy huquqlari to‘g‘risida qonunchilik tizimi amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga muvofiq shakllantirildi.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tartibga soladigan 12 ta konstitusiyaviy qonun, 17 ta kodeks va 700 tadan ortiq qonunlar qabul qilinganligi hamda O‘zbekiston mustaqillik yillarida inson huquqlari bo‘yicha 80 dan ortiq asosiy xalqaro hujjatlarga qo‘shilganli-gi va BMT tomonidan ushbu sohada qabul qilingan 10 ta asosiy xalqaro shartnoma ishtirokchisi sifatida bu sohada tizimli ravishda faoliyat ko‘rsatayotganligi jamiyatda inson huquqlarini himoya qilish ishlarini izchil rivojlanayotganligida ko‘rish mumkin.

Bu yil Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlanmoqda. Shu asosda O‘zbekiston Prezidentining 2018 yil 5 maydagi Farmoni bilan **“Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi qabul qilinganligining 70 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi”** tasdiqlanganligi va

hayotga izchil tatbiq etilganligi bois, jamiyatda inson huquqlariga oid masalalarni hal etishda advokatlarning professional faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan qonunchilik tizimi yaratilganligi va amaliyotda qo'llanilayotganida ko'rish mumkin.

Deklarasiyaning 70 yilligiga bag'ishlangan Dastur, o'z navbatida Harakatlar strategiyasida belgilab olingan ustuvor vazifalarni amalga oshirish doirasida O'zbekistonning xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subekti sifatidagi rolini yanada mustahkamlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatlarni yoritish uchun keng axborot va ma'rifiy faoliyat amalga oshirilayotganligi, o'tgan davrda inson huquqlari bo'yicha 120 dan ortiq asosiy xalqaro huquqiy hujjatlar o'zbek tiliga tarjima qilinganligi va katta adadlarda nashr etilganligi natijasida jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolarimizning u yoki bu jamoat tashkilotlarining a'zosi sifatida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etish va ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishga undamoqda.

Keyingi ikki yilda inson huquqlari va manfaatlariga bog'liq masalalar bo'yicha xalqning fikr va mulohazalari hamda murojjaatlari umumlashtirilgan holda o'rganildi, davlat dasturlari qabul qilinib ijrosi ta'minlanmoqda.

***Mamlakatimizda inson huquqlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan ishlar davlat tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, davlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda:***

-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2017 yil 16 iyundagi 921-III/KQ-200-III-sonli Qo'shma qarorining 1-ilovasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissarining Boshqarmasi bilan hamkorlikni yanada rivojlantirishga doir Harakatlar rejasi tasdiqlangan;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrda **“2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida”**gi 841-sonili qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror, Vazirlar Mahkamasi tomonidan: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini (keyingi o'rinlarda BRM deb ataladi) izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida qabul qilingan.

#### **Ushbu Qarorning 1-bandi bilan:**

• 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar 1 – ilovaga muvofiq tasdiqlangan;

- 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash tarkibi 2- ilovaga muvofiq tasdiqlangan;

- 2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 3 –ilovaga muvofiq tasdiqlangan [10].

- 2017 yilda Davlat byudjetidan **5,6** trillion so‘mi “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari va arzon uy-joylar qurilishini moliyalashtirilishiga yo‘naltirilganligi ham fikrimiz dalilidir.

Mamlakatning bosh moliyaviy hujjatini taqdim etish amaliyotida birinchi marta 2019-2021 yillarda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari prognozi berildi.

Unga ko‘ra: 2019 yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o‘sishi keyingi yillarda uning ijobiy dinamikasini saqlab qolgan holda 5,4 foiz (2020 yilda 6,0 foiz, 2021 yilda 7,0 foiz miqdorda bo‘lishi nazarda tutilmoqda). Xususan, sanoat ishlab chiqarish hajmi 4,9 foiz, qurilishda 8,4 foiz, qishloq xo‘jaligida 3,3 foiz va xizmatlar sohasida 6,2 foiz ko‘payadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar 17,0 foiz, tovarlar va xizmatlar eksporti 15,5 foiz hamda import 6,3 foiz o‘sadi [11].

**Mamlakatimizda davlat tomonidan xalq manfaatini inobatga olgan holda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilish ishlarini bugungi kun talablari darajasida tashkil etishga xizmat qilayotganligida ko‘rish mumkin:**

- **birinchidan**, mazkur Samarqand shahrida Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasini qabul qilinganligining 70 yilligi munosabati bilan 2018 yil 22-23 noyabr kunlarida Inson huquqlari bo‘yicha o‘tkazilgan Osiyo forumining tarixiy ahamiyati shundan iboratki: ushbu forumda Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand deklarasiyasi xalqaro huquqiy hujjat sifatida qabul qilindi. ***Shu bilan birga, jahon miqyosida Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand ruhi namoyon bo‘lishiga asos solindi;***

- **ikkinchidan**, mazkur Forumda Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand deklarasiyasini qabul qilinishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat dasturlarida inson huquqlariga oid masalalarni yanada rivojlantirish va ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘rifiy sohalarda ijrosini ta‘minlanishida muhim huquqiy hujjat sifatida xizmat qiladi;

- **uchinchidan**, ushbu Osiyo forumida tarqatilgan nashrlarda Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi uch tilda taqdim etilib, mahalliy va xorijiy o‘quvchilar, inson huquqlarini himoya qilish tizimi xodimlari, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, talabalar, olimlar va davlat boshqaruv organlari xodimlari uchun mo‘ljallanganligi ham jamiyatda inson huquqlarini himoya qilishni samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

• **to‘rtinchidan**, O‘zbekistonda Inson huquqlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tajribasi shuni dalolatlaydiki, Inson huquqlarini ta‘minlash muammosi mamlakatimizda faqat davlatniki emas, balki, butun bir jamiyatning diqqat markazida ekanligi, davlat tomonidan bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar islohotlar talablari va xalqaro hujjatlarga mos ekanligi ma‘ruzachilar tomonidan qayd etildi.

• **beshinchidan**, mazkur forumda qabul qilingan Inson huquqlari bo‘yicha Samarqand deklarasiyasini tarixiy xalqaro huquqiy hujjat sifatida o‘rganish va unga amal qilish barcha davlatlarda ham Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ishlarni sifat jihatida yuqori bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida Samarqand deklarasiyasi Inson huquqlari bo‘yicha universal huquqning manbasi sifatida inson va jamiyat ruhiyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini qayd etish lozim bo‘ladi.

Jahondagi taniqli bo‘lgan ekspertlar va davlat rahbarlari hamda jamoat arboblarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarga berilgan asosli hamda ijobiy bahosi davlat va jamiyat hamkorlikda taraqqiyot sari dadil qadamlar bilan borayotganligini hamda inson huquqlari himoya qilish ishlari xalqaro huquq talablari asosida yuksalayotganligini bildiradi.

Yurtboshimizning **“Mamlakatni demokratik yangilanish jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish choratadbirlarlari to‘g‘risida”**gi Farmoni ana shunday yuridik hujjatlardan biri bo‘lib davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo‘yicha o‘zaro fikr almashish uchun samarali munosabatlar maydonlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Ushbu Farmon fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish, ularni iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, **“uchinchi sektor”**da band bo‘lgan aholini ijtimoiy himoya qilish borasida bir qator imtiyozlarni belgilab berdi:

-2018 yil 1 iyundan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlarning tadbirlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan kelishish talab etilmaydi, balki bunday tadbirlar haqida xabardor qilish belgilab qo‘yildi;

-shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi miqdori **25** foizdan **15** foizgacha kamaytirildi;

Farmon chiqmasidan oldingi hujjatlarda jamoat fondlarining har yilgi ma‘muriy xarajatlari, vasiylik kengashi va taftish komissiyasi a‘zolariga to‘lanadigan haq hamda ularning o‘z vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq xarajatlarning kompensasiya qilish fond barcha xarajatlari summasining 20 foizdan oshmasligi o‘rgatilgan bo‘lsa, endilikda ushbu summa **30** foiz qilib belgilandi. Shu asosda jamoat fondlariga o‘zlarining faoliyatini tashkil etish uchun ko‘proq mablag‘ jalb etishga ruxsat berildi;

Farmonning eng muhim e‘tiborli tomoni shundaki, nodavlat notijorat tashkilotlarining pensioner xodimlariga pensiya to‘liq to‘lanishi belgilab qo‘yildi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev rahbarligida keyingi ikki yilda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va uning institutlarini rivojlantirishga qaratilgan normativ–huquqiy asoslarni takomillashtirishda muhim qadamlar qo‘yildi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 maydagi **“Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarini jamiyat hayotini yanada har tamonlama jadal rivojlantirish asosida hamkorlik harakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy demokratik institutlar faoliyatini samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan *Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat kengashi tashkil etildi.*

Farmonning tarixiy ahamiyati shundan iboratki, unda ushbu sohada mavjud bo‘lgan kamchiliklar asoslantirilgan va tahlil qilingan ravishda ko‘rsatib berilgan hamda Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning milliy modelini hamda shu asosda o‘rta va uzoq muddatli istiqbolga mo‘ljallangan strategik yo‘nalishlarni ishlab chiqishning zarurligi tahlillar asosida ko‘rsatib berilgan.

Bundan tashqari, bugungi shiddatli rivojlantirish davrida fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonlarida mamlakatimiz ijtimoiysiyosiy tizimida alohida muhim institut yoki subekt sifatida ishtirok etishini ta‘minlash va ularning faoliyatini davlat rahbari tomonidan qo‘yilgan vazifalar asosida tashkil etish, jamiyat va davlat oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois, mazkur Farmon jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashda muhim huquqiy omil va manba sifatida fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu Farmon mazkur yo‘nalishdagi dolzarb vazifalardan biri mamlakatda jamiyat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan jamoatchilik nazoratni amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklik samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini ijtimoiy–siyosiy faolligini rivojlantirish asosida umuminsoniy demokratik qadriyatlarni, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim yuridik hujjat sifatida xizmat qilishini qayd etish lozim bo‘ladi.

Qayd etish joizki, jahonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab konseptual-nazariy modellar mavjud va ishlab chiqilgan. Ushbu modellarning barchasi ham O‘zbekistonga mos kelmasligi mumkin.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan milliy modelni ishlab chiqishda davlat va fuqarolik jamiyatini o‘zaro qarama–qarshi qo‘yishga qaratilgan nazariy–konsepsiyalarni dasturilamal qilib olish bizning fikrimizcha, ehtimol noto‘g‘ri bo‘ladi. O‘zini–o‘zi boshqaruvchi fuqarolik jamiyati o‘z rivojining ma‘lum bosqichida davlat boshqaruvini o‘rnini to‘liq egallaydi deb ta‘kidlovchi

konsepsiyalarni ham, shubhasiz, amaliyotda qo'llash yaxshi natija bermasligi mumkin.

Bu masalada fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o'rtasida o'zaro bog'liq munosabatlar yagona maqsadlarga birlashtirilgan holda davlat va jamoatchilik institutlarining o'zaro hamkorligini ta'minlash orqali erishishga qaratilgan nazariy xulosalarga tayanish maqsadga muvofiq bo'lishini qayd etamiz.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subektlar faoliyatini samaradorligini oshirish, ularning hamkorligini ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining jamoat boshqaruvidagi ishtirokini izchil kengaytirish uchun davlat tomonidan qulay shart sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Fuqarolik jamiyati institutlari xodimlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash ishlarini tizimli ravishda tashkil etish o'z navbatida joylarda ushbu sohadagi ishlarni samaradorligini ta'minlaydi.

Mazkur Farmonning 9-bandiga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda 2019 yil 1 yanvargacha bo'lgan muddatda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri markazlarida nodavlat notijorat tashkilotlarining hududiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, bo'shab yotgan va samarali foydalanilmayotgan davlat mulki obektlari negizida **«Nodavlat notijorat tashkilotlari uylari»**ni tashkil etish;

Mazkur binolarga yangi tashkil etilgan, shuningdek, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan sohalarda o'z faoliyatini amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarini ijara to'lovining **«nol»** stavkasini qo'llagan holda joylashtirish choralari ko'rish belgilangan bo'lsada, hozirgi kunga qadar faqatgina Xorazm viloyatida ushbu topshiriq to'liq amalga oshirildi va boshqa viloyatlarda ushbu masalaga jiddiy e'tibor berilmadi.

Ushbu Farmon mamlakatning har tomonlama va jadal rivojlanishida fuqarolik jamiyati institutlarining roli va ahamiyatini tubdan oshirish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan hamkorligini kuchaytirish hamda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasida](#) byelgilab berilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida qabul qilingan ahamiyatlidir.

Farmonning 1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha Maslahat Kengashi tashkil etilgan bo'lib, Quyidagilar Maslahat kengashining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- davlatning va fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan sayharakatlarini birlashtiruvchi zamonaviy, demokratik hamda ochiq-oshkora maydon sifatida ularning yuqori darajadagi tizimli va samarali muloqotini yo'lga qo'yish;

- o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash va milliy modelini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyasi haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini muntazam ravishda xabardor qilish;

- davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorligining zamonaviy mexanizmlarini, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish choralarini joriy qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

- ekspertlar guruhlarini ishtirokida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni tashkil etish yuzasidan tashabbus ko‘rsatish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi davlat siyosati va uning amaliy natijalari haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli ravishda o‘rganish, umumlashtirish va tahlil qilishni tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritish;

- fuqarolik jamiyatining rivojlanishini, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari bilan hamkorligi darajasini, shuningdek, ularning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qo‘shayotgan hissasini baholovchi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqish, bu ko‘rsatkichlar asosida davriy va maxsus, shu jumladan muqobil ma‘ruzalar tayyorlanishini tashkil etish;

- fuqarolik jamiyati institutlariga ularning xalqaro hamkorligini rivojlantirishda, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganishda va ushbu tajribani O‘zbekiston sharoitida joriy etishda ko‘maklashish.

**Ushbu Farmonning 4-bandiga asosan 2018 yil 1 iyundan boshlab quyidagi huquqiy tartib joriy qilingan:**

• ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan nodavlat notijorat tashkilotlarining tadbirlarini kelishish tartibi rejalashtirilayotgan tadbirlar haqida xabardor qilish tartibi bilan almashtirish;

• nodavlat notijorat tashkilotlarining hisobvaraqlariga chet davlatlardan, xalqaro va xorijiy tashkilotlardan, chet davlatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig‘iga binoan boshqa shaxslardan ularning ustavlarida (nizomlarida) nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish uchun kelib tushgan pul mablag‘laridan va mol-mulkdan, ularni olish ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan belgilangan tartibda kelishilgandan so‘ng, biron-bir to‘siqlarsiz foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasidagi nodavlat notijorat tashkilotlari uchun ajratilgan grant mablag‘lari mazkur tashkilotlarning mamlakatdagi istalgan bank muassasalarida ochilgan maxsus hisobvaraqlariga kelib tushishi mumkinligi;
- mehnatga haq to‘lash fondini tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan kelib tushgan mablag‘lar hisobidan shakllantiruvchi nodavlat notijorat tashkilotlari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi **15 foizdan** ko‘p bo‘lmagan miqdordan oshmasligi;
- jamoat fondi ma‘muriy xarajatlarining, shuningdek, vasiylik kengashi va taftish komissiyasi a‘zolariga beriladigan mukofot puli to‘lovlarining va ular o‘z vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq xarajatlar kompensasiyasining yillik umumiy summasi fondning barcha xarajatlari summasining **30 foizidan** oshmasligi;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining pensioner xodimlariga pensiya ularning mazkur tashkilotlardagi faoliyati yagona ish joyi bo‘lgan taqdirda, to‘liq to‘lanishi yuridik jihatidan mustahkamlab qo‘yilgan.

Mazkur Farmonning 5-bandi a) kichik bandi bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2019 yil 1 yanvargacha bo‘lgan muddatda quyidagilarga doir hujjatlarni elektron tarzda taqdim etish imkoniyatini ta‘minlovchi elektron tizimni ishlab chiqish va joriy etish belgilab qo‘yilgan:

- nodavlat notijorat tashkilotlarini va ularning ramzlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga, qayta ro‘yxatdan o‘tkazishga;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘tkazilishi rejalashtirilayotgan tadbirlari haqida xabardor qilishga;
- nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi yillik hisobotlariga;
- nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan chet davlatlardan, xalqaro va xorijiy tashkilotlardan, chet davlatlarning fuqarolaridan yoki ularning topshirig‘iga binoan boshqa shaxslardan pul mablag‘lari va molmulk olishni kelishishga;

b) ikki oy muddatda:

- nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish va o‘rganish turlari, muddatlari, davriyligi va boshqa tartib-taomillarini nazarda tutuvchi tartibni ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat statistika qo‘mitasi bilan birgalikda nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi, soliq va statistika organlariga taqdim etiladigan hisobot shakllarini hamda uni taqdim etish tartibini soddalashtirish bo‘yicha choralar ko‘rish.

Bizga ma‘lumki, davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini beshta ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan.



Mazkur harakatlar strategiyasiga muvofiq, mamlakatimiz sog‘liqni saqlash sohasida tizimli ravishda islohotlar amalga oshirildi:

- “2018 yilda mamlakatimiz tibbiyot sohasiga 9,6 trillion so‘m yo‘naltirilgan bu o‘tgan yildagiga nisbatan 1,4 barobar ko‘pdir;
- 382 ta tibbiyot obektida qurilish-ta‘mirlash ishlari jadal olib borilmoqda ushbu maqsad uchun Davlat byudjetidan 1,2 trillion so‘m mablag‘ ajratilgan;
- joriy yilning o‘tgan 9 oyi mobaynida shoshilinch tibbiy yordam xizmatiga aholidan 7 milliondan ko‘proq murojaatlar tushgan. Ularning 6 milliondan ziyodiga tez tibbiy yordam tizimi orqali tibbiy xizmati ko‘rsatildi;
- joriy yilning 9 oyi davomida 635 ta yangi xususiy tibbiyot muassasasi tashkil etildi va ularning umumiy soni 4312 taga yetdi;
- hozirgi kunda mamlakatimizda 150 dan ziyod farmasevtika korxonalarini faoliyat yuritayapti;
- 2018 yilning o‘tgan davrida:
  - 165 ta poliklinikada qurilish-rekonstruksiya ishlari olib borildi;
  - 125 ta qishloq vrachlik punkti, 180 ta oilaviy poliklinikaga 6,5 million AQSH dollarilik tibbiyot uskunalari yetkazib berildi;
  - 2000 mingdan ziyod ijtimoiy dorixonalar va 1233 ta tez tibbiy yordam shoxobchasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentimiz SH. Mirziyoyevning 2017 yil 25 dekabrda “2018-2022 yillar davomida bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarori bilan bolalarda genetik sindromlarni erta tashxislash, nasliy kasalliklarga chalingan chaqoloqlarni ommaviy skrining tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha muhim vazifalar amalga oshirildi.

Ayni paytda:

- respublikada va 12 ta hududiy skrining markazi ishlab turibdi. Ularning faoliyati tufayli o‘tgan yilning o‘zida 214 ming nafardan ziyod homilador ayollar perinatal tekshiruvdan o‘tkazildi;
- 3,4 mingga yaqin tug‘ma nuqsonli bolalar tug‘ilishi oldi olindi. Joriy yilning 9 oyi davomida go‘daklar o‘limi o‘tgan yilning shu davridaligiga nisbatan 571 taga kamaydi;
- Davlat tibbiyot muassasalarida tibbiyot va farmasevtika xodimlarining mehnatga haq to‘lash miqdorlari 2018 1 dekabrda 1,2 baravar va 2019 yil 1 aprelda 1,15 baravar bosqichma-bosqich oshiriladi”[\[12\]](#).

Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mamlakatimizda nogironligi bor, yakka-yolg‘iz qolgan ayollar va hayotda qiynalgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash ishlari islohotlar talablari asosida tizimli ravishda izchil amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida tashkil etilgan “Xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondiga har yili Davlat byudjetidan ajratiladigan 300 milliard so‘mlik pul mablag‘i Fondga ajratilgan.

Ushbu mablag‘lar uchta yo‘nalishga quyidagi tarzda sarflangan.

“**Birinchisi**, ushbu fondagi 100 milliard so‘m nogironligi bor, yakkayolg‘iz qolgan ayollarga, hayotda qiynalgan oilalarni uy-joy bilan ta‘minlashda birinchi badalni to‘lab berishga ajratiladi. Uy-joy uchun to‘lanadigan qolgan pullarni esa, ular ipoteka kreditidan 20 yil davomida to‘lab borishadi. Bunday muhtoj ayollar ro‘yxati quyi bug‘inlarda shakllantiriladi. Hokimliklar qoshida turli soha vakillardan iborat maxsus komissiya kelib tushgan arizani xar tomonlama o‘rganib chiqadi. Uning xulosasi asosida arizasi ro‘yxatga kiritiladi. Komissiya taqdim etgan ushbu ro‘yxatlar Fondning qoshida tuzilgan vasiylik kengashi tomonidan yana bir bor o‘rganilib chiqilgach, mablag‘ viloyatlarga ajratib beriladi.

**Ikkinchisi**, ushbu fondagi 100 milliard so‘m ayollar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun banklarga o‘tkazib beriladi. Eng quyi bo‘g‘inlardagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanaman degan ayollar bir haftalik kurslarda o‘qitilgach, Xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyasi bilan ularga bankdan 7 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi.

**Uchinchisi**, ushbu fondagi qolgan pullar moddiy-ma‘naviy qo‘llabquvvatlash maqsadida nogironligi bo‘lgan ayollarga kerakli tibbiy jihozlar, muhtojlarning to‘y marakasini o‘tkazish uchun sarflanadi.

Ushbu say-harakatlar samarasida joriy yil o‘tgan yilga nisbatan ayollar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik alomatlari 35 foizga kamaygan”[\[13\]](#).

O‘zbekiston Respublikasining “**Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida**”gi Qonunining qabul qilinishi va mazkur qonunda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy subektlarining biri sifatida belgilanishi o‘z navbatida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirish asosida rivojlantirish va ularning jamiyatdagi rolini oshirish bilan birgalikda bu sohada mehnat qilayotgan xodimlarning mas‘uliyat va malakasini muntazam oshirib borish vazifalarini qo‘ydi.

*Adliya vazirligining ma‘lumotiga ko‘ra, 2018 yil 1 iyul holatiga adliya organlarida 9478 ta nodavlat notijorat tashkiloti va ularning alohida bo‘linmalari davlat ro‘yxatidan o‘tgan. Eng ko‘p NNT Toshkent shahri (808), Farg‘ona (802), Samarqand (745), Andijon (701) viloyatlarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.*

*Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati bo‘yicha xorij tajribasi sifatida* Yaponiya tajribasi o‘rganilganda ularning tarixan shakllangan o‘zini-o‘zi boshqarish jamoalarida aholining ehtiyojmand qatlamiga ijtimoiy yordam ko‘rsatadigan ko‘ngillilar tashkilotlari faollik ko‘rsatadi. Shu maqsadda nafaqat davlat, balki, birinchi navbatda, biznes subektlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan jamoat fondlari tuziladi. Jamoalar ichida boshqa jamoatchilik tuzilmalari faoliyat ko‘rsatib, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro yordam va hamjihatlik muhitini shakllantirishga xizmat qilganligini ko‘rish mumkin.

*Jamoatchilik nazorati subektlari:* “O‘zbekiston Respublikasining **Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida**”gi Qonunining 3-moddasida jamoatchilik nazorati subektlari belgilab qo‘yilgan, unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda fuqarolar deb yuritiladi), fuqarolarning o‘zini o‘zi

boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subektlaridir. Jamoatchilik nazorati jamoatchilik kengashlari, komissiyalari va boshqa jamoatchilik tashkiliy tuzilmalari tomonidan ham qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

**Jamoatchilik nazoratining obektlari** “**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**”gi Qonunining 4-moddasida jamoatchilik nazorati obektlari belgilangan:

davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek rivojlanish davlat, tarmoq va hududiy dasturlarida jamoatchilik manfaatlarini, jamoatchilik fikrini hisobga olish; fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari talablarining ijro etilishini ta'minlashga o'z zimmasiga yuklatilgan, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni bajarishga; davlat xizmatlarini ko'rsatishga;

ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni bajarishga doir faoliyati jamoatchilik nazoratining obektidir.

**Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari** “**Jamoatchilik nazorati to'g'risida**”gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq Jamoatchilik nazoratining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: -qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi;

-jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriy-ligi; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi;

-jamoatchilik nazorati subektlarining xolisligi va beg'arazligi; jamoatchilik nazorati natijalarining ishonchliligi;

-jamoatchilik nazorati subektlarining davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuviga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'yilmasligi.

**“Jamoatchilik nazorati to'g'risida”**gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq Jamoatchilik nazoratining shakllari quyidagilardan iborat:

- davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar;
- davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etish;
- jamoatchilik muhokamasi;
- jamoatchilik eshituvi;
- jamoatchilik monitoringi; - jamoatchilik ekspertizasi;
- jamoatchilik fikrini o'rganish;

-fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish.

Jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

**Davlat organlariga murojaatlar va so‘rovlar.** Mazkur Qonunning 7 moddasiga muvofiq jamoatchilik nazorati subektlari davlat organlariga arizalar, shikoyatlar va takliflar bilan murojaat qilishga, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ularga so‘rovlar yuborishga haqli. Jamoatchilik nazorati subektlarining murojaatlari va so‘rovlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlari tomonidan ko‘rib chiqiladi. Jamoatchilik nazorati subektlarining axborot olishga bo‘lgan huquqi, agar mazkur axborot shaxsga doir ma’lumotlar yoxud davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar jumlasiga kiritilgan bo‘lsa, cheklanishi mumkin.

Qonunning 8-moddasiga asosan jamoatchilik nazorati subektlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat organlarining **ochiq hay’at majlislarida ishtirok etish huquqiga ega.** Davlat organlari o‘zining ochiq hay’at majlislarida jamoatchilik nazorati subektlari ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi.

**Jamoatchilik muhokamasi Ushbu Qonunning 9-moddasiga asosan** ijtimoiy ahamiyatga molik masalalarni, shuningdek normativhuquqiy hujjatlar, davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalarini **ommaviy muhokama qilish jamoatchilik muhokamasidir.**

Jamoatchilik muhokamasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o‘tkazishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasi turli ijtimoiy guruhlarining vakillari, shu jumladan muhokama etilayotgan masala o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan yoki daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy va ochiq o‘tkaziladi. Jamoatchilik muhokamasining ishtirokchilari jamoatchilik muhokamasiga kiritilgan masalalar yuzasidan o‘z fikrini erkin bildirishga va takliflar kiritishga haqli. Jamoatchilik muhokamasi ommaviy axborot vositalari orqali va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o‘tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik muhokamasining tashkilotchisi jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalar, muhokamani o‘tkazish muddati va tartibi to‘g‘risidagi axborotni oldindan e‘lon qiladi. Bunda tashkilotchi o‘z ixtiyoridagi, jamoatchilik muhokamasiga kiritilayotgan masalalarga taalluqli bo‘lgan materiallardan jamoatchilik muhokamasining barcha ishtirokchilari erkin foydalanishini ta‘minlaydi.

**Qonunning 10-moddasiga binoan,** davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining faoliyatiga taalluqli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yoxud fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarni muhokama qilish uchun tashkil etiladigan **yig‘ilish jamoatchilik eshituvidir.**

Jamoatchilik eshituvini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari o‘tkazishi mumkin.

Davlat organlarining va ular mansabdor shaxslarining faoliyatini jamoatchilik manfaatiga daxldor axborotni yig'ish, umumlashtirish va tahlil etish orqali **kuzatish jamoatchilik monitoringidir. (Qonunning 11-moddasi).**

Jamoatchilik monitoringini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoatchilik nazoratining boshqa subektlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik monitoringi ommaviy va ochiq o'tkaziladi. Jamoatchilik monitoringi axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda ham o'tkazilishi mumkin.

Jamoatchilik monitoringining tashkilotchisi jamoatchilik monitoringining obekti, uni o'tkazish muddati va tartibi to'g'risidagi axborotni oldindan e'lon qiladi.

**Jamoatchilik ekspertizasi** normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlarining boshqa qarorlari loyihalari fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, jamiyat manfaatlariga muvofiqligini aniqlash uchun **ularni o'rganish hamda baholashdan iboratdir (Qonunning 12-moddasi).**

Jamoatchilik ekspertizasini nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda o'tkazishi mumkin. Jamoatchilik ekspertizasining tashkilotchisi tegishli sohada zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni jamoatchilik asosida jalb etishi ham mumkin

**Jamoatchilik fikrini o'rganish** turli ijtimoiy guruhlarning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining qonun hujjatlari talablariga rioya etishiga, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga doir faoliyati to'g'risidagi fikrini baholash maqsadida axborotni yig'ish, umumlashtirish hamda tahlil etishdan iboratdir. **(Qonunning 13-moddasi).**

Jamoatchilik fikrini o'rganishni nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ommaviy axborot vositalari qonun hujjatlariga muvofiq o'tkazishi mumkin.

**Qonunning 14-moddasida. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat organlari mansabdor shaxslarining hisobotlari va axborotini eshitish belgilab qo'yilgan.**

Fuqarolar yig'ini: Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini; ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining, joylardagi ta'lim muassasalari rahbarlarining hisobotlarini; tegishincha oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari rahbarlarining axborotini; tegishli hududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining atrof-muhitni muhofaza qilish, hududning sanitariya holati, uni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish masalalariga doir hisobotlarini eshitadi.

**Qonunning 15-moddasida jamoatchilik nazorati subektlarining huquq majburiyatlari belgilab qo'yilgan:**

jamoatchilik nazoratini amalga oshirayotganda tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga, ularni tashkil etishga, shuningdek ularda ishtirok etishga; jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotni qonun hujjatlariga muvofiq davlat organlaridan so'rab olishga; jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlashga hamda ularni tegishli davlat organlariga ko'rib chiqish uchun yuborishga; fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, jamiyat manfaatlari buzilganligi faktlari aniqlangan taqdirda, materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborishga; davlat organlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki mansabdor shaxsga yoxud qonunda belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga; jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilishga haqlidir.

Jamoatchilik nazorati subektlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Jamoatchilik nazorati subektlari: jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi; qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq

bo'lgan cheklovlarga rioya etishi; davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari

doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi; davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi, shuningdek ular mansabdor

shaxslarining faoliyati uchun to'siqlar yaratmasligi; fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning

shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi; jamoatchilik nazoratini amalga oshirish chog'ida olingan axborotning tarqatilishi qonun bilan cheklangan bo'lsa, uning maxfiyligiga rioya etishi shart.

Jamoatchilik nazorati subektlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

**Davlat organlarining jamoatchilik nazorati sohasidagi huquq va majburiyatlari.** Davlat organlari:

- jamoatchilik nazorati subektlaridan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish to'g'risida va uning natijalari haqida axborot olishga;

- jamoatchilik nazorati natijalariga ko'ra tayyorlangan yakuniy hujjatlarda ko'rsatilgan takliflar va tavsiyalarga nisbatan asoslantirilgan e'tirozlarini jamoatchilik nazorati subektlariga yuborishga;

- o'zi amalga oshirayotgan faoliyat ustidan jamoatchilik nazorati masalalariga doir axborotni o'z rasmiy veb-saytlarida, shuningdek ommaviy axborot vositalarida joylashtirishga;

- jamoatchilik nazoratini o'tkazish tashabbusi bilan chiqishga haqli. Davlat organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat organlari:

- jamoatchilik nazorati subektlariga jamoatchilik manfaatiga daxldor bo‘lgan o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda taqdim etishi;

- o‘ziga jamoatchilik nazorati subektlari tomonidan yuborilgan murojaatlar va so‘rovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda ko‘rib chiqishi, murojaatlarga va so‘ralayotgan axborotga javoblar taqdim etishi, bundan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlar yoxud topshirilishi jamoat tartibiga va fuqarolarning hayotiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar mustasno;

- jamoatchilik nazorati subektlari tomonidan yuborilgan takliflar va tavsiyalarni, shuningdek yakuniy hujjatlar va materiallarni ko‘rib chiqishi shart. Davlat organlarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin. (Qonunning 17moddasi).

**Jamoatchilik nazoratining natijalari** Jamoatchilik nazoratining natijalariga ko‘ra bayonnoma, xulosa, ma‘lumotnoma shaklida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin. Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo‘ladi. Yakuniy hujjatda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda ko‘rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy qarorlar qabul qilinadi.

Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi (Qonunning 18moddasi).

“O‘zbekiston Respublikasi Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuning asosiy maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirishdan iborat. Jamoatchilik nazoratining obekti davlat organlarining faoliyati hisoblanadi.

Ekspertlarning fikricha jamoatchilik nazorati davlat nazoratidan farq qilib, asosiy maqsadi kimnidir jazolash emas, balki qabul qilinayotgan nomativ huquqiy hujjatlarda, dastur va qarorlarda jamoatchilik manfaatlari aks ettirilgan fikrlarni jumladan taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish asosida hisobga olish asosida jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo‘lgan qonun hujjatlarini ijrosini ta‘minlanishida jamoatchilik nazorati subektlarini faollashtirish orqali Harakatlar strategiyasiga muvofiq jamoatchilik nazorati mexanizmini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda jamoatchilik nazorati samarali natijalarga erishishi uchun fuqarolik jamiyatining yetakchi kuchi hisoblangan o‘rta sinf vakillari bo‘lgan mulkdorlar qatlamini uyushtirish hamda davlat organlar faoliyatini ochiqqligi va shafofligini ta‘minlanishi islohotlarni samarali yakunlanishiga xizmat qiladi.

**“O‘zbekiston Respublikasining Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi** Qonun ijrosini ta‘minlanishida 2018 yil 4 maydagi Farmon asosida tuzilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha Maslahat kengashini o‘rni beqiyos bo‘lib fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

bo'yicha davlat va jamiyat oldida turgan dolzarb masalarni muhokama qilish asosida yechimini topishda muhim rol o'ynashini qayd etish joiz bo'ladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati xususida so'z ketganda mamlakatimiz qonunchiligida nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ularga qanday huquqlar va majburiyatlar belgilanganligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

2007 yil 3 yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning:

- 4-moddasida, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi, ularni qo'llab-quvvatlash shakllari va shartlarini belgilaydi;

- yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini moliyaviy yoki boshqa jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin;

- 5-moddasida nodavlat notijorat tashkilotlari qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan har qanday faoliyat turini o'z ustavlarida belgilangan maqsadlari doirasida amalga oshirishi mumkinligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan mustaqildir, qonunlarda nazarda tutilganidan boshqa hollarda ularga hisobot bermaydi hamda ularning nazorati ostida bo'lmasligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish taqiqlanishi mazkur qonun bilan kafolatlanganligi;

- 6-moddasiga asosan, davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining qonun hujjatlariga muvofiq axborotni izlash, olish, tadqiq etish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlashga bo'lgan huquqini ta'minlaydi;

- axborotdan foydalanish tegishli materiallarni e'lon qilish yo'li bilan hamda ustavda belgilangan faoliyatni amalga oshirish maqsadida zarur axborotni olish uchun davlat organlari va ularning mansabdor shaxslariga so'rov bilan murojaat qilish huquqining nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ro'yobga chiqarilishi orqali ta'minlanishi;

- nodavlat notijorat tashkilotining so'roviga iloji boricha qisqa muddatda, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, so'rov olingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay javob qaytarilishi kerakligi;

- agar organ yoki mansabdor shaxs so'ralayotgan axborotga ega bo'lmasa, o'ziga murojaat etgan nodavlat notijorat tashkilotiga so'rov olingan sanadan e'tiboran yetti kundan kechiktirmay bu haqda ma'lum qilishi, shuningdek imkoniyatga qarab, unga bunday axborotga ega bo'lgan organning yoki mansabdor shaxsning nomini ma'lum qilishi shartligi;

- davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari nodavlat notijorat tashkilotlariga, bu tashkilotlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor



qonun hujjatlari, hujjatlar, qarorlar hamda boshqa materiallar bilan tanishib chiqish imkoniyatini yaratib berishi shartligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor axborot bepul beriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno ekanligi;

- 7-moddasiga muvofiq, nodavlat notijorat tashkilotlarining mulki daxlsiz va qonun bilan muhofaza qilinishi va nodavlat notijorat tashkilotlarining mol-mulki nasionalizasiya, rekvizisiya va musodara qilinmasligi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno ekanligi;

- 8-moddasida nodavlat notijorat tashkiloti, o'zining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar yuzasidan raddiya berilishini sud tartibida talab qilishga haqli ekanligi;

- agar nodavlat notijorat tashkilotining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalarida tarqatilgan bo'lsa, ayni shu ommaviy axborot vositalarida raddiya berilishi lozim. Agar bunday ma'lumotlar tashkilotdan yuborilgan hujjatda uchrasa, bunday hujjat almashtirilishi yoki chaqirib olinishi kerakligi;

- o'zining ishchanlik obro'siga putur yetkazuvchi ma'lumotlar tarqatilgan nodavlat notijorat tashkiloti bunday ma'lumotlarga raddiya berilishi bilan bir qatorda ularni tarqatish natijasida yetkazilgan zararlarning o'zni qoplanishini talab qilishga haqli ekanligi;

- 9-moddasida, nodavlat notijorat tashkilotining intellektual faoliyatning obektiv ifoda etilgan natijalariga va uning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan mutloq huquqi qonun bilan muhofaza etiladi hamda davlat tomonidan himoya qilinishini mustahkamlanganligi;

- 10-moddasida nodavlat notijorat tashkilotlari davlat organlarining g'ayri-qonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega ekanligi;

- nodavlat notijorat tashkilotlari o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilganda davlat boji to'lashdan ozod etilganligi;

- davlat organlarining g'ayriqonuniy qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) natijasida nodavlat notijorat tashkilotiga yetkazilgan zararning o'zni sudning qarori asosida qoplanishi kerakligi mustahkamlab qo'yilgan.

Yuqorida qayd etilgan Qonun normalarida mustahkamlangan kafolatlar, huquq va majburiyatlarga asoslangan holda joylarda nodavlat notijorat tashkilotlari davlat Dasturlarida belgilab qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish ishlarida

davlat organlari bilan izchil hamkorlikni ta'minlash jamiyatda jamoatchilik nazoratini samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiya to'g'risida"gi Qonunning 14-moddasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilab qo'yilgan.

Unga muvofiq, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Jamiyatda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan ishlarni tashkil etish va unda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratining asosiy subektlarining biri sifatida belgilanishi o'z navbatida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini tubdan takomillashtirish asosida rivojlantirish va ularning rolini oshirish vazifasini qo'ydi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutgan Davlat rahbarining 2018 yil 5 maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi maxsus Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonga muvofiq Prezident huzurida davlatning va fuqarolik institutlarining mamlakatni yanada jadal har tamonlama rivojlantirishga qaratilgan jamiyatdagi barcha harakatlarni hamda zamonaviy demokratik institutlarni ochiq-oshkora maydon sifatida birlashtiruvchi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha **Maslahat kengashi** tashkil etilganligi ham ushbu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, har bir davlat organi huzurida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatlarini yanada yuksaltirish uchun mazkur jamoatchilik kengashi a'ziligiga nodavlat notijorat tashkilotlari vakilari hamda kasaba uyushmasi faollari kiritish orqali har bir sohada korrupsiyaga

qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish yaxshi natija berishi mumkin.

Shuningdek, har bir sohada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab olinishi mazkur sohalarda korrupsiyani oldini olishga xizmat qiladi.

Yangi innovasion g'oyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilinishida muammolardan biri innovasion loyihalarni amalga oshirishda salohiyatli kadrlarning yetishmasligidir.

Har bir davlat organi huzurida korrupsiyaga qarshi kurashish choratadbirlarini ishlab chiqish va real hayotga joriy qilishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamda boshqa idoralar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish, kadrlarni tanlash, ayniqsa, rahbar xodimlarni tayinlashda korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bo'yicha bilim darajasini testlar orqali o'rganishni joriy qilish davlat organlari faoliyatida shafoflik va ochiqlikni ta'minlashga olib keladi, natijada jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarini roli oshib borishiga xizmat qiladi.

**Xulosa qilib shunday qayd etish lozimki**, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish masalalari dunyoning rivojlangan davlatlari va nufuzli xalqaro tashkilotlarning hamisha e'tiborida bo'lib kelgan.

Bizga ma'lumki, "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi Birlashgan Millatlar tashkiloti Bosh assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda Fransiyada, Parijdagi Shayo saroyida qabul qilingan. Ushbu hujjatning ishlab chiqilishiga Ikkinchi jahon urushi davomida jahon xalqlari boshidan kechirgan fojialar, vahshidiklar turtki bo'lgan. Mazkur hujjatda alohida madaniyat, millat va mintaqalar bilan cheklanmagan universal qadriyatlar mustahkamlanib, har bir inson irqi, tanasining rangi, dini, jinsi, tili, siyosiy yoki boshqa e'tiqodi, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy tabaqaviy va boshqa holatidan qat'i nazar, insoniyatga mansubligi nuqtai nazaridan ega bo'lishi lozim huquqlar belgilab qo'yilgan. Deklarasiya 30 moddadan iborat"[\[14\]](#)

BMT inson huquqlari sohasida jahon davlatlari bilan hamkorlikda o'zaro ma'qul norma-standartlarni ishlab chiqishda faol harakatni amalga oshirdi. Jahon miqyosida insonlarning ijtimoiy huquqlarini xalqaro huquqiy asoslari BMT Nizomining norma-prinsiplarida, inson huquqlari Umumjahon deklarasiyasining dasturiy qoidalarida, 1966 yilgi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Xalqaro paktning imperativ normalarida, shuningdek BMT konvensiyalarida o'z ifodasini topganligida ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda keyingi ikki yilda Davlatimiz rahbari tomonidan xalq manfaatlarini e'tiborga olingan holda amalga oshirilayotgan shiddatli islohotlarning mazmun mohiyati insonlarning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'rifiy hamda ma'naviy, tadbirkorlik huquqlarini ro'yyobga chiqarishga qaratilganligi va ularning davlat tomonidan har tomonlama qo'llabquvvatlanayotganligi hamda islohotlar yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarga muvofiq amalga oshirilayotganligi xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Albatta, “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” bo‘yicha tasdiqlanadigan dasturlar ijrosini ta’minlashga qaratilgan choratadbirlarni ishlab chiqishda tegishli davlat organlari bilan NNTlar hamkorligini yanada mustahkamlash bo‘yicha nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish amalga oshirilayotgan islohotlarni samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining mazmun mohiyati nimalardan iborat?
2. “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va “Yo‘l xaritasi”.
3. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya”ning mohiyati nimalardan iborat.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazrati qanday ahamiyatga ega.
5. Korrupsiyaga qarshi kurashda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi qanday o‘rin tutadi.
6. “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya” asosiy yo‘nalishlari.
7. “Milliy strategiya doirasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2021–2022 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi”da qanday vazifalar belgilangan.
8. “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi.
9. Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazrati.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G‘afur G‘ulom. 2017.
2. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>

## V. GLOSSARIY

**BIPARTIZM** – ikki tomonlama (ishchilar va ish beruvchilar) sheriklik yoki ijtimoiy sheriklikning ikki subekti o‘rtasidagi kelishuv.

**BOZOR IQTISODIYOTI** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan hamda boshqariladigan iqtisodiy tizim.

**DAVLAT SUBSIDIYASI** – sosial va ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari hisobidan beriladigan hamda aniq loyihalar bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy yoki boshqa moddiy ko‘mak. Davlat subsidiyalaridan faqat nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ustavida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ijtimoiy foydali maqsadlarga erishish uchungina foydalaniladi.

**DAVLAT GRANTI** – ijtimoiy foydali maqsadlarga erishishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublika-sining Davlat byudjeti mablag‘lari, shuningdek, jamoat fondlarining mablag‘lari hisobidan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlariga ularning buyurtmalari bo‘yicha tanlov asosida beriladigan pul mablag‘lari va moddiy resurslar. Davlat grantlarini ajratish Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondlari orqali amalga oshiriladi.

**DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI** – investisiya, innovasiya, infratuzilma va boshqa loyiha hamda muhim bo‘lgan davlat, ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy ahamiyatga ega dasturlarni ko‘zda tutuvchi chora-tadbirlar majmui. Bunda davlat boshqaruvi, hududiy hukumat organlari va Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolatlangan boshqa davlat tashkilotlari davlat sherigi bo‘la oladi.

Xususiy sherik – O‘zbekistondagi yuridik yoki jismoniy shaxs, xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxs, davlat-xususiy sherikligini tuzgan yoki tuzish istagida bo‘lgan xalqaro tashkilot. Ular faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir. Davlat-xususiy sherikligi quyidagi sohalarda amalga oshiriladi: fan, texnika va innovasiyalar, tibbiyot; ta‘lim, madaniyat va ijtimoiy xizmatlar; telekommunikasiya; transport xizmatlari; yo‘l sektori; uy-joy va kommunal xizmatlar; qurilish materiallari ishlab chiqarish; yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati; energiyaning qayta tiklanuvchi manbalari; mexanik muhandislik; metallurgiya; qishloq va suv xo‘jaligi; tabiatni muhofaza qilish.

**DEMOKRATIK INSTITUTLAR** – jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror toptirishga xizmat qiladigan tashkilot va tuzilmalar majmuasi, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari.

**JAMOAT BIRLASHMALARI** – fuqarolarning qonunda belgi-langani tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlar jamiyatlari, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi. *J.b.* – ma‘naviy yoki boshqa nomoddiy ehtiyoj-larni qondirish uchun o‘z manfaatlarining musharakligi asosida qonunda belgilangan tartibda birlashgan fuqarolar ixtiyoriy birlashmasi.

Jamoat birlashmasi qatnashchilari mazkur birlashmaga mulk qilib bergan molmulklariga, shu jumladan, a‘zolik badallariga bo‘lgan huquqlarini saqlab qolmaydilar. Ular a‘zo sifatida

qatnashayotgan jamoat birlashmasining majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar, mazkur birlashma esa o'z a'zolari majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

**IJTIMOIIY ADOLAT** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyat-da o'z o'rni mavjudligi va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish.

**JAMOAT FONDI** – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo'shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko'zlaydigan, a'zoli bo'lmagan nodavlat notijorat tashkiloti.

**IXTILOF** (arab. qarama-qarshilik, kelishmovchilik, ziddiyat, nizo) – odamlarning birgalikda harakat qilish usuli bo'lib, bunda qarama-qarshilik, g'animlik, erishilgan yakdillik, kelishuv va hamkorlikni buzish tamoyillari ustun turadi.

**KASABA UYUSHMALARI** – korxonalar, muassasa, o'quv yurti va boshqa mehnat jamoalarida ishlayotgan ishchi va xodimlarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti.

**KONSENSUS** (lot. consensus – uyg'unlik, yakdillik, kelishuv) – qaror qabul qilish, nizolarni hal etish usuli. Ushbu tushuncha fikr, mulohazalar birligi, o'zaro kelishuv, ovoz beruvchilar barchasining roziligi olingan holdagina kuchga kiruvchi qaror qabul qilish ma'nolarini ham beradi. Keng ma'noda, biror-bir masala yuzasidan e'tiroz yo'qligi asosiy masalalar bo'yicha umumiy kelishuv bo'ladi. Ko'p fikr asosidagi ovoz. Xalqaro shartnomalar tuzishda parlament yoki kengashlarda tegishli qaror qabul qilish; bunda rasman e'tiroz bildirilmasa, ishtirokchilarning umumiy roziligi asosida rasmiy ravishda ovoz berilmaydi. K. usuli, shuningdek, BMT organlarida tan olingan bo'lib, shu tashkilot doirasida o'tkaziladigan xalqaro konferensiya va kengashlarda qo'llaniladi.

**KOMPROMISS** – (lot.) turli fikr, yo'nalish, qarash, harakatlar kelishuvi.

**KUCHLI DAVLATDAN – KUCHLI JAMIYAT SARI** – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalar nufuzi va mavqeining oshishi.

**KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI** – inson manfaatlarini ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat hamda jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta'minlangan, qonun ustuvor bo'lgan jamiyat.

**IJTIMOIIY HAMKORLIK** – turli millat, irq va dinga mansub kishilar hamda guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi. Shuningdek, jamiyat barcha a'zolari va ijtimoiy guruhlarining umumiy maqsad yo'lida birgalikda faoliyat olib borishi, ularning o'zaro hamjihatligini ifoda etadi. U jamiyatning bosh strategik maqsadi, rivojlanish g'oyasi va maqsadi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tub manfaatlarini yo'lida aholi hamda ijtimoiy guruhlarining taraqqiyotini ta'minlash uchun keng miqyosda olib boriladigan birgalikdagi faoliyat.

**IJTIMOIIY SHERIKLIK** – fuqarolar, ijtimoiy subektlar va muassasalar jamiyat hayotining muayyan bir sohasidagi o'zaro birgalikdagi harakatlari majmui. *I.sh.* fuqarolik jamiyatiga xos, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni ta'minlaydigan ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanadi. Bunday munosabatlarda ijtimoiy sheriklik – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi bo'lib, unda manfaatlar qarama-qarshiligi va uni hal etish yo'llari ko'zda tutiladi. Ijtimoiy sheriklik boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bog'liq.

*Ijtimoiy sherikchilik* – ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish-ning muhim mexanizmi bo‘lib, bu davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda biznes vakillarining ijtimoiy hamkorlik asosidagi tarmoqlararo, sohalararo, idoralararo faoliyati.

*Ijtimoiy sheriklik* – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan boshqa qarorlar ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligi.

**IJTIMOY SHERIKLIK SUBEKTLARI** –davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari.

**IJTIMOY SHERIKLIKNING ASOSIY PRINSIPLARI** – qonunga bo‘ysunish; teng huquqlilik; ochiqlik va shaffoflik; hammaboplik; mustaqillik; xolislik; o‘zaro hurmat, manfaatlarining inobatga olinishi va mas’uliyat; majburiyatlar qabul qilishning ixtiyoriyligi.

**IJTIMOY SHERIKLIK SOHALARI** – bu quyidagi sohalar-da amalga oshirilishi mumkin:

aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qo‘llab-quvvatlash va uning ijtimoiy faolligini oshirish; aholi bandligini ta’minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlikni rivojlantirish; atrof muhitni, aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish; har tomonlama barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish, yoshlarga bilim berish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish; onalik va bolalikni, shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy, sosial-iqtisodiy, madaniy hayotida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash, sog‘lom oilani shakllantirish; fan, ta’lim, axborotlashtirish, madaniyat va sportni rivojlantirish; aholining huquqiy bilimi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlat asoslarini mustahkamlash; millatlararo, madaniyatlararo totuvlik va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik, an’anaviy ma’naviy-axloqiy hamda tarixiy-madaniy qadriyatlarni tiklash va saqlash; iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish.

**IJTIMOY SHERIKLIKNING ASOSIY SHAKLLARI** – bu quyidagilardan iborat:

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuv va muzokaralar o‘tkazish; ijtimoiy sheriklik subektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida bitim va shartnomalar tuzish, birgalikda loyiha va rejalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish; ijtimoiy sheriklik subektlari o‘rtasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, axborot almashish.

**MODERNIZASIYALASH** – (fran. Modernizer – zamonaviy) zamona-viylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishda o‘zgarishlarni amalga oshirish.

**NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTI** – jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromad (foйда) o‘z qatnashchilari (a’zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkiloti.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

**TRIPARTIZM** – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasidagi kelishuv.

**UCHINCHI SEKTOR** – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor – davlat, ikkinchi sektor – tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

**FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmui.

**XALQARO MEHNAT TASHKILOTI (XMT)** – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimining ixtisoslashgan muassasi bo'lib, u ijtimoiy adolat tamoyillarini, xalqaro tan olingan inson huquqlari va mehnat sohasidagi huquqlarni ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. 1919 yilda tashkil topgan XMT 1946 yilda BMT tizimiga kirgan birinchi ixtisoslashgan muassasa bo'lgan.

**Abolisionizm** – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQShda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolisionist deb atalgan.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

**Avtonomiya** (yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

**Agregasiya**- (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarini agregasiya qilish, ya'ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg'unlashtiriladi va ular o'rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko'riladi.

**Advokatura**-huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. O'zb.Res. fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining advokatura to'g'risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

**Adliya**-(arab.-adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

**Adolat** (arab. – odillik, to'g'rilik) – u yoki bu qadriyatlarning o'zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o'rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo'lgan jamoa tartibi.

**Aktor** - (lot. "actor" - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.



**Alarmizm** – intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamonaviy g‘oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yaroviy, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi

**Amnistiya**-jinoiyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to‘liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ xususiyatga ega, ya‘ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

**Anaxronizm** – (yunon. ana-orqaga,chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqea yoki hodisalarni boshqasiga almashtirib qo‘yish.

**Apatiya** – (yunon.) butunlay befarqlik holati, loqaydlik.

**Artikulyasiya** – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarining tarqoq qarashlari, ijtimoiyruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma‘lumsiyosiy maqsadlar va talablarga aylantirishjarayonini anglatadi.

**Axborot** – (“informatio” lotinchadanma‘lumotlar, tushuntirishlar, bayonlarni anglatadi) – bu ma‘muriy, tashkiliy tadbirlar o‘tkazish haqida qarorlarni qabul qilish uchun, shuningdek taklif va tavsiyalarni tayyorlash uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi muhim faktlar (shaxslar, harakatlar, tashkilotlar, voqealar) to‘g‘risidagi ma‘lumotdir. Falsafiy nuqtai nazardan axborot bizning ma‘lumot (belgi) olish natijasida o‘rganilayotgan hodisalar (jarayonlar) haqida tasavvurlarimizning noaniqligini kamaytirish yoki olib tashlashni ta‘minlaydi.

**Axborot-** (informasiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kimnidir faoliyati, nimadir faoliyati yokiishning ahvoli haqida habar, habardorlik.

**Axborot madaniyati** – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikasion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalar va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg‘or yutuqlarni qo‘llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o‘zaro munosabatda bilim, mahorat, ko‘nikma va refleksli ko‘rsatmalar mavjud bo‘lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

**Axborot makoni** – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishlash va uzatish bo‘yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiyiqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari majmuasi.

**Axborot sohasini liberallashtirish** – (libera lis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, shuningdek ularning faoliyatidagi cheklovlarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

**Axborot erkinligi**-fuqarolarning konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo‘lib, so‘z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo‘lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O‘z.Res. Konstitusiyasiga asosan, ommoviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzura yo‘l qo‘yilmaydi (67-modda).

**Axborot-kommunikasiya texnologiyalari** – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig‘ish, ishlash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui. Bugungi kunda AT tushunchasiga mikroelektronika, kompyuterlar va dasturiy ta‘minotni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, aloqa va telefoniya, mobil servislar, Internetdan foydalanishni ta‘minlash, Internet axborot resurslarini ta‘minlash kiradi.

**Bill** – ingl. Buyuk Britaniya, AQSH va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e‘tiboriga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

**Bipartizm**-ijtimoiy sheriklikning ikki subekti o‘rtasidagi kelishuv

**Bozor** – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

**Bundesrat** – nem. GFRda yerlar palatasi. Germaniya Yerlari hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat. Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

**Bunyodkor g'oya** — jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

**Vayronkor (buzg'unchi) g'oya** — yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o'rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

**Vatan** ( arabcha “Vatan” – ona yurt ) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug'ilib o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy,

**Vatan ravnaqi** – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan g'oyalaridan biri. Prezidentimiz Vatan ravnaqi g'oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir deb ta'riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O'zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog'liq orzu-umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

**Vatanparvarlik** – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shonsharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan insoniy his-tuyg'udir. Vatanparvarlik - onayurtning, xalqning tarixi va taqdiriga chuqur hurmat bilan qaraydigan, Vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan shaxslarga xos fazilat.

**Verbal** – (lot.) og'zaki; bunda siyosiy ishtirokni shaxsning subektiv jihatiga bog'liq emasligiga ishoraqilinmoqda.

**Veto** – (lot. taqiqlayman) davlat boshlig'i yoki parlament oliy palatasining qonun chiqaruvchi tashkilot qabul qilgan qonunni kuchga kirishini bir muddatga to'xtatib qo'yish yoki uni kuchga kiritmaslik huquqi: mutloq veto, kechiktiruvchi veto.

**Vijdon erkinligi** – ijtimoi-falsafiy tushuncha; har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatda mavjud ijtimoiy meyorlarni buzmagani holda vijdoni buyurgani bo'yicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi.

**Vijdon erkinligi** – fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

**Genezis** - yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

**Gildiya tizimi** – (nem. korporasiya) elitlarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) yepiklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog'onaviyligi; 2) lavozimlarni egallash uchun ko'plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovni

alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi sigarilar xos.

**Gipotetik** – faraz qilingan, taxmin qilingan.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo‘ylab.

**Global** - fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo‘ylab.

**G‘oya** – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsadmuddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

**G‘oyaviy bo‘shliq** - deb, eski xukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o‘tmish va kelajakka dahldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytiladi.

**Gumanizm** (insonparvarlik) – tenglik, adolat, o‘zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari singdirilgan dunyoqarash.

**Guruh** - manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo‘yicha birlik va umumiylik kasb etgan shaxslar yig‘indisi, birlashmasi.

**Davlat** – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo‘lib, ma’lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo‘naltiradi va nazorat qiladi.

**Davlat tassarrufidan chiqarish** - davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

**Daxldorlik hissi**– fuqarolarning tug‘ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

**Demokratik institutlar** – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchidemokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi.

**Demokratik institutlar** - jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

**Demokratik kuchlar bloki**–parlamentdagi ko‘pchilikni tashkil etish maqsadida o‘zdasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holdabir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O‘zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o‘z say-harakatlarini birlashtirishi.

**Demokratiya**(yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma’nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo‘lib, davlat konstitusiyasida ozchilikning ko‘pchilikka bo‘ysunishi tamoyili rasmiy e’lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e’tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

**Desentralizasiya** - nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvnibo‘shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

**Diaspora** – yun. diaspora -tarqalish ma’nosida bo‘lib, ma’lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o‘z davlat tuzilmasiga ega, ma’lum bir xalq millat vakillarining yig‘indisi (masalan O‘zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

**Diversifikasiya** – lot. diversification – o‘zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo‘nalishlarda rivojlantirishga strategik mo‘ljol olish. Masalan, kapitalni diversifikasiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag‘larni turli obektlar o‘rtasida bo‘libbo‘lib joylashtirish.

**Diniy bag‘rikenglik** - bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e‘tiqod vujudga keltiradi.

**Diskurs** - ingl. discourse < lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

**Differensiasiya** – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlargaajralishi, bo‘laklarga bo‘linish.

**Dualizm** – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta‘limot).

**Yevroposentrizm** - G‘arbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na‘muna, deb qarovchi konsepsiY. Unga ko‘ra G‘arbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

**Jazo** – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo‘llanadigan ma‘naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog‘liq bo‘lgan majburlov chorasi.

**Jamiyat** – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig‘indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma‘naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiy orzu-maqсадlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

**Jamoa manfaati** – kishilar guruhi, korxon va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

**Jamoat birlashmalari** – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

**Jarayon** – muayyan vaqt oralig‘ida bo‘lib o‘tgan o‘zgarishlar, voqea va hodisalarning davomiyligi. J.lar uzlukli va uzluksiz, tabiiy va sun‘iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo‘lishi mumkin.

**Jinoyat** – qonundanazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.  
zamin, o‘lkadir.

**Identifikasiya** – (lot. o‘xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamog) monandlik. Siyosiy identifikasiya - u yoki bu siyosiy guruhga o‘zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

**Ijtimoiy adolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e‘tirof etish.

**Ijtimoiy manfaat** – bu barcha jamiyat a‘zolarining birgalikda ro‘yobga chiqadigan manfaatlaridir.

**Ijtimoiy uyushmalar** – fuqarolar manfaatlari umumiyliigi va ixtiyoriylik asosida vujudga keluvchi, lekin o‘z faoliyati natijasida daromad olishni ko‘zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlar, bolalar tashkilotlari, ilmiy texnik, madaniy-ma‘rifiy, sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, jamg‘armalar, assosiasiyalar, boshqa tuzilmalar). Demak, fuqarolarning har qanday ko‘ngilli uyushmasi – ijtimoiy uyushmadir. Mavjud siyosiy hayotni o‘zgartirishga yoki unga ta‘sir etishga urinuvchi ijtimoiy uyushmalar siyosiy, deb qaraladi.

**Ijtimoiy hamkorlik** – turlimillat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi.

**Ijtimoiy sheriklik** - davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** - bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Iqtisodiy mustaqillik** –muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma'naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

**Iqtisodiy resurslar** – ma'lum davrda ma'lum bir mamlakat ixtiyorida to'plangan va mavjud bo'lgan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ularni iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol jarayonlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan vositalar, qo'r-qutlar, imkoniyatlar va manbalardir

**Individ** - lot. individuum-bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lgan tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi.

**Inson omili** – inson mohiyatiga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

**Inson huquqlari**- unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushlab yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquqlari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

**Insonparvar demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari** - birinchidan, jamoat va davlat turmushining barcha sohalarida huquq va qonunning ustuvorligi, qonun talablarining davlat hokimiyati va barcha organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi; ikkinchidan, shaxs huquqlari va erkinliklarining realligi, uni erkin kamol toptirish ta'minlanishi, davlat bilan shaxsning o'zaro mas'ulligi; uchinchidan, davlat hokimiyatini qonunchilik, ijrochilik va sudhokimiyatiga bo'lish asosida amalga oshirish.

**Institut** - lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z rasmiy tasdig'ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va meyorlarga muvofiq o'zaro xatti harakat qilish uchun qo'llab-quvvatlanayotgan ko'rsatmalarga ega bo'lgan ijtimoiy agentlarning o'zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

**Integrasiya** - lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

**Interaktiv davlat xizmatlari** – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikasiya tarmoqlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013 yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo'jalik yurituvchi subektlar bilan o'zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko'rsatiladi.

**Internet** – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompyuterlarni o‘zaro bog‘lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog‘i.

**Internet jurnalistika** – bu internet makonida axborot shakllar dolzarbligini shakllantirish va taqdim qilish bo‘yicha faoliyatni kasb etuvchi sifat jihatidan yangi va sivilizatsiyali fenomendir, bunda bunday shakllar tashuvchisiga nafaqat so‘z, balki rasm, fotosurat, kino, video, tovush, veb-sahifa – keng ma‘noda axborot yoki matn tashuvchisi sifatida namoyon bo‘lishga qodir har qaysi obekt aylanishi mumkin.

**Interpellyasiya** - fr. interpellation < lat. interpellatio < interpellare – munosabat, aloqa, suhbat va boshqa shu kabilarni bo‘lib qo‘yish, qarshi chiqish.

**Interfaol muloqot** – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida “jonli” muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

**Informasiya** – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma‘nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare- shakl berish qabilida ham ishlatiladi.

**Irrasional** – (lot.irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg‘u, instinkt va e‘tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

**Ishlab chiqarish usuli** - ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o‘zaro ta‘siri.

**Ishlab chiqaruvchi kuchlar** - ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya‘ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

**Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi** – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yilning 29 avgustida “Kadrlartayyorlashmilliy dasturi to‘g‘risida” qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli quyidagi tarkibiy qismlardan iboratligi belgilab qo‘yilgan:

1. Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

2. Davlat va jamiyat – ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga amlga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

3. Uzluksiz ta‘lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta‘limning barcha turlarini, davlat ta‘lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

4. Kadrlar tayyorlash tizimida – fan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimida ishlab chiqarish – kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta‘minlash jarayonining qatnashchisi (“Barkamol avlod–O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, T., 2008., 41-53 b.).

**Kasaba uyushmalari** -korporatsiya, muassasa, o‘quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligini tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti;

**Kvazi...** – lot. turli so‘zlar boshiga qo‘yiluvchi va «go‘yo», «sohta» ma‘nolarini beruvchi qo‘shimcha. Masalan, kvazidemokratiya.

**Kvintessensiya** – (lot. beshinchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

**Kompetent** – (lot. sompetents- loyqlik, mutanosiblik); o‘z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo‘lgan ilmga yoki qobiliyatga ega bo‘lishni anglatadi.

**Konfessiya** -lat. cōfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo‘nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

**Konsepsiya** - lot. conceptio-idrok qilish, idrok, o‘zlashtirish; u yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi; qandaydir hodisalarni ko‘rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

**Konyunktura** – lot. conjunctura - bog‘lash, qo‘shish. Bozorkonyunkturasi – talab va taklif, baholar darajalari, mollar zaxiralari, shuningdek, iqtisodiy sikllar o‘zgarishlar davri – ko‘tarilish yoki tanazzul kabilar o‘zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozordayuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Konyunkturaning birinchi belgisi uning tez o‘zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

**Kooperasiya**- lot. cooperatio-hamkorlik; ko‘pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o‘zaro bir-birlariga bog‘lik o‘lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayirboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

**Kosmopolitizm** - (yunon. kosmopolites — dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da’vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an’ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg‘usidan voz kechish g‘oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm- ya’ni, qayerda yaxshi hayot bo‘lsa o‘sha yerni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo‘qotadi, g‘ururni o‘ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

**Ko‘ppartiyaviylik**–mamlakat parlamentida ko‘pchilik o‘rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo‘lgan siyosiy tizim.

**Kuchli davlat** –omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma’naviyatga egabo‘lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy asosga ega bo‘ladi.Uningqudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do‘stlik va bag‘rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

**Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari** – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tishi, mahallalarning nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

**Kuchli jamiyat**-mustahkam negizning barqaroligi ta’minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

**Kuchli fuqarolik jamiyati** – inson manfaatlari ustuvorligi va fuqarolik jamiyati institutlari orqali ularning davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishi ta’minlangan, qonun ustuvor bo‘lgan jamiyat.

**Qonun** – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo‘lishi.

**Qonun ustuvorligi** – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo‘ladi. YA’ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo‘ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

**Legitimlik** – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishini anglatuvchi qadriyatli tushuncha. Tarixan an’anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo’ladi.

**Liberalizm** – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o’tuvchi hokimyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o’zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilari I.Bentam, J.Mill, A.Smit, G.Spenser).

**Liberallashtirish** – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo’lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo’lini e’tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

**Liga**- lot. ligare-bog’lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

**Lobbi** - lot. lobby-kuluar; jamiyatdagi ma’lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizimlar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarini amalga oshirish parlament va mansabdorshaxslarga bosim o’tkazishga intilayotgan guruhlar.

**Madaniyat** – kishilarning tabiatni, borliqni o’zlashtirish va o’zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma’naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo’llari va uslublari majmui.

**Madaniyatli odam** – o’qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala meyorlariga amal qiluvchi, ahloq normalariga to’la amal qiladigan, ilg’or falsafiy g’oyalarga ega bo’lgan, jahon madaniyati durdonalaridan xabardor bo’lgan shaxsga aytiladi.

**Manfaat** – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining asosiy sababi.

**Manfaatlar** - lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; obektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilari uchun zarur bo’lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag’ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

**Manfaatlar guruhlari** - unga a’zo bo’lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o’zaro munosabatlarida, shuningdek, o’z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

**Marginal** – (fr. “marginal”) ikkinchi darajali, oxirgi, chetda turuvchi; siyosatshunoslikda – oldingi ijtimoiy aloqalarini yo’qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

**Mahalliy (yoki munisipal) boshqaruv** - ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo’yiladigan organlar hamda ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

**Ma’naviy barkamol inson** – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma’naviy barkamol inson tushunchasi sog’lom avlod tushunchasi bilan ham bog’lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo’lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

**Ma’naviy jasorat** – yer yuzida barcha o’lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o’zgartirib yuborgan jamiki ulug’ kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko’rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati vayuksak ma’naviy salohiyatini ifodalaydi.



**Ma'naviy tahdid** – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informasion hurujlarni nazarda tutadi.

**Ma'naviyat** – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

**Ma'naviyatga tahdid** – inson qalbi va imon e'tiqodini susaytirishga qaratilgan hamda insonning o'zligidan begonalashtirib, kelajagidan mahrum etishga yo'naltirilgan yot va begona g'oyalar.

**Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar** – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

**Ma'rifat** – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

**Mentalitet** - fran.mentalite; lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'nalishi aql bichimi, akliy yetuklik, zakovat; ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

**Mexanizm** - yunon. mechane-qurol, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda ma'juziy ma'noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va vositalariga nisbatan qo'llaniladi.

**Millat** — til, ma'naviyat, milliy o'zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an'analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog'langan mustaqil subekt sifatida o'ziga xos moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

**Millatlararo munosabatlar** — birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o'rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakllardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

**Millatlararo totuvlik g'oyasi** - milliy istiqol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o'zbek millati va shu bilan birga o'zlarining o'rtasida ko'p yillarga mo'ljallangan ezgulik, ishonchlik, do'stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosaliylik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

**Millatchilik** bu - millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug'lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo'lgan nodemokratik mafkura.

**Milliy g'oya** – ajdodlardan avlodlarga o'tib, asrlar davomida e'zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma'naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta'bir joiz bo'lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlari yig'indisi.

**Milliy g'oya negizlari** – ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, xalqning o'ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma'naviy meros qadriyatlari hamda dunyo xalqlari tomonidan e'tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuidir.

**Milliy qadriyat** – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyat shakli.

**Milliy mafkura** – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g'oyaviy asoslash, ta'minlashga qaratilgan qarashlar tizimi

**Model-** fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

**Modernizasiyalash-** fran. modernizer-zamonaviy; zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o'zgarishlarni amalga oshirish.

**Mulk obektlari** - mulkka aylangan barcha boylik turlari. Mulk subektlari - mulk obektini o'zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

**Mulkdan foydalanish** - mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo'llanilishi, ya'ni uning nafli jihatlarining bevosita iste'mol qilinishi.

**Mulkni tasarruf etish** - mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo'lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o'zlashtirishning ijtimoiy shakli.

**Mulkchilik munosabatlari** - mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o'zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Munisipal boshqaruv** - ingl. municipal o'zini o'zi boshqarish; bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o'zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, - ularning saylanishligi va o'z hududidagi aholi manfaatlarini asosida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

**Munisipalitet-** fran.municipalite-shahar o'zini o'zi boshqarish organi; ko'pchilik mamlakatlardagi o'zini o'zi boshqarish organlari.

**Mustaqil bosma OAV lari** –davlat boshqaruvidan holi bo'lgan, o'zining fikr va so'z erkinligini ro'yobga chiqaruvchi, lekin bunda o'z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

**Nizom-** muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

**Nodavlat notijorat tashkiloti** (NNT) - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyd) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini o'zi boshqarish tashkilotidir.

**Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari** – o'z oldida Internet tarmog'ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo'yuvchi nodavlat tusdagi ro'yxatga olingan veb-saytlari.

**Okkultizm,** - fr. occultisme, nem. Okkultismus < lat. occultus – sirli, yashirin, dunyoning yashirin, g'ayrihuuriy, ilmiy tafakkurga sig'maydigan, ammo “tanlangan”, “taqim etilgan”largagina nasib etuvchi qudrati haqida notabiiy qarash.

**Ommaviy axborot vositalari** – keng ko'lamda axborotni yig'ish, ishlash va tarqatishni ta'minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televideniye va h.k.).Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo'lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio-, video, kinoxronikal dasturlar, umumfoydalanishdagi telekommunikasiya tarmoqlaridagi veb saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir. «Ommaviy axborot vositalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida.(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007 y., 3-son, 20-modda)

**Parlament** - ingl. parlament, frans. parlergapirmoq va so'zlamog; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

**Parlamentdagi ko'pchilik**—O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko'pchilik o'rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

**Parlamentdagi muxolifat**—yangitdanhakllantirilgan hukumatning tutgan yo'li va dasturiga yoki uning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari, shuningdek O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar guruhi.

**Partisipasiya** – (ingl) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo'yadigandemokratiyaning modeliga doir nisbat.

**Partiya** - lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruhmanfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi tashkilot.

**Passiv saylov huquqi** - fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

**Plyuralizm** - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo'lgan siyosiy tizim.

**Plyuralizm** - lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar **Polietnik** – ko'pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

**Prezident** – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o'tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so'zlaridan olingan bo'lib, ko'pchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma'lum bir muddatga saylangan davlat boshlig'i.

**Pressa** - fran. presse; ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

**Prinsip**- lot. principium-asos, dastlabki, boshlang'ich; asos bo'ladigan poydevor g'oyalar; xulq, faoliyat va hatti-harakatning asosiy qoidasi.

**Proporsional** (- ot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro'yxatlar bo'yicha beriladigan, har bir ro'yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

**Profisit** – byudjetga nisbatan qo'llanilganida byudjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo'lganligini ifodalaydi.

**Rasional** – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to'g'ri yo'l ma'nosida ham ishlatiladi).

**Rejim**- fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

**Saylov** – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

**Saylov huquqi** – davlat boshlig'i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisi. Caylov huquqi, odatda, konstitusiya va saylov to'g'risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

**Sektorlararo nazariya**- ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi to'g'risidagi nazariya

**Senat** - lot. senatus-eski, qariya; ko'pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

**Siyosat sebekt**i – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sosial guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilari, siyosatning subekti hisoblanadi.

**Siyosiy jarayonlar** – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo'ladi.

**Siyosiy qarashlar** – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o'ziga xos an'analar mavjud bo'lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

**Siyosiy madaniyat** - insonning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo'ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subekti

sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma'noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo'lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

**Siyosiy ong** – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

**Siyosiy partiyalar** – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo'nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

**Siyosiy tashkilotlar** – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

**Siyosiy tizim** jamiyatda davlat hokimiyati va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlar harakatlarida o'z ifodasini topadi.

**Sosial** – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'langan.

**Sosium** - lot. socium-umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shartsharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiylik, birlik.

**Strata** – (lot.stratum)-qatlam.

**Struktura** (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – obektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir.

**Subordinasiya** – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo'yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo'ysunishiga qat'iy amal qilish.

**Suveren** – fran. souverain-oliy so'zidan olingan bo'lib, oliy, suverenitetga ega bo'lish, mustaqil,qaram bo'lmagan ma'nolarini beradi.

**Suverenitet** – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo'l qo'ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

**So'z erkinligini ta'minlash** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o'z fikrini (hayolini) oshkora (og'zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

**So'z erkinligini ta'minlash** – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o'z fikrini (hayolini) oshkora (og'zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

**Tabaqa** (qatlam) - o'xshash kasb-hunar, mashg'ulot, holati va ahvoli bilan manfaatlar umumiyliги asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

**Taraqqiyot** – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga,YU quyidan yuqoriga yo'nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o'tishi jarayoni.

**Taraqqiyotning “O'zbek modeli”** - istiqlolning dastlabki yillarida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov rahbarligida ishlab chiqilgan islohotlar strategiya bo'lib, taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o'tish tajribasi, mamlakatimiz boshidan kechirgan tarixiy sinovlar va ularning saboqlari, xalqimizning turmush va tafakkur tarzi asos qilib olindi. Shu tariqa yurtboshimiz tomonidan jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili vujudga keldi: Birinchi tamoyil: iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi; Ikkinchi tamoyil: davlat – bosh islohotchi; Uchinchi tamoyil: jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi; To'rtinchi tamoyil: aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat

yuritish; Beshinchi tamoyil: bozor iqtisodiyotiga obektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, tadrijiy asosda, puxta o‘ylab, bosqichmabosqich o‘tish.

**Tashabbus**- lot. inisiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

**Texnotronika** -ingl. technetronic;. Elektronikadan foydalanib jamiyatga ta’sir etuvchi texnika vositalari.

**Tinchlik** – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

**Tolerantlik** - fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o‘zbek tilida lug‘aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi. Antik davr va o‘rta asrlarga qadar asosan tabobat sohasida keng istifoda etilgan mazkur tushuncha hayvonlar va insonlar organizmlarining turli-tuman kasalliklar, jarohatlar va umuman, hayot uchun kurashish jarayonlariga doir immun qobiliyatini o‘rganish masalalariga aloqador bo‘lgan. Keyinchalik boshqa fanlar doirasida ham e’tiborli asarlar yaratgan mashhur tabobat olimlari va aksincha, tabobat borasida ham diqqatga sazovor fikrlar bildirgan boshqa soha olimlari mazkur tushunchani kengroq ma’noda qo‘llay boshlaganlar (Epimenid, Gorgiy, Aristotel, Epiktet, Ibn Sino). XX asrga qadar tolerantlik tushunchasining ayniqsa din bilan bog‘liq muruvvat ma’nosidagi talqinlariga ko‘p duch kelish mumkin. Lekin mazkur asr boshlaridan texnika taraqqiyoti va uning asosida mehnatni tashkil etish munosabatlarining jadal rivojlanishi natijasida tolerantlik tushunchasi davlat va xalq munosabatlarida, ayniqsa huquqiy munosabatlar tizimida keng mazmun kasb etadi. Endi tushuncha chidam, sabr-toqat ma’nolarini yo‘qotmagan holda ko‘proq bag‘rikenglik, hamjihatlik, hamkorlik kabi mazmunda talqin etila boshlandi.

**Totalitar** - lot. totalis-butun, to‘la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitusion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati bironbir guruh (siyosiy partiya) qo‘lida to‘planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo‘lmaydi.

**Tranzaksiya** - ingl. bank transaction, ot lot. transactio - kelishuv, shartnoma; tranzaksiya – bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma. Bank tranzaksiyasi, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag‘larini o‘tkazish tushuniladi.

**Transformasiya** - lot. transformatio – o‘zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o‘zgartirish, faroliyatning maqsadli yo‘nalishini o‘zgartirish.

**Tred**-yunionistik nazariya- ijtimoiy sheriklikning mhnat munosabatlarini tartibga solishi to‘g‘risidagi nazariya

**Tripartizm**-ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasidagi kelishuv.

**O‘zini o‘zi boshqarish** (ingl. municipal o‘zini o‘zi boshqarish); u yoki bu ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarishga aytiladi. O‘zbekistonda o‘zini o‘zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig‘inlari kiradi.

**O‘zini o‘zi boshqarishning asosiy prinsiplari** - O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida va qonunlarida mustahkamlangan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining tabiati bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g‘oyalar yig‘indisidir.

**Uklad** - tartib, tarz; ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo'jalik shakli.

**Umumbashariy qadriyat** – dunyo xalqlarining ko'pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy meyorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an'ana va mas'uliyatiga aylangan, voqe'lik vayohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo'llaniladigan tushuncha.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – butun insoniyatning tajribasini ifodalovchi va ma'lum farqlanishlar bo'lishidan qat'i nazar, barcha odamlar uchun mushtarak bo'lgan dunyoqarashning ideallari yoki axloqiy normalar.

**O'ng** - siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

**Universal** – (lot. universalis –umumiy); har tomonlama, keng qamrovli, ko'plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

**Uchinchi sektor** - dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko'rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo'llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

**Faol (aktiv) saylov huquqi** - fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

**Feminizm**- lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

**Feminizm**- lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

**Fikr erkinligi**– bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

**Fiskal** - [ingl.](#) fiscal policy; [lot.](#) fiscus - savat;kassa, kazna, moliya, soliq-byudjet siyosati hukumat siyosati, ya'ni istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta'minlash va biznesikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat byudjetining daromadlari va harajatlari, ya'ni: soliqlar, transfertlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

**Forum**- lot. forum;vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o'tkazilgan maydon.

**Fraksiya** - lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a'ziligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

**Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi** -fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi** -O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urfodatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tashkiliy asosi** - o'zini o'zi boshqarishhuquqining instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi,faoliyat tartibi, shakli va prinsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi** - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'laridan, ushbu organlarga xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari belgilangan tartibda ajratgan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

**Fuqarolik** – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog'liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

**Fuqarolik jamiyati** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

**Fuqarolik jamiyati institutlari** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

**Fuqarolik mas'uliyati** – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

**Funksiya** - lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

**Funksiya** - lot. functio-faoliyat, o'tash, bajarish; faoliyat, majburiyat, ish, tayinlash, burch, vazifa, topshiriq.

**Xalq** - (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) –keng ma'noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma'noda, tarixiy-etnoijtimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug' va boshqalarni ifoda etuvchi tushunchadir. Xalq - birinchi marta xalqaro huquq subekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida "Xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilash" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan.

**Xalq farovonligi** – milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

**Xartiya** – (yun. qog'oz, yorliq) o'rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi xujjat bo'lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklarasiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo'lmagan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi xujjat.

**Xususiylashtirish** - mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

**Hamkorlik siyosati** – xalqaro siyosat subektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

**Huquq** - davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy meyorlar va qoidalar.

**Huquqiy davlat** - huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdor shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o'z ma'suliyatlarini his qilishlari, o'z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma'suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma'suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

**Huquqiy madaniyat** – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqea bo‘lib, hozirgi davrda ilg‘or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

**Shok terapiyasi** (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan qator salbiy oqibatlarini (narxlarining o‘sishi, inflyatsiya, bandlikning pasayishi va shunga o‘xshash boshqa holatlar) o‘z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

**Evolyusiya** (lotin tilidan tarjimasi – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo‘lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko‘ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o‘zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o‘zgarishiga olib keladi.

**Egalitarizm**- fran. egalite-tenglik; umumiy tenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g‘oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo‘nalishlaridan biri.

**Elat** - bir tilda so‘zlashuvchi, o‘ziga xos madaniyati mavjud bo‘lgan va ma‘lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o‘z tuzilmasiga ega bo‘lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat— kishilarningtil, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

**Elektoral** - lot. elector-saylovchi; saylanadigan, tanlanadigan.

**Elektorat** – saylovlarda ma‘lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma‘lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

**Elektron huqumat** – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo‘lgan davlat xizmatlarining to‘plamini ko‘rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o‘rtasidagi o‘zaro shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi. Elektron huqumat – mamlakat miqyosida boshqaruv jarayonlarning butun majmuasini avtomatlashtirishga asoslangan hamda davlat boshqaruvining samaradorligini sezilarli darajada oshirish va jamiyatning har bir a‘zosi uchun ijtimoiy kommunikasiyalar harajatlarini kamaytirish maqsadiga xizmat qiluvchi davlat boshqaruvi elektron hujjat almashinuvi tizimi. Elektron huqumatni yaratish hujjatlarni va ularni ishlash jarayonlarini boshqarish bilan bog‘liq vazifalarning to‘liq ko‘lamini hal etishni amalga oshiruvchi ijtimoiy boshqaruvining umumdavlat taqsimlash tizimi qurilishini nazarda tutadi.

**Emissiya** - fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muomaladagi pul hajmini ko‘paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo‘lishi mumkin.

**Empirizm** - yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta‘limot.

**Erkinlashtirish** -mamlakatning demokratikjamiyatgao‘tish va islohotlar o‘tkazishjarayonidamavjud bo‘ladigan turli to‘siqlar, cheklashlar va yonberishgamajburetdiganomillardanqutilishga qaratilgan amaliyfaoliyatdir. U demokratikjarayonlarningsamarali rivojigayangikuch, quvvat va ilhom bag‘ishlashimkoniyatiniyaratadi.

**Etnos** – yun. ethnos - xalq, qabila, to‘da, kishilar guruhi, irq ma‘nolarni anglatadi.

**Yuksak ma‘naviyat** – inson ma‘naviyatining eng yuqori darajasi bo‘lib, u insonlarni eng ezgu va ulug‘ maqsadlarga yo‘naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqboli yo‘lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

**Yurt tinchligi** – milliy istiqloq mafkurasining asosiy g‘oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiysharti.



**ISESCO** - Islom Konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi.

**Uz domen zonasi** – ma'lum darajadagi “Uz” domeniga kiruvchi domen nomlarining majmuasi; barcha ro'yxatga olingan “Uz” domen nomli saytlarni birlashtiruvchi va shu tarzda mazkur domen bilan yagona Internet-makonini tashkil etuvchi veb-zona. O'zbekiston Respublikasining mamlakat kodini ifodalovchi, maxsus vakolatli tashkilot tomonidan boshqariladigan va muvofiqlashtiriladigan hamda O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi ostidagi o'z ichiga keyingi daraja domen nomlarini oluvchi yuqori daraja domen. «UZ» domenidagi domen nomlarini ro'yxatdan o'tkazish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008 y., 26-27-son, 255-modda; 2015 y., 5-son, 61-modda).

**Ziyonet – ZiyonET jamoat axborot ta'lim tarmog'i.** O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2005 yil 28 sentabrdagi PQ191-sonli “O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq tashkil topgan. ZiyonET tarmog'ining asosiy maqsadi, respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilari uchun ta'lim olish tizimida keng ko'lamli axborot-kommunikasiya xizmatlarini joriy etishdan iborat. ZiyonET O'zbekiston Respublikasiga taalluqli bo'lgan turli resurslar tiplaridan axborot axborot ta'lim tarmog'i: darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, leksiyalar konspektlari, referatlar, taqdimotlar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, bakalavrlarning bitiruv ishlari, magistrnlarning dissertasiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertasiyalarning avtoreferatlari va yana boshqalar.

## **VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini

- joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni. 15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi. - 2002. № 4-5. - 68-modda.
20. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi qonuni// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-son, 688modda.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30-sentabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli Farmoni.

## **SH. Maxsus adabiyotlar**

9. Walzer M. Concept of Civil Society -Walzer M., ed. Toward a Global Civil Society. Providence RI: Berghahn Books. 1995.
10. Schmitter Ph. Civil society East and West// Consolidation the Third Wave Democracies: Themes and Perspectives/ Ed. by L.Diamond et al. Baltimore and London: The Johns Hopkins U.P., - 1997. – P.239-262.
11. O'Connell, Brian. Civil Society: The Underpinnings of American Democracy. Medford, Mass: Tufts University Press, 1999. 12. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari / Mualliflar jamoasi. T.: G‘afur G‘ulom. 2017.
13. Sharifxo‘jayev M. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. –T.: Sharq, 2003.
14. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
15. Jalilov A. boshqalar. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
16. Fuqarolik jamiyati. Darslik loyihasi– T.: 2016. Ziyonet.uz. Mualliflar jamoasi. <http://library.ziyonet.uz/uz/book/32900>
17. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug‘ati. Lotin yozuvida. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017. 23 b.t.
18. Utamuradov A, Qirg‘izboyev M, Xojiyev T. Fuqarolik jamiyati / O‘quv qo‘llanma. Lotin alifbosida. – T.: Mumtoz so‘z. 2018. 395 bet.
19. A.Utamuradov. Fuqarolik jamiyati g‘oyalari evolyusiyasi. –T., “Adabiyot uchqunlari”, 2018. B.193.

20. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
21. Nizomulmuluk. Siyosatnomayokisiyarul-muluk -T.: Adolat, 1997.
22. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, siyosiy mafkuralar, siyosiy madaniyatlar. -T.: Sharq. 1998.
23. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. -T.: Sharq, 2002.
24. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning dolzarb muammolari: O'quv qo'llanma / T. Do'stjonov, M. Mirhamidov, S. Hasanov. -T.: Iqtisod – Moliya, 2006.
25. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. -T.: Yangi asr avlodi, 2006.
26. Abduazimov O. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari. -T.: Akademiya, 2008.
27. Tolibov I.I. Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, institutlari, asosiy prinsiplari va funksiyalari / Red. A.X. Saidov. -T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, 2008.
28. Malikova G.R. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – milliy demokratik institut / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. -T.: TDYUI nashriyoti, 2009.
29. Muminov E.A. Modernizatsiya grajdanskogo obshestva v Respublike Uzbekistan i Korolevstve IspaniY. -T.: IPTD imeni G. Gulyama, 2011.
30. Mavlonov J.YO. Grajdanskoye obshestvo: ot konsepta k konsepsiyam i paradigmam (sosalno-filosofskiy analiz). MonografiY. -T.: Istiqlol nuri, 2014.
31. Mavlonov J. Kommunikativniye osnovi deyatelnosti institutov grajdanskogo obshestva: tendensii i innovasii / MonografiY. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.
32. Nishanbayeva E.Z. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik tamoyillari. -T.: Sharq, 2015.
33. Xasanov R., O'tamurodov A. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. O'quv uslubiy majmua. -T.: 2016. 14 b.t.
34. Utamuradov A. va boshqalar. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lug'ati. -T.: Turon-Zamin, 2017. 19,5 b.t.
35. Utamuradov A. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari // O'quv O'quv uslubiy majmua, -T., "Brok class Servis" 2017. 6,2. B.T.
36. Muminov A, E.Nishanbayeva, A.Abduhalilov. Ijtimoiy sheriklik.T.: "Universitet". 2018.

#### **IV. Internet saytlar**

55. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
56. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
57. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiymetodik markazi

58. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyonET
59. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
1. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
  2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
  3. [www.nimfogo.uz](http://www.nimfogo.uz)
  4. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
  5. <http://press.natlib.uz>